

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA TA‘LIM VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOJIXON SABITOVA

**O‘ZBEK XALQ
DOSTONLARINING NAZARIY
ASOSLARI VA BADIYYATI**

Monografiya

Toshkent
“FIRDAVS-SHOH”
2022

UDK:
KBK:
S

Sabitova T.

O‘zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati [Matn] Monografiya.
Tojixon Sabitova. – Toshkent: “Firdavs-shoh” nashriyoti, 2022. – 140 b.

Mas’ul muharrir:
Davlatova Adiba,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Taqrizchilar:
Abdimurod Tilavov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Nodira Xoliqova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur monografiyada folklorshunoslikning yirik epik janrlaridan bo‘lgan o‘zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiy jihatlari ilmiy tadqiq qilingan. Dostonlardagi tahlillar muallifning ilmiy kuzatishlari, adabiy-nazariy qarashlari va 50 yildan ortiq pedagogik tajribalariga tayangan holda va ta’limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida e’tirof etilayotgan yangiliklarni xalq dostonlarini o‘qitishdagi bir necha interfaol metodlardan foydalanish mumkinligi jihatlari ko‘rsatib berilgan. Folklorshunoslikning yirik janri bo‘lgan dostonlarning nazariy, poetik, yangi metodik tamoyillarini tahlil va tadqiq etish Yangi O‘zbekistonni Uchinchi Renessans davrining bugungi muhim hamda dolzarb masalalaridandir.

Monografiya pedagogik oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, bakalavriat va magistratura talabalari, filolog mutaxassislar, yosh ilmiy tadqiqotchilar va keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy texnik kengashining 2022-yil 20-oktyabrda 20-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8307-6-9

© Tojixon Sabitova, 2022
© “Firdavs-shoh” nashriyoti, 2022

*Ushbu monografiyani Chirchiq
davlat pedagogika universitetining
5 yilligiga bag'ishlayman.*

Muallif

KIRISH

Mustaqilligimizning 31 yilligi tadbirlarida muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 5ta ustuvor yo'nalishning birinchisini ta'lim sohasi deb aytdilar. Zero bu sohada ilmiy salohiyat eng yuqori o'rinda turmog'i lozim. Chunki qayerda ilm-ma'rifat bo'lsa, o'sha joyda ma'naviyat, qadriyat, jonajon Vatanga bo'lgan sadoqat va boshqa insoniy fazilatlar rivojlanaveradi. Shuning uchun bu masalalarga davlat siyosati darajasida katta e'tibor berilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi» kitobining to'rtinchi bo'limida ta'lim, tarbiya, ilm-fanga hammaga tegishli fikrlarni bejiz aytmadilar: «Yana bir bor ta'kidlayman: men -Yangi O'zbekistonni -obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renessansni barpo etishda pedagoglar, professor-o'qituvchilar, ijodkor ziyolilarni eng katta kuch, tayanch va suyanch»¹deb ilm ahliga ishonch bildirdilar. Shunday ekan, biz professor-o'qituvchilar har birimiz o'z sohamizni halol mehnatimiz bilan rivojlantirishimiz va ilm-fanni yuksak marralarga yetkazishimiz lozim. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarimizni amalga oshirishimiz zarur, zero folklorshunoslik ilmida ham. Shu nuqtai nazardan bu monografiyani yaratishga harakat qildim. Muhtaram Yurtboshimiz aytganlaridek, bu tadqiqot folklor ilmi bilan shug'ullanuvchi bakalavr, magistr talabalarga va doktorantlarga amaliy yordam berar degan umiddaman.

Jahon folklorshunosligidagi asarlarning nazariyasi, poetikasi va metodikasini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Dunyo folklorshunosligi mundarijasida turkiy xalqlar, jumladan o'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari alohida o'rin egallaydi. Bu asarlar millat tarixi singari qadimiy va boy ekanligi diqqatga sazovordir. Turkiy xalqlarning kechmishi, xalq va davlat sifatida bosib o'tgan yo'li og'zaki ijod dostonlarida o'z aksini topgan.

O'zbek folklorshunosligida eng muhim o'rin tutgan, sinkretik janr hisoblangan katta hajmdagi epik asarlardan biri dostonlar haqida qancha

¹ Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston.-2022.

ko'p mulohaza yuritsang shuncha kamday tuyulaveradi. Chunki bunday asarlar xalq og'zaki ijodida o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik idealizatsiya ko'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir.

Dunyodagi ayrim xalqlarda o'zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. Biz - o'zbeklarda bu janr «doston» deb ataladi. «Doston» so'zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma'nolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan og'zaki tarzda kuylab kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar, «Alpomish», Go'ro'g'li turkumidagi «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Malika ayyor», «Ravshan»; «Kuntug'mish», «Rustamxon» kabilar og'zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z», Navoiyning «Hayratul abrор», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar bo'lib, ularni og'zakidan ajratish lozim bo'ladi.

Og'zaki ijoddagi doston bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Professor M. Saidov ularni she'riy va nasriy parchalardan iborat matndan, musiqadan, doston aytuvchining hofizlik san'atidan va soz cherta bilishidan iborat, deb qayd etadi. Shu bilan birga, doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar davrasida qaynab (ilhomga kirib) doston ijro etishiga guvoh bo'lish ham muhimdir. Demak, doston bo'lishi uchun baxshining tinglovchi bilan jonli muloqotini ham tarkibiy qismlardan biri sifatida baholash mumkin.

Dostonni baxshilar kuylaydilar. Qadimgi zamonlarda «baxshi» xalqona usullar bilan bemorni davolovchi tabib, ayrim hududlarda ustoz ma'nolarini anglatgan. Bugungi kunda bu so'z asosan xalq dostonlarini kuylaydigan san'atkorni bildiradi. Baxshi soz chertganda sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytganda xonandadir. Shuningdek, parchalarni bir zumda to'qib ketadigan shoir, dostondagi nasriy parchalarni yoddan o'qiyotganda badiiy so'z ustasi hamdir. Shoirtabiat baxshi hech qachon dostonni bir xil, ya'ni o'zgarishsiz ijro etmaydi. Professor Hodi Zarifovning ta'kidlashlaricha, bulung'urlik Amin baxshi «Alpomish» dostonini uch oy davomida tinglovchilarini sira zeriktirmay kuylagan ekan. Endi yozda yoki kuzda boshlangan doston kuzda yoki qishda nihoyasiga yetishini tasavvur qilaylik. Bir fasl muddatda doston ijro etgan baxshi biron kitobga qaramasdan shuncha gapni va she'riy parchalarni qaerdan topgan? O'sha nusxadagi dostonning hajmi qanday bo'lgan? Uch oy zeriktirmay ijro etish uchun naqadar yuksak mahorat

egasi bo'lishi kerak o'sha baxshi? Bu savollarga beriladigan har bir javob o'zbek dostonchiligining beqiyos imkoniyatlarini qayta-qayta takrorlaydi, xolos. Baxshi doston aytar ekan, «Alpomish» dostonida Alpomish gapirganida, Alpomish mardligini, Barchin so'zlaganida go'zal qizning yuzini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Shuning uchun doston kechalari har bir tinglovchi uchun katta bayram bo'lgan. Bu kechalarda odamlar o'rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Yoshu kattalar, erkak-ayollarning butun xayoli dostondagi voqealar bilan band bo'lgan.

Dostonlar hajm jihatdan chegaralanmaydi. Doston ijrosi ham ba'zan soatlab, ba'zan kunlab davom etgan. Bunda doston mazmuni, baxshining mahorat darajasi muhim hisoblangan. O'zbekistonda xalq dostonlari Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpog'iston muxtor respublikasida ijro etiladi. Ijrochi baxshilar do'mbira, tor, dutor chertib, qo'biz tortib doston aytadilar. Ijro usuliga ko'ra o'zbeklarda Samarqand, Xorazm, Farg'ona (Namangan) dostonchilik an'analari mavjud bo'lib, Samarqandda ichki bo'g'iz ovozda, Xorazmda ochiq qo'shiq aytish yo'li bilan, Namanganda ochiq, ammo, musiqa asbobiga mos holda kuylanadi.

I BOB. O‘ZBEK XALQ DOSTONLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Xalq dostonlarida mifologiyaning o‘rni

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalarida O‘rta Osiyo o‘z ichiga quyidagi davlatlar hududlarini qamrab olar edi: Baqtriya, Xorazm, Sug‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Parkana (Farg‘ona). Bu yerlarda qabila va elatlardan massagetlar, xorazmiylar, so‘g‘dlar, parfiyanlar yashagan, chorvachilik, dehqonchilik, rivojlangan. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ovchilik, baliqchilik, dehqonchilik, chorvachilik paydo bo‘lgan. O‘rta Osiyoda Mitra-Quyosh xudosi, Ana-xita yer-suv ma‘budasi bo‘lgan. Bular eramizdan avvalgi 1 ming yillikda vujudga kelgan zardo‘shiylik diniga qo‘shilib ketadi. Ellin xudolari (Zevs, Afina, Poseydon, Appolon), budda dini (buddizm), Moniy, xristian, yahudiy dini, arablarda keyinchalik Islom asosiy din bo‘lib qolgan. Eronda - paxlaviy tili, ahmoniylar, Baqtriya shohlari davrida yunon, turk tillar gramatikasi keng tarqalgan. Urta Osiyoda insonlar juda qadim zamonlardan buyon yashab kelganlar. Urta Osiyoning ko‘hna va qadimiy madaniyati haqida manbalarda kam ma‘lumot saqlanib qolgan va kam o‘rganilgan.

O‘rta Osiyo haqidagi ilk ma‘lumotlar eramizdan ilgari IV asrga taalluqli bo‘lib, ular Ahmoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan Eron shohlarining (Doro - eramizgacha IV asr) Behistun tog‘laridagi toshlarga o‘yib yozdirgan yodgorliklari, teriga, sopollarga yozib qoldirgan ma‘muriy xatlarda uchraydi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixining ba‘zi tomonlari yunon, lotin, arman muarrixlari kitoblarida Xitoy sayyohlarining geografik, etnografik, xarakterdagi asarlarida aks etadi. Shu jumladan, yunon tarixchilaridan Gerodot (eramizgacha bo‘lgan IV asr), Kteziy va Kipofondan (eramizgacha bo‘lgan V-IV asrlar), Polien (eramizgacha bo‘lgan II asr), Strabon (eramizgacha bo‘lgan I asr) asarlarida ham O‘rta Osiyo xalqlari haqida ma‘lumotlar bor. «Avesto» va Firdavsiyning «Shohnoma»sida afsonaviy va mifologik xarakterdagi xabarlar bo‘lib, ulardan Urta Osiyo xalqlarining ma‘naviy hayotiga oid ba‘zi ma‘lumotlarni bilib olish mumkin, Aleksandr Makedonskiy harbiy yurishi O‘rta Osiyoda 3 y. (eramizgacha 327-324 yillar) davom etgan bo‘lib, bular yunon manbalarda, Arrion kursen, Plutarx asarlarida aks etgan.

Faqat eramizning VII-VIII asrlariga kelib, arablar istilosidan keyin bu o‘lkaning siyosiy, madaniy hayoti haqida nisbatan mukammal

ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bunda arxeologiya fani katta rol o'ynaydi. S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm, B.A.Shikirse va Ya.G'ulomov rahbarligidagi Afrosiyob A.I.Bernshtamning Yettisuvdagi, M.E.Massonning Termiz va Janubiy Turkiston, Farg'onadagi ekspedisiyalari bizning fanimizni benihoyat qimmatli materiallar bilan boyitdi. Topilgan yodgorliklar Eron, Hindiston, Yunon, Sibir, Sharqiy Evropa mamlakatlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma'lumotlardan bilamizki, eramizdan ilgarigi 4-ming yillik oxiri, 3-ming boshlarida Xorazmda «kalta minor» madaniyati deb atalgan madaniy hayot maydonga kelgan. Shu o'lkada, so'ngroq esa eramizdan ilgarigi 2-ming yillik va 1-ming yillik boshlarida «Tozayon bog'» madaniyati tug'ilgan. Bu madaniy hayot G'arbiy Sibir va hozirgi Qozog'iston territoriyalaridagi xalqlar bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Eramizning III-IV asrlarida yashagan Xorazm shohlarini bug'roq qal'adagi saroylarida haykaltaroshlik, rassomlik san'ati namunalari, VII-VIII asrlarga oid Varaxshadan (Buxoro yaqinida), Afrosiyob (Samarqandda), shuningdek, Panjkentdan topilgan devorlarga tushirilgan, ajoyib rasmlar ana shu aloqaning namunalaridir. Baqtriya madaniyati yodgorliklari sifatida hozir Britaniya muzeyida saqlanayotgan va «Amudaryo yombisi» (1877 yilda topilgan) qimmatbaho bezak buyumlari ichida Eron, O'rta Osiyo san'ati uslubiga xos bezaklar qatorida yunon zargarlari tomonidan ishlangan buyumlar bor bo'lib, ular ellinistik uslubdagi san'at asarlarining namunalari hisoblanadi. Qadimda O'rta Osiyo bilan Ellin dunyosining mustahkam aloqador bo'lganidan dalolat beradi.

O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari arxitektura, rassomlik, haykaltaroshlik sohasida yuksak madaniyat cho'qqilarini egallaganlar. Ayritom (Termiz yaqinida), Xalchayan (Termiz bilan Dushanbe orasida) haykallari san'at mo'jizalari hisoblanadi. Ana shu tarixiy yodgorliklar asosida turkiy xalqlar mifologiyasi, mif atamasi, miflarning ibtidoiy jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi ekanligi va mifologik tushunchalarning sharhi ekanligini yaxshi bilamiz.

Dunyoning va insonning paydo bo'lishi haqidagi eng qadimgi hikoyalar mif deb ataladi. Mif yunoncha "myfhos" - so'z, rivoyat, hikoyat so'zidan olingan bo'lib, xalq fantaziyasi mahsuli, dunyoning paydo bo'lishi, tabiat yoki jamiyat hodisalari, xudolar va pahlavonlar haqidagi to'qima afsonadir. Mifning ertakdan farqi shundaki, u hamisha hodisani izohlashni, tushuntirishni ko'zda tutadi. Mifning afsonadan farqi shundaki, uning zahirida biror tarixiy voqea yotmaydi. Mifologiya

miflarni o'rganuvchi fan soxasi bo'lib, u ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishining natijasi sifatida vujudga kelgan. Darhaqiqat, insonning tabiatga qarshi kurashdagi ojizligi, uni noma'lum ko'ringan Hodisalarga javob topishga, qandaydir tushuncha va tasavvurlar yaratishga majbur etgan, bo'ron, zilzila, suv toshqini, sel kabi g'ayri tabiiy tasvirlangan pahlavonlar haqidagi miflarni vujudga keltiradi. Mazkur miflar, avvalo, ezgulik yaratuvchi hisoblangan, kishilarga ruhiy kuch, tetiklik va osoyishtalik baxsh etgan, nihoyat, insoniyatni g'alabaga chorlagan. Kishilar yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlikni yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo'yib, baxt o'lkasi va baxtsizlik o'lkasi degan miflarni yaratganlar. Go'yo tabiatda ulug'va foydali kuchlar - quyosh va suv abadiy bo'lgan o'lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar - zulmat va kulfat abadiy bo'lgan o'lka bor emish. Ko'pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki o'lkada bor emish, ko'pchilik mifologik obrazlar mana shu ikki o'lka va ular o'rtasidagi kurash fonida gavdalanadi.

«Avesto»da ikki yaratuvchi kuch - yaxshilik va yomonlik Axuramazda va Ahriman qiyofasida namoyon bo'ladi.

Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, obodonchilik va ezgu kuchlarning Xudosidir. Unga qarashli narsalar inson turmushini yaxshilashga va xizmat qilishga qaratilgan. U o'z yordamchilari orqali olov, chorva, metall, yer-suv va o'simliklar dunyosini boshqaradi.

Angra Man'yu - Ahriman barcha yovuzlik va yomonlikni boshqaradi. U Axuramazdaga qarshi chiqadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob-uqubat, mashaqqat, kulfat keltiradi. Ahriman zo'r kuch va qudratga ega bo'lsa-da, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doim mag'lubiyatga uchraydi. «Avesto»da yorug'lik manbai quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov quyoshning bir parchasi bo'lganligi uchun ham inson olovni muqaddas hisoblab, otashkadalarda saqlaydi, bunday otashkada qoldiqlari Xorazmda - Jonbos qal'ada topilgan. Demak, o'zbeklar orasida quyoshga - olovga e'tiqod qo'yib, unga topinish juda qadimdan mavjud.

Mitra - Quyosh va yorug'lik xudosi, Noxit - obodonlik va farovonlik xudosi, Xumo - baxt, tole va davlat xudosi, Anaxita va Hubbi (Farg'onada er Hubbi) - suv xudosi, Mirrix - urush va g'alaba xudosi, ezgulik esa - Kayumars, Yima (Jamshid), Gershasp kabi mifologik obrazlarda mujassamlashgan. Yomonlik kuchlari ajdar, dev, jin, yalmog'iz kabi mifologik obrazlar orqali tasvirlangan. Demak, ilk bor

yuzaga kelgan badiiy obrazlar ibtidoiy inson orzularining naqadar qadimiy tarixiy asoslarga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday obrazlarning har biri «Avesto»ga kirmasdan oldin madadkor ruh yoki yovuz kuch sifatida xalq tasavvurida mavjud bo'lgan. Qadimda miflar juda ko'p bo'lgan, ammo yozuv bo'lmaganligi tufayli, ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Masalan, «Ardivisura Anaxita haqida mif», «Kayumars», «Jamshid haqidagi mif»lar yetib kelgan. Dinda ham mif muhim element sifatida saqlanadi. Jahon dinlari o'zining tarkib topishida ba'zi qadimiy miflarning syujetidan foydalangan va yangi rivoyatlar to'qilgan.

Mifologiya va folklor munosabatlari doimiy mavzulardandir. Uning qanchalik ahamiyatli ekanligini folklorshunoslik tarixida mifologik maktab mavjud bo'lganidan ham bilsa bo'ladi.

Asotirlarni o'rganish

Asotirlar (miflar) ibtidoiy insonlarning koinot, tabiat hodisalarining mohiyati, paydo bo'lish sabablarini o'zlariga izohlash maqsadida yaratgan og'zaki hikoyalaridan iborat. Asotirlar yaxshilik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik o'rtasidagi abadiy kurash turli narsalar, hodisalar o'rtasidagi kurashlar misolida ifodalanadi. Asotirlarning afsonalardan asosiy farqi badiiy-tasviriy vositalarning kamligi, narsa va hodisalarning vujudga kelishi yoki yo'q bo'lishini oddiy va qisqa izohlashi, ko'pincha, ma'budlar, yer yuzida dastlabki odamlar obrazlarining ishtirok etishini bayon qilishlaridir.

Asotirlar yer yuzidagi barcha xalqlarda mavjud. Chunki barcha xalqlar o'z taraqqiyotining ilk bosqichlarida asotirlar orqali fikrlash, dunyoga asotirlar nigohi bilan qarash bosqichini bosib o'tganlar. Asotirlar osmon jismlari oy va Quyosh, yulduzlar haqida, turli urug, qabila-xalqlarning paydo bo'lishi haqida, biror narsa yoki hodisaning paydo bo'lishi va yo'qolib ketishi haqida ko'plab yaratilgan.

Misol uchun ikkita asotirga to'xtalib o'tsak. «Aziz Momo» nomli asotirda qish faslining uch oyi - to'qson kuni haqida hikoya qilinadi. Aziz Momo Navro'z arafasida olti kun qattiq sovuq kunlarini yuborib, odamlarni sinovdan o'tkazar ekan. Bu asotirda ibtidoiy odamlarning tabiat hodisalari haqidagi xayoliy tushunchalari aks etgan.

«Oy bilan kun» asotirida esa oy, quyosh va yulduzlar holatini insonlar hayotiga o'xshatib tasvirlashga harakat qilinadi. Osmonda yulduzlarning uchishi esa oyning o'z bolalarini yoniga chaqirib olishi deb izohlanadi. Tabiat hodisalarining bu taxlitda sodda talqini qadimgi

odamlarning tushuncha, tasavvur doirasini ko'rsatadi. Ana shunday asotirlardan biri «odami Od» hikoyasidir.

Uning qisqacha mazmuni shunday: «o'tgan zamonda Nuh payg'ambar bo'yi bulutga yetadigan bir duradgor ustani chaqirib, kema yasab berishni so'rabdi. Bu odamning nomi odami Od ekan. U nihoyatda baland bo'yli, kuchli bo'lib, daryo va dengizda baliqni qo'lida tutib, quyosh issig'iga pishirib, yeb keta berar ekan. Odami Od Nuh payg'ambarni yelkasiga mindirib toqqa olib chiqibdi. Qayerda baland daraxt bo'lsa, kema uchun kesmoqchi bo'libdi. Tog'da to'rtta katta chinor bor ekan. U chinorlarni tomir-pomiri bilan sug'urib olib, o'z elkasiga ortib, ustiga Nuh payg'ambarni o'tqazib, dengiz bo'yiga ravona bo'libdi. Odami Odning qorni hech ovqatga to'ymas ekan. Nonushtaga bir hovuz suvga non to'g'rab yer ekan. Odami Od kemani bitiribdi. Hamma odamlarni kemaga solib, dengizga tushib, o'zi kemani torta ketibdi». Bu hikoyada odami Od dunyodagi eng birinchi odam sifatida talqin etilgan. «Od» so'zi fors-tojik tilida ulkan odam ma'nosini bildiradi.

Shuningdek, «Er Hubbi» asotiri ham yuqoridagi hikoyatga o'xshaydi. U Xorazm va Farg'ona viloyatlarida keng tarqalgan. Hikoya qilinishicha: «Faridun va hatto Jamshid podsholik qilmasdan ilgari daryoda bir Hubbi degan yigit yashagan, bu yigit daryoning hokimi bo'lgan. Hubbi baliq bilan ovqatlangan, u bir qo'li bilan baliq tutib olarkan-da, uni quyoshga uzatar ekan, baliq shu ondayoq qovurilar ekan. U yetti yuz yil davomida Amudaryoda yashagan. Bu vaqt ichida hech qanday jin daryoga yaqinlasha olmagan, hatto chivinlar ham bo'lmagan. Jamshid taxtta o'tirishi bilan Hubbi dom-daraksiz g'oyib bo'lgan. Ming yil davomida Hubbining onasi aza tutgan va u bilan birga daryo, sahro, tog'va qoyalar yig'lagan; odamlar, qushlar va hayvonlar yig'lagan; osmonda farishtalar, yer ostida devlar yig'lagan. Hubbi tirik, u qiyomattacha yashaydi. Hubbi najot berur. Mana, qanday kuch daryoga hokimlik qiladi».

Yuqoridagi har ikki asotirda odami Od va Er Hubbi qabila va urug' ruhi, kuch-qudrati, orzu-umidi, intilishlari ifodalangan. Bu kabi asotirlar o'zbek xalq og'zaki ijodida ko'plab uchraydi. Ular yoshlarda jonli qiziqish uyg'otadi.

Mifologik tushunchalar haqida

Mifni turkiy xalqlar asotir deb ataydi. Miflarning turlari ko'p. Uchta tushuncha bor yoki mif tushunchasi uchta sifatlashga ega:

1. Totemizm va totemistik miqlar - ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan dinning alohida shakli bo'lib, odamning ko'pincha bir hayvon, o'simlik, jonsiz narsa yoki tabiat hodisalari bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch-e'tiqodni anglatadi. Totem muqaddas hayvonga sig'inish. Dunyodagi turli xalqlar qadim zamonlardan buyon turli hayvon, parrandalarni o'z totemi deb bilganlar. Hindistonda sigir, O'rta Osiyoda qaldirg'och, qo'y, ot, it, bo'ri, ayiq, yo'lbars, burgut, tuya, baliq, g'oz, o'rdak muqaddas hayvon hisoblanadi. Xorazmda xo'roz, ruslarda ayiq, chexlarda - yo'lbars, Avstraliyada - qarg'a, kenguru, shvedlarda - ayiq ham shu jumladandir.

O'zbek folklorida bo'ri totemiga oid afsonalar, ertaklar mavjud. «Cho'loq bo'ri», «bo'ri qiz», «bo'ri». Bo'rini balo-ofatlardan saqlovchi, himoya qiluvchi, ezgulik yaratuvchi, qabila a'zolarining tug'ishgan ajdodlari deb bilganlar. Demak, totem u yoki bu urug'ning e'tiqod qo'ygan himoyachisidir. Turk afsonalarida bo'ri turk urug'ining ajdodi sifatida namoyon bo'ladi. Afsonada qadimgi turklar ona bo'ridan va dushman tomonidan kirilgan urug ichida tirik qolgan 10 yoshli boladan tarqalgan. Bolani ona bo'ri qo'l-oyoqlari qirqilgan holda topib oladi, uni go'sht berib boqadi. Keyin qoyalarning biriga kirib ketgan va u yerda 10 ta bola tuqqan.

Ularning har biri turk urug'larining asoschilari bo'lgan. Hatto Ashina ismli turk boshliq urug'larning birida bo'ri kallasi tasvirlangan bayroq bo'lgan. Chunki Ashina mo'g'il tilida bo'ri degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ibtidoiy kishilar, turkiy ajdodlarimiz og'ir turmushini yaxshilashga intilganlarida bo'riga sig'inganlar. Bunda totemning vazifasi yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, chorvani ehtiyojlash, ekinlarni yovuz kuchlar ta'siridan saqlashdan iborat bo'lgan.

Qadimgi Baqtriyadagi Zariasp, Xorazmdagi Xazorasp singari geografik joy nomlari ot kultiga aloqador bo'lgan urug'nomlari bilan bog'lanadi. O'zbek xalq dostonlarida G'iro't, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko'k kabi epik ot obrazlarining g'oyat katta o'rin tutishi shundan. Faqat hayvonlarga emas, daraxtlar ham totem hisoblanadi: chinor, behi, tut daraxtlari. Shuningdek, o'zbek urug'larining otabobolari avval quyosh, suv, olovga topinganlar keyinchalik hayvonlarga o'tganlar. Demak, totemistik qarashlar qadimiy tasavvurlar tizimining asosini tashkil etar ekan.

2. Animizm yoki animistik miqlar. Har bir narsani muqaddas ruh yoki insonning ruhi bilan bog'lash animistik qarash bo'ladi. Ibtidoiy

odam tabiat haqidagi tasavvurlarida o'zini tabiat kuchlari va hodisalari bilan ayni bir narsa deb hisoblaydi, jonsiz narsalarga jonli sifatida qaraydi. Bu xildagi ibtidoiy tushunchalar kompleksi animizm nomini olgan. Animizm asosida jon va ruhlarning borligiga ishonch yotadi. Ibtidoiy tushunchalarga ko'ra, jon va ruhlar jonli va jonsiz tabiatda yashaydi va ularni zoomorf (hayvoniy shakl) yoki antropomorf (insoniy) shaklda tasavvur qilishgan. Uning yorqin namunalari ertaklarning qadimiy motivlarida o'z ifodasini topgan. «Oq bilakxon» ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, «Ochil, ochil, qamishlar»da qizning qamish orasiga kirib ketishi, «Yoriltosh»da toshning yorilish mo'jizasi, qizni bag'riga olib yana yopilishi, «Yalmog'iz kampir» ertagida odamlarning toshga aylanib yotishi, «Qilich botir»da qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar bevosita animistik tushunchalar qoldig'idir.

"Yoril, yoril, yoril, tosh", "ochil, ochil qamishlar", "sangil sapol tosh, sen menga yo'ldosh", "sim-sim, och eshigingni" kabi iltijo qilib yolvorishlar o'sha narsada jon bor degan tushunchaning obrazli ifodasidir. Yaqin kunlarga to'y va boshqa marosimlarda gulxan yoqish, uning atrofida aylanish; quyosh, oy tutilganda qozon, chelak, jom kabilarni chalish hollari mavjud ediki, bular o'sha yo'qolib borayotgan qadimiy tasavvurlarning izlaridir. Tush ko'rishni an'anaviy ta'bir qilish ham animistik tasavvurlar natijasidir.

Bir kishi 1970-71 yillarda Olmaotaning yaqinida yer kovlayotganda bir narsaga ko'zi tushadi. Borib qarasa, tilloga o'xshaydi, militsiya akademiyasiga borib, xabar beradi. Joy o'rab olinadi, kavlashg'anda boshqa narsa chiqib qoladi. Dubulg'a kiygan odam, dubulg'aning 4 tomonida o'q, atrofida tog'lar, tog'ning tepasida daraxt, daraxt tepasida qush, arxar (tog'qo'yi), sovut guli, yo'lbars yonida qilich tasviri, etik bo'yi 169 sm tilla qobiq, ichida 18 yashar yigitning jasad, o'lgandan keyin ustiga qo'yilgan. Aniqlanishicha, uning yaratilishi eramizdan avvalgi II-IV asrga to'g'ri keladi.

O'zbek xalqida bo'ri muqaddas hayvon hisoblanadi. Shuning uchun XX asrgacha beklikning bayroqlarida bo'rining rasmi bo'lgan. Xususan, 1913 yildagi Toshkent bayrog'ida bo'ri kallasinining rasmi bor. Hozirgi Checheniston avtonom Respublikasi bayrog'ida bo'ri shakli bor. Bo'ri Qashqadaryo viloyatida kult sifatida tan olingan. Biron oilada farzand tug'lsa, turmasa otasi toqqa bo'ri oviga chiqadi, bo'rining lab terisini ochib yangi bolani, bo'ri og'zidan o'tkazadi. Tishini olib beshigiga o'yinchoq qilishgan, terisi beshikning tagiga qo'yilgan. Shu bilan chaqaloq bo'ri homiyliligiga o'tgan hisoblangan.

3. Fetishizm - jonsiz narsalarni g'ayri tabiiy xususiyatga ega deb ishonib unga sig'inishdir. Fetish muqaddas narsa va predmetlar bilan bog'liqdir. O'choq muqaddas hisoblangan, shuning uchun ham toza turadi. Qilich, pichoq, tig'ni tekin olish mumkin emas. Do'ppini yo'qotish mumkin emas. Demak, fetishga quyidagilar kiradi: yoy, keskir pichoq, qilich, o'q, pakki va hakoza. O't bilan bog'liqqa: tandir, o'choq, supra, do'ppi, non, tuz, havo, quyosh, oy, tog' va hakoza. Ranglarga: oq, qora, qizil, havo rang, sariq, malla, qora-yer osti xudosi. Qizil - yoshlik, ko'k - osmon.

Demak, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik va totemistik qarashlarni vujudga keltiradi va ular ilk bor to'qilgan ertak va afsonalarning syujetlarini tashkil etadi.

Musulmon xalqlari mifologiyasi haqida

Musulmon mifologiyasi asoslarini qadim-qadim zamonlardagi ildizlardan axtarmoq lozim. Buning uchun albatta qadimgi Arab mifologiyasi va Qur'oni karimni bilish zarur. Qur'oni karimning afsona va rivoyatlarida ko'pgina mifologiya elementlari saqlanib qolgan. Masalan, Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida olamning yaratilishi, Odam alayhissalom, Nuh alayhissalom haqidagi miflar saqlanib qolgan.

Alloh - borliq va mavjudot olamning yaratuvchisidir. Qur'onda ham nihoyatda ko'p timsollar borki, ularni o'rganish jarayonida juda keng mifologiya haqida o'rganib olish mumkin. Jumladan, Odam ato va Momo havo, Ibrohim, Muhammad, Hazrati Ali, Dovud, Sulaymon, Iso Masih, farishta, munkarnakir, shayton va boshqalarning mifologik asoslari bilib olinadi.

Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma», Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi asrlardan qolgan yodgorliklar», Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy», va boshqa asarlarda ushbu mavzu bo'yicha ko'pgina ma'lumotlar olish mumkin. Bulardan tashqari, yana boshqa manbalarda, jumladan, buyuk islandiyalik olim turk olamning yaralishi haqida yozadi. Unda er yuzining markazi Osiyo ekanligi aytiladi. Skandinaviya, Daniya, Islandiya, Norvegiyalarga ulardan ko'p narsalar meros borib qolgan, deydi. Asotirlar ulkan meros, ular yozuvsiz bitiklarda o'z aksini topgan. Asotirlarni italyan olimlari Uyg'onish davridan boshlab, to XX asrgacha o'rganganlar. Miflar ajdodlar ruhining qabristoni bo'lib hisoblanadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasi ham ancha mukammal o'rganilgan. Qadim ajdodlarimiz dunyoni mifologik tasavvur, tahlil etganlar va u orqali san'at namunalari yaratganlar. O'tovda yashaganlar. O'tov ustida tuynuk bo'lgan. Samoviy qarashlar bo'lgan. Hayot daraxti bo'lgan. Yulduz uchsa va daraxt bargi tushsa, odam hayotdan ko'z yumdi, degan qarashlar hozir ham bor. Eng yuqorida Alloh turadi. Yer yuzida insonlar yashaydi. Yer osti esa zulmat, qorong'ulik va o'liklar dunyosi hisoblanadi.

Qadimiy miflar, Islom dini va mahalliy urf-odatlar uyg'unlashuvi asosida o'zbek folklori, adabiyoti va ilmining shoh asarlari yaratildi. Turli xalqlarning folklori merosini tahlil qilish orkali ular zamiridagi mifologiyaning mushtarakligini namoyon etish mumkin.

Qur'onning jahon va alalxusus, o'zbek adabiyotiga o'tkazgan ta'siri tarixiy-adabiy an'alarini o'rganish lozim. Qur'on mohiyatan umuminsoniy qadr-qimmatlar bilan yo'g'rilgan bo'lib, o'zbek adabiyotining jahon adabiyotida matnida tutgan o'rnini to'liqroq aniqlashga imkon beradi.

O'z o'tmishini qadrlamagan kimsa, hozirgi kunda johillashib, kelajakdan mahrum bo'ladi. So'nggi yuz yillik tariximiz bunga misol bo'la oladi. Insoniyat taraqqiyoti o'z qonunlariga binoan sodir bo'ladi va ular ichra eng mo'tabari va muhimi e'tiqoddir.

Xulosa qilib aytganda, Qur'oni Karim mifologiyasining o'zbek folkloriga, o'zbek adabiyotiga ta'siri kattadir.

«Go'ro'g'li turkumi» dostonlarini yaratishda mifologiyaning o'rni

Turkiya, O'rta Osiyo, yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining xalqlari shunday bir og'zaki ijod durdonalarini yaratdilar, bular bashariyat badiiyat xazinasiga noyob asarlar tortiq eta oldi. Ming yildan ortiq tarixga ega bo'lgan bu javohirotlar hozirgi kunda o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti deb ataladi. Bunda o'zbek xalqining yaratgan «Go'rug'li» turkumiga kirgan dostonlarning alohida, muhim o'rin tutishini guvohi bo'lamiz. Mana shu turkumga kirgan dostonlarining yaratilishida mifologiya, ya'ni asotiriy o'rinlar asarning g'oyaviy-estetik funksiyasini rang-barang jilolanishini ta'minlaydi. Turk dostonlaridan «Ko'ro'g'li» va o'zbek dostonlaridan «Go'ro'g'li» asarlarini qisqaroq tarzda qiyosiy analiz bo'yicha fikr yuritmoqchimiz.

Ma'lumki, o'zbek xalq eposi ko'p turli epos hisoblanadi. Har bir turning mifologiyaga bo'lgan munosabati ham o'ziga hos, takrorlanmas

tipologik xususiyatga ega. Shuningdek epos va mifologiyaning o'zaro munosabati bevosita tarixiy hamda struktural tipologik yondoshish orqali hal etiladigan masala hisoblanadi. Mifologiya va o'zbek xalq eposining o'zaro munosabati masalasida ancha ishlar qilingan bo'lsa-da, bizningcha bu masalaning murakkab jihatlarini to'lig'icha yoritish uchun mulohazalar yetarli emas. Chunki eposning biror namunasida uchraydigan ajdar yoki balo, semurg' yoki jodugar kampir kabi personajlar o'z-o'zidan mifik obrazlar ekanligi ma'lum. Ularni mifologiyaga aloqador ekanligini isbotlashga urinish behuda. Bu masalada epos mifga yoki mif eposga qanday ta'sir ko'rsatadi, bizningcha, shu jihatlarni yoritilishi lozim. Epos xalqning qahramonona o'tmishi sifatida qabul qilinganligi uchun uning tarkibidagi mif ham bevosita ana shu narsani ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Qahramonlik eposi tarixan qadimiyligi, strukturasining murakkab va salmoqliligi jihatidan xalq eposining eng qadimiy tipi hisoblanadi. Epos uchun muhim bo'lgan xususiyatlardan yana biri shundaki, unda ulug'langan va kuylangan umuminsoniy xislatlar beqiyosligidan qat'iy nazar, u biror davrni aks ettirishi jihatidan yo o'tmishni, yo o'zi yaratilgan davrni ulug'laydi, birorta ham xalqning eposi yo'qki, unda utopik tarzda bo'lsa ham kelajak davr va unga xos targ'ibotlar tasvirlangan bo'lsin. Agar epos kelajakni aks ettiradigan bo'lsa, u holda uning xalq ongida konkret qahramonona o'tmishi sifatida qabul qilinishi xiralashib qolgan bo'lur edi va epos ham ertak kabi xayolat olamiga chulg'anib, shundayicha qabul qilinardi. Holbuki, qahramonlik eposi hammavaqt xalqning konkret qahramonona o'tmishi sifatida ulug'lanib kuylanib kelinardi.

Ilmiy adabiyotda xalq eposlarining tarixiy ildizi, shakllanish bosqichlari bir muncha to'la ravishda tadqiq etilib, eposning mifologiya bilan bog'lanishi haqida ma'lum xulosalar mavjud. Mif va epos o'rtasidagi munosabatlarni ochishda o'zbek va O'rta Osiyo folklorshunoslari, ayrim rus olimlari «Go'ro'g'li» turkumiga ko'p murojaat etganlar. Masalan, I.S.Braginskiy «Avesto» miflari va ayrim obrazlarning tojik «Go'rguli» (Go'ro'g'li) turkumidagi ko'rinishlari (Aqldor obrazi kabi)ni tahlil etadi. Ayniqsa, olimning «Go'ro'g'li»da animistik ajdodlar obrazi haqidagi mulohazalari diqqatga sazovardir. «Go'ro'g'li» dostonida bir necha yuz yillardan beri og'izdan-og'izga o'tib, xalq ichida keng tarqalgan dostonlardir. Bu dostonlar O'zbekistondagina emas, turk, qozoq, qoraqolpoq, turkman, arman, tatar, ozarbayjon xalqlari va boshqa joylarda ham xalq o'rtasida sevilib

aytilib kelgan, hozir ham zo'r qiziqish bilan tinglanib kelinayotgan mushtarak dostonlardir.

Turk dostonlarida Ko'ro'g'lining tug'ilishi mif bilan bog'lanmagan. Uning otasi Yusuf beyga yoqmaydigan toy keltirgani uchun g'azablangan bek tarafidan ko'ziga surma tortib ko'r qilinadi (ba'zi variantlarida ko'zini o'yib olinadi). Uning o'g'li Ali ulg'ayib «Ko'rning o'g'li» sifatida taniladi. Turk dostonlari Yusufning ko'r bo'lishi va Ko'ro'g'lining keksayib o'lishi bilan tugaydi.

O'zbek «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarining yaratilishida mifologiya katta o'rin tutadi. Chunki bu turkumlikka kirgan dostonlarda ma'lum darajada barcha ibtidoiy tasavvurlar sistemalari totemizm, fetishizm, animizm va shomonizm-magizmga asoslanga mifologiya mavjud. Agar dostonlar misolida aytadigan bo'lsak. Go'ro'g'lining tug'ilishi dostonida ajdodlar xomiyligi va manistik mifologiya elementlari Hizr, Soqibulbul, «aziz»lar, ya'ni chiltonlar obrazlarida; «Yunus pari» dostonida shomonizm-magizmga asoslangan - maston, folbinlar obrazida o'z izini qoldirgan. «Ravshan» dostoni syujetida fetishistik tasavvurga asoslangan mifologiya o'ziga xos «tugun» vazifasini bajaradi. Jumladan, Ravshan Yunus pari bergan sehrli uzuk «fetish»da Zulxumorni ko'rib sevib qoladi. Uzukni pari berishi ham mifologiya bilan bog'liqdir. Fetishistik mifologiya ta'sirida qahramonning sarguzashti boshlanib, qiziqarli Doston yuzaga kelgan. Shuningdek, turkumlikdagi dostonlarda animistik qarash va mifologiya asosan dev, balo, pari, jodugar kabi yovuz ruhlar obrazida ifodalanadi. Agar o'zbek «Go'ro'g'li» turkumiga kirgan dostonlarni diqqat bilan ko'zdan kechirilsa (ular 56 ta nom bilan, variantlari 100dan ortiq), dastlabki dostonlarida keyingilariga nisbatan ko'proq mifologik elementlar ko'p o'rin olganini guvohi bo'lamiz. O'zbek «Go'ro'g'li» turkumiga kirgan dostonlarning yaratilishiga asos bo'lgan «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostonining syujet rivojida mifologiya hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

O'z xalqining saodati, tinchligi uchun jonini ham ayamay jonbozlik ko'rsatgan, elining sevimli farzandi Go'ro'g'li, yoshligi-bolaligidan to qariyib bir yuz yigirma (ayrim variantlarda 125) yoshga kirib o'lgunicha qo'lidan qilichini tashlamagan, vatani, xalqini dushman hujumidan qo'riqlashda charchamaga, dushmanini yengmay qo'ymagan bir qaxramondir. Mana shunday qaxramon go'rda tug'iladi. Dostondagi mifologik motiv Go'ro'g'lining go'rda o'lik onadan tug'ilishi bilan bog'liq bo'lib, bu motiv butun turkum uchun xarakterlidir. Demak,

qahramon bir umr yengilmaydi. Xalq qahramonining g'ayri tabiiy to'g'ilishi keng tarqalgan motiv bo'lib, nardlar eposida ham bor. Animizmga asoslangan bu motiv kelgusida Go'ro'g'lining mifologik kuchlariga qarshi janga kirishi va ularni yengishi haqidagi ishonchga zamin xozirlaydi, Go'ro'g'lining go'rda tirilishi asosiy va qadimiy motiv bo'lib, uning dunyoga kelishi olamga yorug'lik eltadi (ya'ni, mifologiyada zulmat va nur kurashi tipik konflikt, bu yerda ham shu holni ko'ramiz). Bu dostonida shunday tasvirlanadi.

*«... Bachaning yuzini oydinligiga
Barx urib, go'r yop-yorug'bo'ladi.
Bibi Hilol bir nozanin ul tug'di,
Uch kecha-ukunduz oradan o'tdi...»*

Hiloloyga jon kelmadi, lekin bolaga sut kelib yotdi, shu orada o'rtadan uch yil o'tdi». Bu epizoddagi onani «jon» tark etishi, lekin sut to'xtamasligi - bu animizm tushunchasiz reallasha olmas edi, bu keyinchalik Hizr so'zida ham ifodalanadi. Kunlar o'tib, sut to'xtaydi. Go'ro'g'li go'rga tushib turgan ozgina yorug'likka qarab intiladi va ilk bor qabrdan tashqariga chiqadi va yegulik izlaydi. Shunda bir baytal yordamga keladi: «...bir baytalning bolasi o'lib, bolasining o'lganiga ichi kuyib, kishnab yurar edi. Go'ro'g'lining oldiga kelib qoldi. Baytalning ko'zi Go'ro'g'liga tushib, mehri ko'kragiga joy olib, unga suykanib emiza berdi... Baytal har kuni Go'ro'g'lini uch vaqt emizib keta berdi». Bu motiv butun jahon folklorida keng tarqalgan bo'lib, inson bolasini yovvoyi hayvon yo qush (sher, bo'ri yoki Semurg' kabilar) boqib tarbiyalashi haqidagi mifologik syujetga hamohangdir. Ammo mazkur dostonidagi totemistik motiv o'ziga xos xususiyatga ham ega. Undagi totem O'rta Osiyo chorvador qabilalarining eng mashhur totemiga asoslangan. Shunisi xarakterliki, parchadagi baytal totemi ilk ma'nosida - insonga ajdodlarning boshi sifatida talqin etiladi. Go'ro'g'li bilan baytal orasida munosabatni aniqlash uchun kelgan yirtqichlar Go'ro'g'lini qabrdan chiqqan arvoh hisoblab, qo'rqib qochadilar. Ammo inson - inson, cho'ponlar orasidagi Rustam (qahramon otasining eng yaqini) bo'lgusi xalq qahramonini o'z tarbiyasiga olishi natijasida u mehnat ahli bilan birga bulgani tufayligina haqiqiy chin inson va dong'i ketgan xalq qahramoni bo'lib yetishadi. Albatta, keyinchalik voqeaga din bilan bog'liq motivlar kiritiladi, bir sher bolaga tashlanganida, Hazrati Hizr yordamga kelib xayvonni o'ldiradi. Demak, asarda Go'ro'g'lining tug'ilishi va ulg'ayishi uch mifologik tushuncha (aministik), o'lik onaga «jon kirmasa ham, «sut» kelishi; totimestik

(baytal emizishi) va diniy mifologiya (Hizr - xomiy kuch obrazi) asosida beriladi. Dostonda Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va el-yurt manfaati yo‘lida qahramonlik ko‘rsatishda chiltonlar hamda Hizr katta o‘rin egallagan. Chunki ular xalq qahramonining homiysi, rahnamosi bo‘lgan. Murg‘ak qaxramonni jismoniy jihatdan voyaga etishda, unga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatib, tarbiyalab, xalq manfaati yo‘lida xizmat qilishga o‘rgatadi. Qahramonning homiysi obrazini barcha xalqlarda nardlar eposida ham,fin runilarida ham ko‘rish mumkin. O‘rta Osiyo xalqlari ogzaki eposida Hizr obrazi keng ishlangan. Hizr obrazi islom diniga qadarli ham O‘rta Osiyo xalqlari og‘zaki badiiy ijodida keng ishlangan bo‘lgani uchun ham diniy afsonalarga («Iskandar afsonasi»da ham bor) asos qilib olingan. Xalqda shunaqa naql bor: har bir insonga tushida yoki o‘ngida Hizr uch marta uchrab homiylik qiladi. O‘zbek xalqining tasavvurida uning ko‘rinishi ham o‘zining mujassamini topgan, jumladan, «bosh barmog‘ining suyagi yo‘q», o‘ng qo‘li tizzadan pastgacha turadi», har xil ko‘rinishda bo‘lib «tila-tilagingni» deydi, ko‘proq oppoq soqolli chol qiyofasida tasvirlanadi, Nuroniy ko‘rinadi.

Mantiqiy fikr yuritib qaralganda, g‘ayri tabiiy bir sharoitda tug‘ilgan go‘dakni kimdir o‘limdan saqlab qolishi kerak. Go‘ro‘g‘li go‘rda tug‘ilgan ekan, Bibi Hilolning jonsiz murdasi uni tarbiyalay olmas edi. Bu o‘rinda endi uni yo‘rgaklab olish uchun Hazrati Hizr va chiltonlar, ya‘ni azizu avliyolar hozir bo‘ladilar. Bosh qahramonning dunyoga kelishini izohlovchi mazkur motiv eposning o‘ziga xos mifologik zamini hisoblanadi. Binobarin, mazkur dostonda Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va g‘ayri tabiatli ekanligini izohlash asosiy motiv bo‘lib bosh rejada turardi. Turk va o‘zbek dostonlarida tulpor ot yetakchi o‘rinni egallaydi. Ot qahramonning hamrohi, har doim birga bo‘ladi. Ayrim vaqtlarda egasi bilan so‘zlashadi. Dushmanlardan qutqarib qoladi. Ana shuning uchun ham bunday otlarni «nazarkarda tulporlar» deb ataladi.

Turk dostonida Minko‘ldan kechasi chiqib, oy nurida otlar bilan o‘ynashib, tongga yaqin qo‘lga tushib ketuvchi suv osti ayg‘iridan tug‘ilgan. O‘zbeklarning «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va yoshligi» dostonida ham ikkinchi yirik mifologik o‘rin - uning oti G‘irot (G‘irko‘k bilan bog‘liqdir). Bu ot Rayhon arabning otidan paydo bo‘lgan. Asarda tasvirlanishicha G‘irotni Hizr yashirinch a olib ketadi. Epik qahramon toyini izlab ketayotib, afsar tog‘ining ortidagi bir boqqa duch kelib, ularni yaxshi ko‘rib qoladi. Keyin yana yo‘l bosib Hizr va 40 ta chiltonga ro‘baro‘bo‘lib, Hizr bilan kuch sinashadi va yengiladi. Otini

sotib oladi. Mana shu sarguzasht qadimiy mifologiya va diniy tushunchalar bilan yaqin aloqada beriladi, tasvirlanadi. Ana shu o'rinda ta'kidlash lozimki, asarda turkumning asosiy mazmuni va yo'nalishini belgilovchi bir parcha borki bu ayniqsa, mifologik tomondan xarakterlidir. Bu motiv - butun turkumning mazmunini, Xususan, Go'ro'g'lining bir umrlik taqdirini qisqacha ifodalab beradi. Asarda shomonizm aks etadi, ya'ni Hizr qo'yidagicha duo qiladi:

*«Yuz yigirma beshga kirsin G'irko'king,
Ikkovginang birday qari, Go'ro'g'li!
Soqibulbul Sayis bulsin Go'ro'g'li!...
Majlisda chalsin Soqibulbul sozini.
Darrov bosgin tarafing izini!
Olib qochgin Zaydinning o'zini
O'ynatgin G'irko'kday asbitozini.
Dushmandan uchingni olgin Go'ro'g'li...
Avval boshlab Shirvon eliga borib,
Shu Rayhon arabdan olgin lotingni!...
Senga beraylik Yunus, misqol parini...
Chanbil, Chortoq eling bo'lsin Go'ro'g'li!...
Avaz, Hasan lg'ling bulsin, Go'ro'g'li!...
Qirq yigitni olgin qirqta o'zbekdan
Esa oting qolsin, zoting qolmasin,
Dunyodan zurriyodsiz o'tgin Go'ro'g'li!...»*

Bobosi Go'ro'g'libekka pandu-nasihat berib aytdi:

- Ey Go'ro'g'libek, bolam, sen yoshlik qilding. Bundan borib, Rayhonning qizini olib ketarsan, yovmidning eliga yetarsan. Har nimaiki ixtiyorini o'zingga berdik... Rayhon Arab o'n bir marta shahringa tegadi. Har nima bo'lsa, Go'ro'g'libekka, farzandim, ishingga extiyot bo'!»

Ushbu dostondagi bu motiv manistik mifologiya bilan bog'liq bo'lib, butun turkum uchun mifologiya eleminlariga negiz vazifasini bajaradi va bu butun turkum mazmunini ifodalaydi. Hizr boshqargan davra, undagi aziz-avliyolar, ya'ni mifologik qahramonlar Doston syujetidan tasodifiy joy olmagan bo'lib, asosiy voqea, obrazlar, ayrim dostonlar syujeti va bo'lajak kurashlardan darak beradi. Shuningdek, Go'ro'g'lining homiy kuchlari ekanliklarini uqdirib, unga nasihatlar qiladi va uni yaxshilikka chorlayd hamda yurtini bosqinchilardan saqlashga da'vat etadi. Botirlik bahodirlik va qaxramonlikni ulug'laydi. Hizrning Nuroniy qiyofada berilishi unda, g'ayri tabiiy hislatlar tasviriga

nisbatan insoniy belgilar tasviri kengroq o'rin olishi ham monizm ta'siridir. Yana bir epizodni olaylik.

Turk xalq dostonida Ko'ro'g'li ikkita kabutarni o'ldirib patlaridan tozalaydi, buloqdan chiqayotgan suvga ularni chayqab oladi. Shunda birdan kabutarlar tirilib uchib ketadi. Bu voqeani kelib otasiga aytib beradi. Otasi Yusuf suvning obi hayot suvi ekanligini aytadi va «Sen shu suvdan ich», deydi. Obi hayot suvida Ko'ro'g'li ichadi, otasi esa ichmaydi. Shuning uchun otasi o'ladi. Ko'ro'g'li bilan ota esa yuz yildan ko'p umr ko'rishadi deyiladi. Ammo, ayrim manbalarda, variantlarida (G'iro't) ham tirik, bozorlarda qo'lma-qo'l sotiladi degan fikrlar aytiladi.

O'zbek «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida bunday voqealar yo'q. Bularda ko'proq mifik obrazlar nihoyatda rang-barang tasvirlanadi. Jumladan, G'iro'tning qirq gazli qanoti bor. U egasi bilan odam tilida so'zlashadi. Shuningdek, Go'ro'g'li odam bolasi sifatida ta'riflansa, uning xotinlari parilar - bog'i Eram yurtidan. Quyi qof - devlar yurti va bog'i Eram -parilar yurtiga borish odam bolasining qo'lidan kelmaydi. Chunki Ko'hiqofga boradigan yo'l turkiy mifologiyada makon va zamon tushunchasida dunyoviy o'lchamlar me'yorlari chegarasidan chiqib, mifologik vaqt, o'lchov birliklariga taqaladi. Bunday makon va zamondan faqat g'ayri-tabiiy kuchlar, devlar, parilar, balolar, shuningdek, farishta va maloyikalargina harakat qila oladi. Go'ro'g'lining bu makonda, zamonda mavjudligi esa, uning oddiy insonlarga xos sifatlardan ustun bo'lgan avliyolik, farishta maloyiklik xususiyatiga ega ekanligiga qiyosdir. Bu esa, o'z-o'zidan Go'ro'g'li obrazining o'zagida yashringan hayrxoh ruh - ezgulik ruhi tushunchalari bilan bog'lanadi. Shuningdek, o'zbek dostonlarida Go'ro'g'li o'lganidan keyin og'a Yunus va Misqol parilar G'iro'tni bog'i Eramga olib ketishadi. Ayrim manbalarda Go'ro'g'lining jasadini ham gilamga solib osmonda uchib yurishadi deb ta'riflanadi.

Mifologiya «Go'ro'g'li» turkumi dostonlariga, shuningdek, xalq eposiga katta g'oyaviy-badiiy ta'sir ko'rsatadi. Bu tasviriy ifoda vositalarida ham namoyon bo'ladi. Umuman olganda, o'zbek xalq eposi mifologiya bilan yaqin aloqada yuzaga kelgan va shakllangan. Epos badiiy-estetik taraqqiyotida butunlay yangi hodisa bo'lib, mifologiyadan ko'p oziqlanganiga qaramay, uning inkori sifatida tug'ilgan.

1.2 Turkiy dostonchilikning janr xususiyatlari.

Bashariyatning eng qadimiy tafakkuriy madaniy-ma'rifiy jarayonlarini aniqlashda eng avvalo turkiy dostonchilikning ildizlariga diqqat-e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Bu nihoyatda qiziq va g'aroyibdir. Turkiy dostonchilik jahon xalqlari eposlari singari o'zining yuksak g'oyaviyligi, badiiy kamoloti bilan alohida o'rin tutadi. Doston epik ijodiyotning juda qadimiy turi sifatida barcha xalqlar og'zaki adabiyotida mavjud. Uning yuzaga kelishi ko'p xalqlar hayotidagi epik-qahramonlik davriga borib taqaladi. Albatta, dostonlarning yuzaga kelishidan oldin katta epik asarlar, ya'ni epos yaratilgan. Demak, qadimiylilik barcha xalqlar eposlari uchun tipologik hodisa bo'lib, uning yaratilishi xalqining boshidan kechirgan muayyan iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar, uning tarixidagi voqealarning bosqichlari bilan bog'liqdir. Folklor ilmning bilimdoni, o'zbek xalq og'zaki ijodining asoschilari V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar o'zlarining tadqiqotlarida turkiy xalqlarning eposlari va dostonlari haqida juda qimmatli, shuningdek kelajak avlodga ibrat bo'ladigan o'zlarining fikrlarini yozib qoldirganlar. Ayniqsa, bu tadqiqotlar ularning juda katta, monumental asarlari «Tyurkskiy geroicheskiy epos»² va «Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos»³ hamda boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan. Albatta, biz mana shu asarlarga tayangan holda ushbu kitobimizda bu qimmatli fikrlarni berish asnosida o'z qarashlarimizni ham bayon etishga harakat qilamiz.

Demak, epos qadimiyatning ulkan ehsoni, o'zi yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda, jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida davrlararo xalq ruhining obyektiv holatini ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh ko'lamlashib, goh siqiq tarzda avlodlarga yetib kelgan buyuk obidadir. Har bir xalq milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealari xalq dostonlarining yaratilishi uchun boy material berdi. Epik dostonning asosiy shartlaridan biri uning xalqchilligidir: shoirning o'zi ham voqeaga o'z xalqining ko'zlari bilan qaraydi, voqeadan o'z shaxsini ayirmaydi.

«Doston xalq xayotini ob'ektiv-bayoniy xarakterda tasvirlovchi keng ko'lamli, ko'p tarmoqli asardir. Unda o'tmishdagi ulkan burilishlar, keskin o'zgarishlar aks etadi. «Eposning asosi mundarijasini voqea, dunyoning umumiy ahvolini tubdan o'zgartiruvchi tarixiy konkret voqea tashkil etadi. Bu shunchaki odatdagi voqea emas, balki

² Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л., 1974

³ Жирмунский В.М. Узбекский народный героический эпос. М., 1947

tarixda misli ko‘rilmagan, davr qiyofasini uzoq yillarga o‘zgartiruvchi ulkan voqea. Eposga asos qilib olinadigan bunday voqealar jumlasiga, odatda, urushlar, xalqlar orasidagi jangu-jadallar kiradi. Tasvirga olingan voqeaning faqat ko‘lamdorligi emas, balki badiiy-tasviriy vosita va usullarning sistematasi, mubolag‘a va tashbihlar, tafsilotli tasvirlar, xodisa va manzaralarning sokin va tantanavor oqimi ham eposda ulug‘vorlik va dunyoviy qamrov taassurotini tug‘diradi».

Ana shu ulug‘vorlik va dunyoviy qamrov har bir lavxasida, epik ohang va bo‘yoqlarida, boy tasviriy vositalarida, uziga xos ijodkorlik va ijrochilik san‘atida barq urib turgan o‘zbek xalq dostonlari turkiy xalqlar arxaik folklori zaminida yuzaga keldi va qadimiy milliy tariximizning, ulkan moddiy hamda ma‘naviy madaniyat ijodkori bulgan jonajon xalqimiz ruhiyatining, orzu-umidlarining, ishonch-e‘tiqodlarining o‘ziga xos badiiy ifodasi bo‘ldi, uni yaratilishi xalqimizning ma‘naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoy-siyosiy kurashlari, ahloqiy-estetik qarashlari, adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan mahkam bog‘liqdir, asriy kurashlar va ideallar uning mavzusi, goyaviy mazmuniy, obrazlar sistemasi, syujet va kompozitsiyasi mohiyatini belgilaydi. Dostonlarimizdagi ulug‘vor poetik umumlashma va yuksak badiiy obrazlar ularni dunyo folklorining tengsiz namunalari-rus bilinlari, ukrain dumalari, karelo-fin runlari, yoqut olonxosi, qozoq botirlar jiri, buryat uligerlari, qirg‘iz «Manas»i va qoraqalpoq «Qirq qizi», hind "Mahabxarata"si qisqasi, G‘arb va Sharqning ulkan eposlari qatoriga qo‘ydi. Bu esa, uning qonuniy vorisi - sovet kishisi qalbida cheksiz milliy iftihor, yuksak internatsionalizm tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdiradi.

Doston so‘zi qissa, hikoya, shonu shuxrat, sarguzasht, ta‘rif va maqto‘v ma‘nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu nom ostida xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik xajmli epik asarlar nazarda tutiladi. Biroq ular hayotni tasvirlash vositalari va usulari jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladilar.

Xalq dostonlari juda uzoq kechmishda jonli og‘zaki ijodda yuzaga keladi. Uning ijodiy tarixi yillar bilan emas, balki asrlar bilan o‘lchanadi. Dostonlarning jonli og‘zaki epik an‘anada yashashi va tarqalishi, o‘ziga xos ijro sharoitlari davrlararo uning tarkibiga yangi-yangi ohang va lavhalarning, motiv va epizodlarning qo‘shilib, singib borishiga olib keladi. Bu hol uning janr hususiyatlarini, mazmunan serqatlam va ko‘p variantli bo‘lishini belgilab beradi. Dostonning janr hususiyatlarini belgilaganda, unga ta‘rif berganda barcha belgilarini

hisobga olish kerak bo'лади. Chunki ana shu belgilar majmuidan doston tushunchasi kelib chiqadi.

Tadqiqotchilarning yozishicha, epos o'tmish zamonlar to'grisida qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir.⁴ Akademik V. M. Jirmunskiy ta'rificha: "Doston-bu xalqning qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi jonli o'tmishidir. Uning ilmiy-tarixiy qimmatini, ayni paytda, juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir"⁵. Folklorshunos M.Saidovning yozishicha, doston murakkab san'at asari bo'lib, uni doston bo'lishi uchun adabiy matn, muzika bo'lishi, kuylovchi hofizlik san'atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur. Bu tushunchalarda qanday qarama-qarshilik, ularning nurlari biri ikkinchisini to'ldiradi. V. M. Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarningning ta'rifida xalq dostonlarining bosh xususiyati, M.Saidov nazarda tutgan adabiy matnning asosiy belgisi, ya'ni dostonlarning mazmunan qahramon xarakteriga ega bo'lishi va ular afsonaviy bahodirlar, titanlar, ulug' shaxslar haqida epik idealizatsiya doirasida to'qilgan rivoyaviy asarlar ekanligi birinchi planga qo'yilmoqda. Chindan ham qahramonlik dostonlarning tematik xususiyatigina emas, balki ularning janr belgisi hamdir. Turkiy xalq eposi har vaqt xalq hayotidagi qahramonchilik davrini aks ettiradi, faqat o'z mustaqilligi uchun aktiv kurash olib borgan xalqgina qahramon dostoni yarata oladidir. Shuning uchun ham doston hammavaqt xalqning kuch-qudratini g'alabaga bo'lgan irodasini ifodalaydi. Shunday qilib, dostonlar favqulotda kuch-qudratga ega bo'lgan bahodirlar haqida to'qilgan ko'tarinki, tantanavor, qahramonona qo'shiqdir.

O'zbek dostoni birinchi tadqiqotchilari V. M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarningning ta'rifida doston janrining yana bir muhim hususiyati-uning o'tmish bilan, xalq tarixi bilan mahkam bogliqligi ham o'ziga xos ravishda hisobga olingan. Chindan ham dostonlarda tarixni xalqona tushunish, uni jonlantirish mavjud. Ularda xalqimiz boshidan kechirgan ijtimoy-siyosiy voqealarning, etnik birlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashlarining tarixiy mohiyati badiiy bayon etilgan. Dostonlarda haqiqiy va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan va xalqimizning ahloqiy, falsafiy, diniy qarashlari, hayoti, urf-odat va maishati qomusiy tarzda ifodalangandir.

⁴ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т., Узбекский народный героический эпос. М.,1947, с.303.

⁵ Жирмунский В.М. Народный героический эпос. Л.,1962, с.195

Xalq dostonlarining janriy belgilaridan yana biri shuki, ularda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Dostonlarda umumlashtirishning o'ziga xos formasi-epik umumlashirish hukmronlik qiladi.

Bunday umumlashirish halqning ijtimoiy adolat haqidagi ideal va oru-umidlari bilan yo'g'rilgandir.

Dostonning janr hususiyatlarini belgilaganda, uni kuylanish uchun mo'ljallanganligini, kuy va ijro bilan mahkam bog'liqligini ham hisobga olish zarur. Chunki uning syujet va kompozitsion qurilishi, barcha tasviriy vositalari, she'r tuzilishi ana shu sharoitda shakllangan. Baxshidan doston yozib olingach, ijodkorning ijrochilik va hofizlik mahorati, do'mbiraning jarangdor sasi, epik she'rni turli-tuman kombinatsiyalarda uyushtira olgan xilma-xil kuylar barham topib, quruq poetik matn qolgandek, sanalgan holatlar ijro bilan bog'liq janr tashqi belgilaridek ko'rinishi mumkin. Aslida esa unday emas. Chunki xuddi mana shu kuylanish va o'g'zaki ijro dostonning barcha poetika elementlarining mohiyatini belgilaydi. Bu mohiyat, avvalo, dostonning tarkibiy qurilishi va barcha tasviriy vositalarining o'ta an'anaviyligi bilan xarakterlanadi. Dostonlarda biridan ikkinchisiga ko'chib yuruvchi doimiy epitet va o'xshatishlar, muborak va turli xarakterdagi sintaktik konstruksiyalar, qollanish o'rni va funksiyasiga ayirim o'zgarishlarga uchrovchi barqaror misralar va epik klishe'lar mo'l-ko'l. Ular poetik bayonning sokin va tantanavorligini ta'minlaydi. Kompozitsion jihatdan olganda, dostonlarda she'riy qismlar prozaik parchalar bilan almashinib keladi. Qahramonlarning dialog va monologlari, jangu jadallar, safar, kurash, tortishishlar tasviri, tantanali e'lonlar odatda she'rda kuylansa, bog' va manzaralar tasviri, qahramonlarning portretlari, ichki o'yin-monologlari, she'rlarni bir-biriga bog'lovchi matnlari nasrda beriladi. Nasr odada sajlangan bo'ladi. She'riy qismlarni esa, asosan 7-8 va 11 hijoli epik xalq she'ri tashkil etadi.

Xalq dostonlarining janr hususiyatlariga doir yuqorida bayon qilingan barcha belgi va sifatlarni jamlagan xolda shunday xulosaga kelish mumkin: doston xalqimizning tarixan o'z-o'zini anglashining buyuk ifodasi sifatida qodimgi davrlarda arxaik folklor zaminida yuzaga kelgan bo'lib, tarixiy voqelikni fantaziya asosida umumlashtirilgan ideal obrazlarda tasvirlovchi, kuy va ijro bilan mahkam bog'liq bo'lgan yirik hajmli va keng ko'lamli asardir; unga epiklik, monumentallik xos; kompozitsion va syujet qurishi jihatidan murakkab voqea va hodisalarni qamrab oladi; bunday voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik

xarakteriga ega bolib, ular yakkaxon shaxs-xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi; favqulotda kuch-qudratga ega bo'lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining bunday tematik va janri hususiyatlari uning spetsefik uslubi va formasini ham yuzaga keltirdi: poetik bayonga ko'tarinkilik, tantanavorlik, ko'lamdorlik, an'anaviylik, she'riy va prozaik qismlarning zanjirdek davomiy almashinib kelishi xos.

O'zbek xalk dostonlari ko'p sostavli va ko'p temali bir ijoddir. U uzoq asrlar davomida yaratilib, turli ijtimoy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelindi. Shu tariqa unda turli zamonlar qatlami yuzaga keldi. Bu hol ularning har jihatdan asoslangan ilmiy tasnifini berishni, muayyan turlarga bo'lib o'rganishni nihoyatda qiyinlashtiradi. Fanda o'zbek xalq dostonlarining bir necha tasniflari mavjud. Dastlabki tasnif V. M. Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar tomonidan berilan. Ular o'zbek xalq dostonlarini: a) botirlik dostonlari; b) jangnomalar; v) tarixiy mazmundagi dostonlar; d) romanik dostonlar; e) kelib chiqishi adabiy dostonlar; e) yangi dostonlar kabi turlarga bulib, "Go'rog'li" turkumini alohida oladilar. Bu birinchi tasnif sifatida keyingi tasniflar uchun asos bo'ldi. Biroq unda dostonlarning ichki turlari hisobga olinmagan. Aslida "Go'ro'g'li" turkumini romanik dostonlar qatoriga kiritib, uning ayrim namunalarida qahramonlik motivlari ustunligini ko'rsatish lozim edi.

Keyingi tasniflar orasida M. Saidov tasnifi alohida ajralib turadi. U, dastlab, xalq dostonlarini o'g'zaki va kitobiy dostonlar tarzida ikkiga bo'ladi. So'ngra o'g'zaki dostonlarning: a) qahramonlik; b) jangnoma; v) tarixiy; d) sof sevgini kuylovchi; e) romanik dostonlar kabi turlarini ko'rsatadi. Bu tasnif qator afzalliklariga qaramay, xalq dostonlarini og'zaki va kitobiy tarzda ikkiga bo'lish asoslanmaganga o'xshaydi. Chunki bu yerda «kitobiy» atamashi nihoyatda shartli bo'lib, ular ham aslida o'g'zaki kuylangan va bizgacha og'zaki yetib kelgan. Asoslarigina yozma adabiy manbaga borib taqaladigan bunday dostonlarni xalq baxshilari shundayligicha olmay, ularni jonli o'g'zaki epik an'analarga to'la ravishda bo'ysundirdilar. Boshqacha aytganda, kitobiylik ba'zi istisnolardan toshqari, asosan bunday dostonlarning manbaidadir, ijro va poetika elementlarini esa epik ijodiyotning mustahkam an'analari tasavvur qilish mumkin emas. Biz ham kitobiy dostonlarni alohida tur qilib ko'rsatganda, ularga asos bo'lgan manbanigina hisobga oldik, xolos. Aslida esa, bu turdagi doston namunalari janr e'tibori bilan xarakteriga qarab, yo romanik, yo

qahramonlik turga kiradi. Shuningdek, sof sevgi dostonlarini ham alohida tur sifatida olishga hojat yo'q edi. Ularni romanik dostonlar tarkibida o'rganish mumkin.

T.Mirzayev va B.Sarimsoqovlar xalq dostonlarining yangi tasnifini taqdim etar ekanlar, har ikki tasniflarning barcha afzalliklarini hisobga oldilar, ko'p o'rinda ularga suyanib, asosan ichki bo'linishlarga diqqat qildilar. Ularning fikricha, o'zbek xalq dostonlarini quyidagi turlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir: 1.Qahramonlik dostonlari. 2. Jangnoma-dostonlar. 3. Tarixiy dostonlarlar. 4. Romanik dostonlar. 5. Kitobiy dostonlar.

Bu maktab vakillari ko'proq «Orzigul», «Sohibqiron», «Gulixiromon» kabi dostonlarni ijro etishgan.

Shernazar Beknazar o'g'li, Umir Safar o'g'li, Ahmad baxshi kabi ijodkorlar esa Sherobod dostonchilik maktabiga mansub san'atkor edilar. Ular ijodida ham Go'ro'g'li turkumi dostonlari alohida o'rin tutadi. Bu maktab vakillari, ayniqsa, «Malla savdogar», «Ollonazar Olchinbek» dostonlarini badiiy jihatdan mukammal ijro etganlar.

Janubiy Tojikistonda yashovchi Haybat Shamol o'g'li, Qunduz soqi kabilarning nomlari o'zbek baxshilari orasida hurmat bilan tilga olingan. Bu baxshilar ham Go'ro'g'li turkumi dostonlarini o'ziga xos usulda ijro etganlar.

Xorazm dostonchiligi musiqiyligi, dostonni jo'r ovoz bo'lib ijro etilishi, doston ijrosida bir necha musiqa asboblari jo'r bo'lishi bilan ajralib turadi. Qadimgi sayillarda, to'ylarda 3-4 baxshi chaqirilgan va har bir baxshiga alohida-alohida davra berilgan. Sayil yakunida mohir baxshi atrofidagi odamlar ko'payib, saviyasi past baxshi atrofida hech kim qolmagan. Bu odat san'atkorning o'z ustida muttasil ish olib borishga va ijro san'atini egallashga majbur qilgan. Undan tashqari, Xorazmda 40 yildan ortiq xonlik qilgan Muhammad Rahimxon (Feruz) har yili baxshi va xonandalarning ko'rigini o'tkazib, shaxsan o'zi ularga doston aytish huquqini bergan. Ijro darajasi zaif baxshini omma o'rtasida doston aytish huquqidan mahrum qilgan. Dostonchilikka bu qadar mas'uliyat bilan yondashish Xorazm dostonchiligi rivojini ta'minlagan. Bu maktabda Amat baxshi, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Boltavoy baxshi, Qodir sozchi, Murod baxshi, Ro'zimbek baxshi, Otaxon baxshilar ijod qilishgan va «Bozirgon», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Qirq ming», «Oshiq Mahmud» kabi dostonlarni katta konsert dasturini eslatadigan tomosha tarzida ijro etishgan.

Xalq dostonlari yurtimizning turli hududlarida turlicha ijro etilishiga, ijro usullariga, voqealar sharhiga ko‘ra, hatto, bir viloyatning o‘zida ayrim-ayrim maktablarga ega bo‘lishidan tashqari mazmuniga ko‘ra ham bir necha turlarda tasniflanadi. Taniqli olimlardan V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzayev, B. Sarimsoqovlarning kuzatishlaricha, xalq dostonlarini turlarga bo‘lishda ko‘proq ularning mazmuniga, qahramonlarning fe‘l-atvoriga e‘tibor qilish ma‘qul. Ammo nomlari tilga olingan olimlarning har biri amalga oshirgan tasnif ma‘lum darajada bir-biridan farq qilishiga qaramay, ularni quyidagicha nomlash mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari («Alpomish»).
2. Ishqiy-romanik dostonlar («Ravshan», «Kuntug‘mish»).
3. Jangnoma dostonlari («Yakka Ahmad»).
4. Kitobiy dostonlar («Sayyod va Hamro», «Oshiq G‘arib va Shohsanam»).
5. Tarixiy dostonlar («Oysuluv»).

Tasnif qilishning asosi dostonlarda tasvirlangan voqealarning bosh mohiyati bilan izohlanadi. Masalan, «Alpomish» dostonida ham ishq-muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma‘lumotlar bor. Ammo ma‘lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo‘lidagi mardlik va qahramonlik asarning markaziy g‘oyasini tashkil etadi. Yoki «Ravshan» dostonida ham mardlik, qahramonlik belgilari uchraydi. Lekin doston mazmunidagi asosiy fikr Ravshanning Zulxumorga bo‘lgan ishqini ifodalash maqsadidagi safarini bayon qilishga bag‘ishlanadi.

Qahramonlik eposi xalq og‘zaki ijodi tarixida alohida bosqich sifatida baholanadi. Uning mashhur namunasi yunonlarda «Odissey» va «Iliada» asarlari hisoblanadi. Qirg‘iz xalqining «Manas»i ham ana shunday bosqich namunasi. Bunday asarlarda alohida qahramonlik va mardlik namunasini ko‘rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o‘zidan son va kuch jihatidan yuqori turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. Qahramonlik eposiga o‘zbeklarda «Alpomish» dostoni misol bo‘ladi. Unda yurtimizdagi milliy an‘analarning shakllanishi, tashqi dushmanlarga qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Xalqimiz baxshilari repertuaridagi dostonlarning salmoqli qismini romanik dostonlar tashkil qiladi. «Roman» fransuz tilidan olingan bo‘lib eposning bir turi ma‘nosini anglatgan. Ammo keyinchalik badiiy adabiyotdagi roman janr sifatida alohida ajralib rivojlanganidan so‘ng

sevgi-sarguzashtlarni to'qima tarzda aks ettiruvchi asarlar tushunchasini bera boshlagan. Romantik dostonlar deganda, xalq dostonlarining mazmunan sevgi - sarguzashtlarni tasvirlovchi turlari tasavvur qilinadi. Ularda voqea tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Keyinchalik qahramon ishq sarguzashtlariga boy safarga o'tlanadi. Bu yo'lda turli qiziqarli, hayratomuz hayot lavhalari ro'y beradi. Dushmanlar bilan yakkama-yakka olishuvlar bo'ladi. Dostondagi voqealar rivoji shu tarzda taraqqiy etadi va oxir pirovardida oshiq o'z orzusiga yetadi. «Ravshan», «Kuntug'mish» kabilarni ana shunday dostonlar qatoriga qo'shish mumkin.

Jangnoma dostonlarni esa voqea rivoji, asosan, jang lavhalariga boy asarlar tashkil etgan. Baxshilar bunday dostonlarni nisbatan kam ijro etganlar. Bunday dostonlarda ko'proq qahramonning botirligini tasvirlashga e'tibor beriladi.

«Yusuf bilan Ahmad», «Alibek va Bolibek», «Qirq ming» kabi asarlar shular jumlasidandir.

Kitobiy dostonlar, asosan, tarixiy hayotimizning keyingi asrlarida paydo bo'ldi. Yozma adabiyotimiz vakillari tomonidan yaratilgan dostonlardagi qiziqarli va ibratli voqealar bilan tanishgan baxshilar ular asosida o'zlarining nusxa (variant)larini yaratganlar. Natijada kitobiy dostonlar yozma va og'zaki ijodning o'zaro aloqalari natijasi sifatida vujudga kelgan. Og'zaki ijoddagi «Sayyod va Hamro», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Vomiq va Uzro» kabi dostonlar ana shu turdagi asarlar namunasidir.

Tarixda bo'lib o'tgan muhim voqealar haqida hikoya qiluvchi dostonlar tarixiy dostonlar deb ataladi. Bunday asarlarda tarixiy voqealar tinglovchida shubha uyg'otmaydigan to'qimalar yordamida aks ettiriladi. Ammo ularda tarix qanday bo'lsa, shu tarzda, to'kis ravishda o'zgarishsiz bayon etilmaydi. O'tmishda shuhrat topgan «Oysuluv» ana shunday doston sanaladi.

Shunday qilib, dostonlar xalq og'zaki ijodidagi epik asarlar xazinasidagi o'ziga xos murakkab janrdir. Unda xalq tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, odatlari, ozodlik uchun olib borgan mashaqqatli kurashlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Dostonlarni kuylayotgan baxshilarda kuchli xotira, asarni ijro etayotgan paytda vujudga kelgan vaziyatga to'g'ri baho bera olish, oddiy voqealarni o'ta qiziq tarzda hikoya qila bilish mahorati mujassam bo'lmog'i lozim. Asrlar davomida bu janr namunalarning har bir hududda ijro etilishi mahalliy an'analarni, hatto, maktablarni yaratdi. O'zbek dostonlari son jihatdan

shu qadar ko‘p va badiiy qimmat jihatdan shunchalar yuqoriki, ularni xalqimiz tomonidan dunyo madaniy, ma‘naviy xazinasiga qo‘shilgan munosib hissa sifatida baholasa arziydi.

1.3 Dostonlar syujeti nazariyasiga doir

Ko‘lami keng epik me‘rosimizni doston kuylash sirlarini mukammal egallagan yetakchi dostonchilarsiz tasavvur etolmaymiz. Chunki avlodlarimizning yashash va kurash tarixi, urf-odati, rasm-rusumi, san‘at va madaniyati badiiy aks ettirilgan nodir namunalarni avaylab-asrab bizgacha yetkazishda ularning xizmati bebahodir.

Doston janri taraqqiyot bosqichlarini belgilashda dostonchilarimiz sulolasiga mansub Islom shoir Nazar o‘g‘li kabi bahshilarning individual uslubi diqqatga sazovardir. Islom shoir Nazar o‘g‘li (Mansur Afzalov nashrga tayyorlagan) «Orzigul» dostonini sevib kuylagan va bu asar shoirning repertuaridan mustaxkam o‘rin olgan. Doston g‘oyaviy yetuk, badiiy go‘zal va mazmunan pishiq asardir. Unda ertak motivlari esa xalq fantaziyasining ta‘siri yaqqol seziladi. Bevosita sehrli-fantastik ertak zaminida yaratilgan «Orzigul» dostonining asosiy g‘oyaviy-tematik yo‘nalish Qoraxon podshohning o‘z qizi Orzigulga oshiq bo‘lib qolishi va xalqning bunday razillikka qarshi munosabati tasviridan iboratdir. Syujet chizig‘ida hayot uchun eng muhim bo‘lgan to‘qnashishlar, qarama-qarshiliklar, asar qahramonlarining ma‘naviy dunyosi, ichki kechinmalari aks etadi. Doston voqealari drammatizmga boy bo‘lib, barcha keskin voqea-hodisalarni Xosxona - Oqtosh mamlakati, shuningdek, Qoraxon - Orzigul, Suvonxon - Sultonxonlar o‘rtasidagi kolliziya birlashtiradi. Undagi qahramonlar va personajlarning taqdiri nihoyatda og‘ir vaziyatlarda kechadi.

Ma‘lumki, xalq dostonlarining ko‘pida o‘tmishda og‘ir hayot havosini chekkan mehnatkash xalqning xonlar, beklar zulmiga qarshi cheksiz nafrat-g‘azabi kuylanadi. Ushbu dostonda ham Orzigul obrazi orqali xotin-qizlarning o‘tmishdagi qora kunlari, ularning chekkan azoblari va unga qarshi kurash o‘z ifodasini topgan. Dostoning syujeti boshidan oxirigacha podshoh Orzigulni qo‘lga kiritish uchun harakat qiladi. Orzigul esa Qoraxonning o‘z otasi ekanligini bilganligi uchun ham doim undan qochadi va azob-uqubatlarni chekadi. Dostondagi syujet liniyasi va g‘oyasi qahramonlik, gumanizm, or-nomus uchun kurash va dushmanga nafrat motivlari bilan rivojlantiriladi.

Dostonda Qoraxon podshoh farzand tug‘ilishidan oldin ovga ketayotib xotiniga «agar qiz tugsang so‘yaman», deydi. Afsuski, qiz

farzand tug'ildi. Shu o'rinda dostondagi dramatismni kuchaytiruvchi xalq ertaklariga xos bo'lgan lozim bo'lmagan shartlilik kirib keladi. Tug'ilgan chaqaloq qiz bola bo'lgani uchun ham mamlakat taxtininng vorisi bo'la olmaydi. Endi murg'ak go'dak va onani shodlik emas, dahshatli o'lim kutmoqda. Biroq xalq estetikasi bunday razillikka yo'l bermagani uchun shartlilik qonuniyatiga amal qilinib, kambag'al bog'bon xohlamasa ham bir lagan tilla evaziga uning o'g'lini shoh qiziga almashtirishadi. Bunday almashtirishni shoir sotsial tengsizlik orqali asoslamochi bo'ladi. Chunki podshohning xotini Barnogul gul va qizchasining xayotini qutqarib qolish uchun xohlagancha mol-dunyo sarflashi mumkin. Ernazar bog'bon esa kambag'al, mehnatkash bir kishidir.

Islom shoir «Orzigul» dostonining ekspozitsiyasini jiddiy to'qnashuvlar bilan emas, balki sotsial tengsizlik nuqtai nazaridan asoslab, ko'rsatib beradi. Endi xalq dostoniga arzigulik ulkan insoniy muammo, katta sotsial masala, ya'ni hayotiy konflikt yuzaga kelishi shart. Bunga Doston boshidagi voqealar zamin hozirlamoqda. Mana Doston uchun asos bo'lgan konflikt yuzaga keldi, ya'ni oradan ko'p yillar o'tib, bog'bon boqib olgan qiz - Orzigul bog' aylanib yurganda, Qoraxon podshoh tasodifan uni ko'rib qolib sevib qoladi. Syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan asarning tuguni mavjud bo'ldi. Oradan o'n sakkiz yil o'tganda ham qarimagan podshohning bo'y yetgan qizga oshiq bo'lishi tinglovchini hayratga soladi. Tinglovchi o'z ko'nglida insoniyat uchun isnod dahshatli holni yuz bermasligini qo'msaydi, u dostondagi keyingi voqealarni sabrsizlik bilan kutadi. Voqeaning mantiqidan kelib chiqadigan bo'lsak, mamlakat podshosining o'z farzandi bo'lmish go'zal Orzigulni sevib qolishi insoniy fojia, o'ta dahshatli hol-ku?! Ana shunday og'ir vaziyat mantiqan o'z nomus bokiraligini himoya qilgan, tengi bilan qolishiga bel bog'lagan Orzigulni kimlar himoya qilishi kerak? U bu fojiadan qutilish uchun qanday tadbirlar qo'rmog'i darkor? Chunki Qoraxon podshohning qayerga qo'lini uzatsa yetadigan kuchi bor. Shu ondayoq voqealar dramatik tus oladi, konflikt tobora chuqurlashadi, syujet voqealari rivojlantiriladi. Qoraxon boshliq guruhlar o'z yovuz niyatlariga yetish uchun qanchalik zulm-zo'rlikka harakat qilsalar, Orzigul tomon shunchalik aql va tadbirkorlik bilan ish tutadilar. Hatto qiynoqlarning kulminatsion nuqtasiga chiqilganda ham oqila va dovyurak Orzigul o'z irodasini, or-nomusini qo'ldan boy bermay, har qanday qiyinchiliklarga chidam, matonat bilan dosh beradi va yengadi.

Dostonda adolatsizlikni qoralash va yaxshilik, haqiqat, ezgulikni qattiq turib himoya etish muhim o‘rin tutadi. An’anaga ko‘ra finalda yovuz kuchlar mag‘lub bo‘lib, sof niyatlilar murod maqsadlariga yetadilar. Doston kompozitsiyasining birinchi bosqichida asar syujeti uchun asos bo‘lgan konflikt, mana shu konfliktni yuzaga keltiruvchi voqealarda epik shartlilik aktiv amal qiluvchi qonuniyat sifatida namoyon bo‘ladi. Kompozitsiyadagi ikkinchi bosqich Oqtosh mamlakatining podshohi Sultonxonning o‘g‘li Suvonxon bilan Orzigulning Qushqanot qal’asidagi uchrashuvi bilan tugaydi. Bu epik tasvir nuqtai nazaridan shart. Biroq mana shu shartlilikning yuzaga chiqishini ta’minlashda tasvirda tush motivi, qahramonga safarda hamroh bo‘lib unga maslahat beruvchi yaqin do‘sti bo‘lgan epik ot, ilohiy kuch-Xizr va kiyik ishtirok etadilar. Agar yuqorida aytgan shartlilik to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshganda, u holda eposdagi tasvir printsiplariga mos tushmagan va bayon qilinayotgan voqealar sistemasidagi har bir halqa asoslanmagan bo‘lar edi. Mana shu voqealar bog‘lanishini asoslovchi motivlar epik tasvir nuqtai nazaridan shartlilik sanaladi.

Dostonning ijobiy qahramonlari yuksak go‘zallik va baxt-saodatga erishishi uchun mardlik, matonat va jo‘shqin g‘ayrat-shijoat ko‘rsatib, har qanday qiyinchiliklar, to‘siqlar oldida ham umidsizlikka tushmay harakat qiladilar. Suvonxon Qo‘shqanotda Orzigul bilan uchrashadi. Bu uchrashuvni ilohiy kuchlar vositasida Orzigul bilan, ammo Suvonxon bundan bexabar. Ana shuning uchun uni xabardor qilish uchun asar syujetiga tush motivi kiritiladi. Suvonxon singlisini tushida ko‘rib, qaysi manzildan izlashni bilmaydi. Bu haqda do‘sti Sarimiroxo‘rga Suvon va uning taqdiri haqida Hizr xabar beradi. Qizning ishqini Suvonxonning yuragidan joy olib, qirq yigiti bilan izlashga ketadi. Tush motivining poetik funksiyasi Orzigul va Suvonxonning taqdirini birlashtiradi.

Tush motivi syujetni shakllantiruvchi badiiy usul bo‘lib, kelajakni oldindan ko‘rish, taqdirni belgilash haqidagi qadimiy tasavvurlar, ilohiy kuchlar-pirlar to‘g‘risidagi mifologiya e’tiqodlar bilan bog‘liqdir. Tushdan hayotiy ma’no izlash, tush e’tiqodlar bilan bog‘liqdir. Tushdan hayotiy ma’no izlash, tush ta’birini yechish an’anasi o‘sha davridayoq turmushda muhim ro‘l o‘ynagan. Tush motivining doston kompozitsiyasidagi estetik tabiati haqida folklorschunos olim To‘ra Mirzaev shunday yozadi: «Tush motivi asosan qadimgi insonlarning tush haqidagi magik qarashlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik bu qarashlar kishilarning estetik talablari natijasida epos

tarkibidan mustahkam o‘rin olgan. Mana shuning uchun ham bu motivning tarixiy izlari o‘ta qadimiy bo‘lib, eposda u kuchli estetik funktsiyani bajaradi. Xabar tush motivida hamma vaqt ramziy xarakterda beriladi».

Shunday qilib, Suvonxon o‘zining sevgilisini tushida ko‘radi-yu, ammo uni qaysi manzilgohdan izlashni bilmaydi. Bu haqda xabar berish uchun uning do‘sti Sarimiroxo‘r, unga esa ilohiy obraz- Xizr tushiga kirib aytib beradi. Shuningdek, eposda qahramonning qutblar tanlashidagi shartlilik qonuniyati amal qiladi. Bunda ham vaqt bir qutb, bir yo‘l, ya‘ni maqsadga eltadigan yo‘l nazarda tutiladi. Mana shuning uchun ham Suvonxon o‘z yigitlari bilan Qo‘shqanotda ekanligini biladiyu, lekin Qo‘shqanotning o‘zi qayerda ekanligini bilmaydi. Mana endi dostonga yangi motiv -to‘g‘ri yo‘ldan boshlab boruvchi kiyik obrazi kirib keladi. Suvonxon uchragan kiyikni quvlab, sheriklari orqada qoladi. Nihoyat ikki sevrishganlar uchrashadilar. Shu o‘rinda aytish kerakki, qiz bilan yigitning belgilangan manzilda uchrashishida boshqa shaxslar ishtirok etmasligi shart. Bu eposning o‘ziga xos universal motiv bo‘lib «Orzigul» dostonida ham kiyik uchrashi, qahramon otining boshqalardan ilgarilab ketishi shartlilik funktsiyasi asosida sodir bo‘ladi.

Har bir epizodda epos qonuniyatiga xos har xil shartliliklar amal qiladi. Masalan, dostonidagi tush motivlari, doston qahramonining farzandsizligi, qahramon safarda hamroh bo‘luvchi ot, uni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kiyik kabi epik shartlilikni ta‘minlaydigan vositalar borki, bu xususiyatlar o‘zgacha namoyon bo‘ladi. Bu haqda taniqli folklorshunos bilan Bahodir Sarimsoqovning maqolasida to‘la ma‘lumot olish mumkin.

Umuman, dostonidagi epik shartlilik, o‘rni bilan sabab-oqibat munosabatlari asar syujetida ustun mavqega ega bo‘lgan. Chunki dostonida sexrli-fantastik ertaklarga xos bo‘lgan motivlar ustun turadi. Dostonning syujeti xronikal xarakterga ega bo‘lib unda xalq ideali muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dostonning syujeti rivojida shartlilik katta o‘rin tutadi. Dostonida asar syujeti va kompozision qurilishi, qahramonlarni harakatga keltiruvchi, uning g‘oyaviy-badiiy asosini tashkil etuvchi epik-ma‘naviy xarakterdagi konflikt hisoblanib, unda syujetning hamma tarkibiy qismlari o‘z o‘rnida, real kartinalarda jozibali tasvirlangan. Ayniqsa, syujet voqealari rivojida tush motivlari juda o‘rinli berilgan.

«Orzigul» dostonining kompozision strukturasi nihoyatda original bo'lib, syujetni shakllantiruvchi motivlar bir-birlari bilan ulanib ketgan ma'lum bir xalqni tashkil qilgan. Doston chuqur xalqchilligi, til boyligi, ya'ni so'z qo'llash san'atining yaxshi namunasi bo'lib, badiiy jihatdan pishiqqligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Folklorshunoslikda o'zaro ta'sir va aloqalar masalasi endigina tadqiq etila boshladi. Mana shu jihatdan qaraganda, o'zbek va Ozarbayjon folklori aloqalari borasida H.T.Zarifov, T.Mirzayev, K.Imomov, B.Sarimsoqov, M.Taxmasib, M.Seyidov, O.Nabiyev, V.Veliyev, A.Abid kabi tadqiqotchilarniig asarlari har ikkala qardosh xalqlar qiyosiy folklorshunosligida yangi-yangi izlanishlarga asos bo'ldi. O'zbek-Ozarbayjon xalqlari orasidagi folklor aloqalarining tarixiga nazar solsak, ularning ildizlari juda uzoqqa borib taqalishini ko'ramiz. O'zbek va Ozarbayjon xalqlarining muayyan davrdagi tarixiy etnik birligi, ularning bir-birlariga yaqin yashashi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalar ikki xalq o'rtasida qadimdan adabiy aloqalar ham mavjudligini ko'rsatadi.

Folklor aloqalarini tekshirish har bir xalq folklorining o'ziga xosligini, xalq durdonalarining keng tarqalishini aniqlashda birdan-bir vosita hisoblanadi. O'xshash syujet yoki motivlarni qiyoslash aloqa va ta'sir masalalarini o'rganishda samarali natijalar berishi mumkin. Romanik mazmundagi ko'pgina dostonlar syujetlari O'rta Osiyo va Kavkazorti o'lkalarida umumiy xarakterga egadir. Buni biz ayrim dostonlar misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, «Oshiq G'arib», «Vomiq va Uzro» yoki «Qo'zi Ko'rpeshe va bayan suluv», «Tohir va Zuhra» kabi dostonlar. O'rta Osiyo va Zakavkaz xalqlari o'rtasida keng tarqalgan «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostoni mazkur regiondagi xalqlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari, etnografik jihatlaridagi yaqinlik, ijtimoiy-estetik taraqqiyotidagi muayyan mushtaraklik va tafovutlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonning Ozarbayjon va o'zbek versiyalarini qiyosiy o'rganish ilmiy-amaliy jihatdan e'tiborga molik. Har ikki xalq dostonining mushtarak va farqli jihatlarini haqida so'z ketganda, avvalo, ularning syujet chiziqlarini solishtirish maqsadga muvofiq. Shuni alohida ta'kidlash lozim, o'zbek xalq dostoni «Oshiq G'arib va Shohsanam» bilan Ozarbayjon xalq dostoni «Oshiq G'arib»da syujet nuqtan nazaridan keskin farq mavjud. Ozarbayjon versiyasida voqea Tabriz viloyatida yashovchi Muhammad ismli savdogar va uning oilasi tavsifidan boshlansa, o'zbek variantida ma'lum darajada

an'anaviy, ya'ni Diyorbakir elining podshosi Shohabbosning qizi Shohsanam va uning vaziri Hasanning o'g'li G'aribjon ko'rishi va ularning farzandlari ulg'aygach, quda bo'lish haqidagi ahdnomalari hamda Hasan vazir o'lgach, ahdnomaning buzilishi tafsilotlaridan boshlanadi. Bundan keyingi voqealar ham bir-biridan tamomila far qiladi. Ozarbayjonchada Rasul (G'arib)ning Shohsanamni tushida ko'rib, uni izlab ketguniga qadar bo'lgan qator voqealar (qaroqchilar epizodi, Rasulning pullarini yutqazib, hunar o'rganishga kirishuvi) o'zbekcha versiyada yo'q. O'zbekchada asar boshlanishidayoq Shohsanam va G'aribning birga o'qib yurib, sevishib qolishi, podshoh esa ularning muhabbatlariga monelik qilib, G'aribni oilasi bilan shahardan quvib chiqarishi va G'aribning sargardon bo'lishi hikoya qilinadi. Syujetning keyingi rivojida ham har ikki xalq dostonida ikki xil voqealar kechadi. Shu o'rinda voqealarning keyingi rivojiga turtki beradigan motivlarning turlichaligiga diqqatni qaratish lozim. O'zbekcha variantda G'arib bilan Shohsanamning bir-birlariga yetishishlari uchun asosiy g'ov qizning otasi Shohabbosning qarshiligidir. Bu yerda motiv ijtimoiy ma'no kasb etadi, ya'ni ijtimoiy tengsizlik Sanamning shoh qizi ekanligi va G'aribning quyiyoq tabaqa vakili ekanligi ikki sevishgan qalbning tutashmog'i uchun asosiy g'ov bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida dostonning o'zbek variantida sotsial onglilikni muayyan elementlari haqida fikr yuritishga asos beradi. Demak, o'zbek versiyasida dostonni tor maishiy plandagi asar emas, balki ijtimoiy-maishiy asar sifatida talqin qilish uchun ilk sabab bor. Ozarbayjon variantida esa G'arib bilan Shohsanamni visoliga yetishishlari uchun jiddiy sotsial monelik yo'q. Qizni otasi Hoji ularning birga bo'lishiga qarshi emas. Faqatgina G'arib qalin badaliga 40 xalta qizil oltin keltirsa bas, masala hal bo'ladi. Mazkur variantda ana shu motiv syujetning keyingi yo'nalishi ta'minlovchi asosiy motiv bo'lib xizmat qiladi.

G'arib oltin topish maqsadida yurtdan bosh olib chiqib ketgach, voqealar markaziga Shohvalad obrazi chiqadi. Asarning keyingi mazmunicha, Shohvalad Shohsanamga yetishish uchun G'aribni yo'q qilishga harakat qiladi, oxir-oqibat esa o'z maqsadiga yetisha olmay Shohsanamni o'z sevgilisi bilan topishtirishga majbur bo'ladi. Ko'rinadiki, bu erda Shohvaladning Sanamga yetishish niyatidagi urinishlari maishiy intrikal yo'l bilan kechsa, O'zbekcha variantda esa boshqacharoq, keskinroq. Ozarbayjon variantida Shohvalad Shohsanam ammasining o'g'li, qarindosh. U Shohsanamga mavqeining balandligi

yuzasidan zoʻrlik qilib uylana olmaydi. Chunki ular mavqega koʻra teng. Shuning uchun Shohvalad zoʻrlik bilan maqsadiga erishish imkoniyatiga ega emas. Uning uchun birdan bir yoʻl Gʻaribni qanday qilib boʻlmasin oʻldirish, yoʻq qilish. Oʻzbekcha variantda esa yana oʻsha ijtimoiy tengsizlik sifatida talqin etish uchun beradigan fakt mavjud. Asarda hikoya qilinishicha, Shohsanamning otasi Shohabbos oʻlgach, Shohvalat podshoh boʻladi. Shohsanam endi mavqeiga koʻra Shohvalatga tobe shaxs. Shohvalat qizga ikki marta sovchi qoʻyadi. Har gal qiz rad etadi. Uchinchi marta esa Sanamjon kanizagining maslahati bilan Shohvalatga rozilik berib, yetti oy muddatga shart qoʻyadi. Bir qarashda biz koʻzda tutgan masala bu yerda dahlsizdek tuyuladi. Biroq hodisaning mantiqiga koʻra, ildiziga eʼtibor qilsak, masala ravshanlashadi, yaʼni Shohsanam kanizagining maslahatisiz ham Shohvalatga tegishga majbur edi. Chunki yuqorida taʼkidlaganimizdek, u shohga tobe shaxs. Agar qiz Shohvalatga yana rad javobi berganida, podshoh uni zoʻrlik yoʻli bilan qoʻlga kiritishi turgan gap edi. Demak, Shohsanam shu tomonlarni hisobga olgan holda va oʻz maqsadini ham koʻzda tutib oqilona ish tutadi. Bu parchada ham asarning ijtimoiy pafosi haqida soʻz yuritish uchun yana bir asos bor.

Endi har ikki variantning final qismiga toʻxtab oʻtaylik. Ozarbayjon «Oshiq Gʻarib»ida Gʻarib Shohsanam bilan Shohvalatning toʻy kuni kirib kelib, qizga oʻzini tanitadi. Shohvalat Gʻaribni tanib, xanjar bilan unga tashlanganida Gʻaribning doʻsti Dali Mahmud xanjarni tortib olib, Shohvalatning oʻziga tajovuz qiladi. Shohvalat bu holdan choʻchib, Shohsanamni Gʻaribga berdim, deydi va buning evaziga unga Gʻaribning singlisini toʻy qilib beradilar.

Oʻzbekcha «Oshiq Gʻarib va Shohsanam»da yechim tamomila boshqacha. Shohvalat bevosita xalqning tazyiqi ostida Sanam bilan Gʻaribni qoʻyib yuborishga majbur boʻladi. Asar finalida podshohni kelishishga, yon bosishga majbur etuvchi yagona kuch xalq ekanligi alohida taʼkidlanadi, shuning uchun ham Gʻarib shunday deydi:

*Namak kabi har qozonda qaynarman,
Tushib ishqning daryosiga boʻylarman.
Oʻzim noram, soʻzlar bilan oʻynarman,
Xalq men bilan boʻlsa zoʻr menga naylar*

deya gʻurur bilan xitob qiladi. Bu esa oʻz navbatida, zulmga qarshi faqatgina xalq, mexnatkashlarning uyushgan ommasi vositasida kurashish mumkin degan gʻoyaga yetaklaydi, koʻrinadiki, dostonida xalqning yagona sotsial kuch sifatidagi roli, vazifasi juda toʻgʻri

baholangan va xalq dostonining o'zbecha variantini ijtimoiy-maishiy doston sifatida talqin etish uchun yana bir karra to'liq asos beradi.

Biz yuqorida «Oshiq G'arib va Shohsanam» dostonining Ozarbayjon va o'zbek variantlaridagi ayrim farqli jihatlariga to'xtaldik. Bu narsa asarning har ikki variantini tub asoslariga ko'ra butkul boshqa-boshqa manbadan kelib chiqib yaratilgan, degan fikrga yetaklamasligi kerak. Har ikki variantning syujet chiziqlarida, obrazlar sistemasida, ayrim motivlarida o'xshash jihatlar mavjudki, bu dostonning yaratilish manbai, tub ildizlari ekanini, davrlar o'tishi bilan esa xalqlarimizning milliy etnik, etnografik va ijtimoiy ong taraqqiyoti nuqtai nazaridan muayyan tafovutlarga ega ekanligi uchun turli o'zgarishlarga, moslashishlarga uchraganligidan dalolat beradi.

Xususan, dostonning har ikki variantida mushtarak jihatlarini sanash mumkin. Birinchidan, har ikki variantda markaziy obrazlardan tashqari Shohsanamning kanizagi Aqcha qiz va Shohvalat obrazlari ishtirok etadi. Ularning asardagi maqsad va vazifalari, o'rni deyarli bir xil, ya'ni Aqcha kiz har ikki dostonda ham Shohsanamga sadoqatli, uning baxti uchun kurashuvchi, sevishtirilganlarni visolga yetishtirish uchun xarakter qiluvchi oqila ayol sifatida gavdalanadi. Shohvalat esa yovuzlik, o'z manfaati uchun hech narsadan qaytmaydigan salbiy timsol. Ikkinchidan, joy nomlari muayyan o'xshashlik bor. Har ikki dostonda ham G'arib to'yga Xalab (Xalaf) shaxridan yetib keladi. Uchinchidan, har ikki xalq variantida motivlariing bir xilligi mavjud. Masalan, Doston boshlanishida G'aribning otasining o'limi, onasining ko'r bo'lib qolishi, Shohsanamning sharti, Shohsanam uzugining G'aribning kosasiga solib berilishi kabilar. Yuqorida keltirilgan mushtarak jihatlarida Ozarbayjon va o'zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqib, muayyan fonetik o'zgarishlar borligini qayd etish lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, turkiy xalqlarning mushtarak badiiy obidasi bo'lmish «Oshiq G'arib va Shohsanam» xalq dostoni mazkur xalqlarning, xususan, Ozarbayjon va o'zbek xalqlarining milliy jihatlariga ko'ra asrlar osha muayyan o'zgarishlarga uchraganki, shu boisdan ularning birini maishiy, ikkinchisini esa ijtimoiy-maishiy doston sifatida baholash lozim.

Demak, o'zbek, turkman, ozarbayjon va boshqa xalqlarning siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalari ta'sirida adabiy va folklor aloqalari ham rivojlangan va bular dostonlarning mushtarak xususiyatlarni o'zida mujassam etishda katta rol o'ynagan.

Xalq dostonlarida konflikt

Xalq eposi, jumladan, o'zbek xalq dostonlari uzoq taraqqiyot bosqichini o'tib, o'z boshidan turli xil o'zgarishlarni kechirib, bizga qadar yetib kelgan. Hozir bizga ma'lum bo'lgan epos namunalarida aks etgan konfliktlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy, oilaviy-maishiy rivoji bilan bog'liq holda muayyan o'zgarishlarga uchragan. Shuning uchun ham u yoki bu epos namunasida o'z poetik ifodasini topgan konfliktni tahlil etganda, bir tomondan, unda tasvirlangan tarixiy bosqich talablaridan kelib chiqish zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning konkret namunasida qayd etilgan konflikt ham o'zining tarixiy asoslari jihatidan jamiyat taraqqiyotining yanada qadimiy qatlamlariga kirib borishini unutmash kerak bo'ladi.

So'z sa'nati - adabiyotda konflikt syujetning eng muhim elementi, tarkibiy qismi sanaladi. Og'zaki va yozma adabiyot namunalaridagi konfliktlar umumiyliklarga ega bo'lish bilan birga o'zaro farqlanadilar. Yozma adabiyotdagi epik, liro-epik va dramatik asarlardagi konflikt haqida akademik M.Qo'shjonov shunday yozadi: «konflikt hayotdagi real qarshiliklarning badiiy ifodasidir. Asarda esa, u syujetni harakatga soluvchi asosiy kuch, rivoj beruvchi prujina richagidir. Syujetni asar skeleti deb faraz qilsak, konflikt unga jon beradigan, harakatga keltiradigan yurakdir... konflikt adabiyotning hamma janrlariga xos bo'lsa-da, har bir janrda o'ziga xos xususiyatlarga ham ega». Olimning bu ta'rifidagi: «konflikt hayotdagi real qarshiliklarning badiiy ifodasidir», - degan fikridan boshqa barcha xulosalari og'zaki adabiyot uchun ham to'la xosdir. Negaki, ayniqsa, xalq eposida konflikt o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Unda faqat hayotdagi Real qarshiliklar emas, balki epik voqelikdagi ziddiyatlar o'z badiiy ifodasini topadi. Aniq bir individual muallif emas epos ijodkori bo'lgan xalq o'zi yashayotgan jamiyattan noroziligi yoki uning chirkin illatlarini o'z idealidagi ozodlik, erkin muhabbat, tinchlik kabi orzu-istaklariga qarshi qo'yadi. Natijada an'anaviy eposdagi konfliktning qo'yilishi va hal etilishi o'ziga xos badiiy-tasviriy tizim asosida voqe bo'ladi. Unda o'ta real voqealar, detallardan tortib, kishini ishontira olmaydigan darajadagi fantaziyaning mavjudligi ham shundadir.

Xalq eposi namunalari asosida yotgan konfliktlar tarixiy jihatdan asoslangan, xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida sinab ko'rilgan haqiqatlardan tashkil topadi. Shu bilan birga ularni yuzaga chiqarishda mifologik tassavur, xalq idealidagi cheksiz fantaziya qudrati ham muhim rol o'ynaydi. Yozma adabiyotdagi epik tur

namunalaridan farqli ravishda xalq eposidagi konfliktning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda hech qachon ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi ziddiyatlar aks ettirilmaydi. Eposda konflikt ijobiy va salbiy qutblarini harakatga keltiruvchi kuchlar xoh real, insoniy bo'lsin, xoh mifologik qiyofada bo'lsin o'zaro ziddiyatli munosabatda bo'ladilar. Bu o'ziga xoslik barcha vaziyatlar pirovardida, ya'ni syujet yechimida ijobiy qutblarning yengib chiqish bilan bog'liq bo'lgan konfliktning optimistik ruhini ta'minlaydi. Folklor asarlarida, ayniqsa, epik tur namunalari dostonlar va ertaklarda tushkunlik motivlari deyarli bo'lmaydi, konflikt ijobiy kuchlar foydasiga hal bo'ladi, chunki xalq ijodkorlari voqealarni oddiy mehnatkash xalq manfaati pozitsiyasidan turib talqin etganlar. Shuning uchun o'zlari yaratgan qahramonlarning mag'lubiyatini istamaganlar.

O'zbek xalq eposi uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib bizga qadar yetib kelgan ekan, bu qadimiylilikni uning ko'p qatlamliligi ham to'la isbotlab beradi. O'zbek xalq eposi namunalarini B.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov birinchi marta besh turga bo'lib tasnif qilishgan. Bular qahramonlik, romanik, jangnoma, tarixiy va kitobiy dostonlardan iborat. O'zbek eposshunosligida bundan so'ng dostonlarning M.Saidov, B.Sarimsoqov tasniflari mavjud. Ulardan eng so'nggisi B.Sarimsoqov tasnifi bo'lib, muallif xalq dostonlarini tarixiylik mezonlariga asoslanib, qahramonlik, romanik va tarixiy kabi turlarga bo'ladi. U jangnoma va kitobiy dostonlarni romanik turga kiritadi. O'z navbatida, mazkur turlar o'zbek xalqi badiiy tafakkurining ham taraqqiyot bosqichlarini belgilab beradi. Agar biz konflikt xarakteri nuqtai nazaridan o'zbek xalq eposiga yondashsak, bu ulkan merosdagi mavjud konfliktlarni uch tipga bo'lish mumkinligini ko'ramiz:

1. Qahramonlik eposiga xos bo'lgan konflikt tipi. Bu tur dostonlar xalqning qahramonona o'tmishni butun buyukligi, to'laligi va barqarorligi bilan tasvirlash orqali alohida mahorat kasb etadi. Masalan, «Alpomish» dostonida urug'chilik jamiyatining yemirilish va patriarxal-feodal munosabatlarning asta-sekin qaror topa borishi keng ko'lamda aks ettirilgan.

2. Romanik dostonlarga xos konflikt tipi. Bunday konflikt tipida xalqning asrlar davomida shakllangan ideallari bilan unga qarama-qarshi turuvchi kuchlararo ziddiyatlarda aks etadi.

3. Tarixiy dostonlarga xos konflikt tipi. Bunday dostonlarning o'zi ijtimoiy hayotni qahramonlik va romanik dostonlarga nisbatan aks

ettirish tarzi, demakki, hayotdagi ziddiyatlarni real ifodalash xarakteri jihatdan ikki tipga bo'linadilar:

a) an'anaviy tarixiy dostonlar («Shayvali», «Oychinor», «To'lg'onoy», «Tulumbiy», «Temur» kabi)dagi konflikt o'z mohiyati jihatdan, garchi ulardagi epik voqealar konkret shaxslar va konkret makonlar bilan bog'liq holda rivojlansa ham, romanik eposdagi konflikt tipidan alohida ajralib turmaydi;

b) xalq eposi, boshqacha aytganda, yangi tipdagi dostonlardagi konfliktlar o'zlarining tarixiy asoslari nuqtai nazardan konkret shaxslar, konkret makon va zamon asosiga borib taqaladi. Chunki ularda real tarixiy voqealar aks ettirilgan. Real tarixiy voqealarni esa real tarixiy shaxslar real makonlarda amalga oshiradi. Demak, bu tip dostonlardagi konfliktlar ham tarixiy xarakter kasb etadi.

Jangnoma tipdagi hamda kitobiy dostonlardagi konfliktlar ham o'z mohiyatlari jihatidan romanik dostonlardagi konfliktlarning boshqa makon, boshqa zamonlarda voqe bo'lishidan farq qilmaydi.

Folklor epik asarlarida qahramonlarning funktsiyasiga qarab, qator konflikt turlari namoyon bo'lishini ko'ramiz:

1. Doston qahramoni bilan devlar, parilar, sexrgar, jodugar, ilonlar, ajdar va boshqa turli maxluqlar o'rtasidagi majoziy, ya'ni allegorik konfliktlar.

2. Asar qahramoni bilan tashqi dushmanlar, adolatsiz hukmdorlar o'rtasida bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy konfliktlar.

3. An'anaviy doston qahramonlarining yaqin kishilari (opa-singil, aka-uka, ota-bola, er-xotin, tog'a-jiyan, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarda Go'ro'g'lining yigitlari va asrandi farzandlari) o'rtasidagi maishiy xarakterdagi konfliktlar.

Bu konfliktlar yana bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Har bir asarda bir yoki undan ortiq asosiy konflikt va bu konfliktni to'ldirib boruvchi yordamchi konfliktlar mavjud. Yordamchi konfliktlar asar leytmotivining mukammallashuviga olib boradigan epizodlarda zohir bo'ladi.

Ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi konfliktni «Oysuluv», «Kuntug'mish» dostonlarida, oilaviy intrigalardan kelib chiqib, ijtimoiy qarama-qarshilik darajasiga ko'tarilgan konfliktni «Shirin bilan Shakar» dostonida ko'rish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy va maishiy konfliktlar bir necha ko'rinishlarda zohir bo'lishi mumkin.

a) epos qahramonining sevgilisi yo'lida olib boriladigan to'qnashuvlar bilan bog'liq bo'lgan bosh konflikt;

b) ideal qahramonning o'z mamlakati ichidagi qarama-qarshi kuchlar, guruhlar bilan razolatga qarshi adolat o'rnatish uchun olib boradigan kurashi aks ettirilgan ijtimoiy xarakterdagi bosh konflikt va hokazo.

Xalq og'zaki ijodi asarlaridagi konflikt haqida fikr yuritganda, an'anaviy dostonlar bilan yangi dostonlar konflikti o'rtasidagi farqni ham unutmaslik kerak bo'ladi. An'anaviy dostonlardagi konfliktlar xalqning asriy ideali va xalq yaratgan ideal qahramonlar faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Ularda epik qahramon obrazi tayyor holda beriladi. Yangi dostonlarda esa qahramon xarakteri dinamik tarzda o'sib boradi. Ularda qahramonlar ideal emas. Shuning uchun ham yangi dostonlarda voqealar aniq, real tarzda tasvirlangan. An'anaviy dostonlarda voqealar, ko'pincha, fantastik, xayoliy uydirma tarzida beriladi. Yangi dostonlarda voqea makon va zamon bilan bog'liq holda real aks ettiriladi. An'anaviy dostonlarda epos qonuniyatlariga ko'ra har bir turkum doston uchun birgina bosh qahramon faoliyati bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Yangi dostonlarda esa turkumlik yo'q. Shuningdek, yangi dostonlarda tarixiy shaxslar, prototiplar mavjud bo'lgani uchun, personajlar faoliyati ideallashtirilmaydi. Shaxslar aniq va real bo'ladi.

Shunday qilib, xalq eposidagi konflikt ham yozma adabiyotdan farqli ravishda real hayotdan tashqari epik voqelikka asoslanadi, ammo bu konflikt paydo bo'lgan davrdan buyon insonlarning ongi rivoji bilan turli xil o'zgarishlarga uchrab, turli xil e'tiqodiy qarashlar prizmasidan o'tgan holda aks etib keladi. Boshqacha qilib aytganda, yozma adabiyotda aks etgan konflikt konkret davr bilan, ko'proq asarda aks ettirilgan davr bilan bog'liq holda konkret qayd etiladi va asar shundan necha asr keyin o'qilsa ham, unda aks ettirilgan konflikt o'zgarmas holda turaveradi. Eposda uning og'zaki shaklda yashashi bilan bog'liq holda konflikt turli tarixiy davrlar, ijtimoiy voqelikdagi siljishlar tufayli hamma vaqt yangi-yangi qatlamlar bilan boyigan holda o'zgarib keladi. Xalq eposidagi mavjud konfliktlarning genetik asoslarini ochish hamma vaqt katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu narsa xalq eposida kasb etgan konfliktlarning tarixiy asoslarini ochish o'zbek folkloristikasining bugungi kunda ham dolzarb masalalaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

«Gulnor pari» dostonida konflikt

Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'lkandan yozib olingan «Gulnor pari» dostoni «Go'ro'g'li» dostonlari turkumiga mansubdir. Dostonda

o'zbek xalqining sevimli epik qahramoni Go'ro'g'lining uzoq Hindiston elidan go'zal Gulnor parini olib kelishi kuylanadi.

Ertaklar va an'anaviy dostonlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ularda optimistik ruh balqib turadi, ma'naviy xayolot olamida ish ko'ruvchi qahramonlar pirovardida oliy maqsadiga yetmog'i kerak. Ammo ular bu yo'lda katta qiyinchiliklar, o'ta-murakkab to'siqlarga duch keladi va ularni beqiyos kuch-qudrati, yetuk aql-zakovati, metindek iroda va zo'r matonati bilan yengadi. Qahramonning idealligi ham ana shu fonda ko'zga tashlanadi. An'anaga ko'ra, bu ziddiyatlar ijobiy va salbiy obrazlar o'rtasidagina emas, tabiat bilan mifologik kuchlar orasida ham zohir bo'ladi. Shunday qilib, voqealar xarakteri mantiqidan kelib chiqib, asar konflikti yaratiladi.

Ijodkor ajdodlarimiz ma'naviy xayoloti, ijodiy salohiyati natijasi tufayli yaratilgan og'zaki ijod asarlarida qarama-qarshi tomonlar to'qnashuvi hayotiy detallar, chiroyli badiiy tasvir vositalarida aks ettirilgan. Binobarin, real hayot ijtimoiy va iqtisodiy formasiyalarning ilk davridan boshlab hech qachon ziddiyatsiz bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Bu tabiiy, albatta. Taraqqiyotni qarama-qarshiliklar va raqobatsiz belgilab bo'lmazligi aksiomadir. Ma'lumki, og'zaki ijod asarlari inson ma'naviy dunyosining ob'ektiv dunyo voqeliklariga ijodiy munosabati mahsuli sifatida yaratildi. Xalq ana shu voqelikni an'anaviy obrazlar, manzara va syujetlarda aks ettiradi. Shaklan sodda, mazmunan chuqur asarlarda hayotiy tajriba, tarixiy hodisalar mahorat bilan tasvirlanadi. Xalqning qahramonligi uning tashqi va ichki dushmanlarga qarshi matonatli kurashida ko'rinadi. Bu kurashlar tarixda raqam bilan ifoda etilsa, folklorda esa uning badiiy in'ikosi sifatida qolgan.

Demak, hayot qarama-qarshiliklari mehnatkash xalq qalbida chuqur iz qoldirgan ekan, bu iz ayni zamonda xalq san'atiga ko'chib, fan tili bilan aytganda badiiy konfliktga aylangan. Ajdodlarimizning ozod zamon va baxtiyor hayot haqidagi orzu-istaklari, yovuzlik, eskilik bilan kuchli to'qnashuvi dostonlarda o'z aksini topgan ekan, konflikt ana shu voqealarning tobora keskin, ba'zida tragik tus olib borishiga, tadrijiy davom ettirilishiga katta imkoniyat yaratadi, asarning emosionalligini ta'minlaydi.

«Gulnor pari» dostoni konflikti qahramonlarning ruhiy kechinmalari, qarama-qarshi kuchlar bilan to'qnashuvi, og'ir qiyinchiliklarga bardosh berishi hamda ularni yengib chiqishlari fonida ishlanganligi jihatidan ancha diqqatga sazovordir. Buni esa asar voqealarining rivoji, xarakteri va mantiqi taqozo etgan.

Yozma adabiyotga doir badiiy asarlardagi kabi xalq dostonida ham konflikt o'zining tutgan o'rni, ahamiyati va o'ynagan roliga qarab farq qilishi mumkin. Odatda, asarlarda hal qiluvchi rol o'ynaydigan bir asosiy konflikt bo'lib, uning atrofida bir necha yordamchi konfliktlar ham bo'lishi mumkin. Ta'kidlaganimizdek, voqealar xarakteri, unda kontaminasiya usulini qo'llashni mantiqan taqozo etadi. Ularning biri uzoq Hindiston mamlakatidan ma'shuqani olib kelish va bunda xalq botirining qahramonligini tarannum etish bo'lsa, ikkinchisi, Chambil yurtining mudofaasi mavzuidir. Shunga ko'ra, dostonidagi konflikt ikki ko'rinishda ko'zga tashlanadi. Birinchisi, ideal Go'ro'g'lining Gulnor parini olib kelishdagi toy hindi bilan to'qnashuvi bo'lsa, ikkinchisi, arablar bilan bo'lgan davomli ziddiyat bo'lib, ularni birinchi plandagi konflikt deb hisoblamok kerak bo'ladi. Amin vazir bilan Simin vazir o'rtasidagi raqobatni esa, bizningcha, bosh ziddiyatlarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi yordamchi konflikt deb atasa bo'ladi. O'z navbatida bu yordamchi konflikt yetakchi konfliktni ijobiy hal qilishga imkoniyat yaratib bergan.

Dostonida, asosiy konflikt, odatda, bir zumda paydo bo'lib, hadeganda hal bo'ladigan badiiy vosita emas. U odatda o'zining badiiy shakllana borish yo'liga ega. Bu esa voqealarning xarakteri, syujet chizig'i bilan bog'lik jarayondir. Asarda birinchi asosiy konfliktning harakat yo'li asar boshidanoq ko'rinadi. Gulnor parining o'z va'dasi ustidan chiqmagani, Chambilga yetib kelmagani Go'ro'g'lining Hind mamlakatiga borishini taqozo etadi. Mana u yigitlarga nima deyapti:

*Ajal yetib menday podsho o'lmadi,
Men biluvda bizni ko'zga ilmadi.
Misqol oyim keldi Eram bog'idan,
Hindistondan Gulnor pari kelmadi.
Gulnorjonni olib kelmasam bo'lmas,
Axir bir kun shundaycha gap bo'ladi.
Olib kelay borib Gulnor parini,
Qarindosh, maslahat qanday bo'ladi?...*

Ko'rinadiki, ideal qahramon «maslahatli to'n kalta bo'lmas», degan xalq hikmatiga amal qilyapti. Undagi aql, kattalarga nisbatan odobi ko'rinyapti, ikkinchidan, qahramon qanchalik qudratli bo'lmasin, u hech qachon yigitlarining ko'magisiz maqsadga erishishi mumkin emas. Go'ro'g'li uni yo'lda katta jangu jadallar, zo'r to'siqlar kutayotganini oldindan ko'ra bilgan. Shunga ko'ra tog'asi Ahmad Sardor boshliq yigitlari va lashkari bilan safarga o'tlanadi: «ana endi yoppa-yovliq oti

bori otni minib, toyli-tayoqli Hindistonga yuringlar deb, Ahmad Sardor bo‘z otini minib, tug‘ni qo‘liga ushlab, vaqtini xushlab, ana shu otlarni o‘ynatib, suvliqni chaynatib, Gurri-Gurri, dasta-dasta bo‘lib jo‘nay berdi...»

Ularning ketib borishini shoir shunday tasvirlaydi:

*Yelkada bordi parangi,
Qo‘lida bordi zarangi.
Ot qo‘yadi qulo cho‘lda
Kelayapti goho elda.
Goho yorug‘, goh qorong‘i,
Rustamday beklar jo‘nadi.
Bastamga o‘xshab jo‘nadi...*

Ular juda ko‘p yerlardan-tog‘lardan, cho‘llardan, daryolardan o‘tib Afg‘onistonga keladi. Afg‘oniston podshosi bularni dushman deb o‘ylab urush boshlamoqchi bo‘ladi. Mana shu joyda ikki tomon o‘rtasida ziddiyat bo‘lay deb, bu do‘stlikka aylanib ketadi. Chunki Go‘ro‘g‘li bosqinchi emas, u o‘zbek xalqining sevimli qahramoni, adolatli xukmdor bo‘lgani uchun Afg‘oniston podshosi Abdi Otaliq bilan do‘st bo‘lib qoladi. Go‘ro‘g‘lining lashkari hech kimning hech narsasiga tegmaydi, hech kimga ziyon-zahmat yetkazmaydi. Ularning maqsadi bitta, Gulnor parini olib qaytish, agar toy hindi qarshilik ko‘rsatsa, u va lashkari bilan to‘qnashishdir.

Ijodkor xalq va atoqli baxshi Po‘lkan shoir mahorati shundaki, ular ideal qahramonni huda-behuda dramatik holatga ro‘baro‘ qilmaydi, qon to‘ktirmaydi. U do‘stga - do‘st, dushmanga - dushman, aqli raso qahramon. Shunga ko‘ra Afg‘onistonda yuz berishi mumkin bo‘lgan ziddiyatga tadbirkorlik bilan barham beradi va voqealarni Hind yurtiga ko‘chiradi.

Go‘ro‘g‘li Qong‘ar tog‘ida, ya‘ni tomosha tog‘da Gulnor pari bilan topishgandan keyin uning maqsadi amalga oshgan, Gulnor parini olib ketaversa bo‘lar edi. Ammo vaziyat uning jangga kirishini taqozo qiladi. Go‘ro‘g‘li behuda qon to‘kilishiga qarshi, lekin Gulnor parining otasi Toy Hindi o‘z lashkarlari bilan Go‘ro‘g‘li ustiga bostirib kelib qoladi. Uning maqsadi Gulnor parini Go‘ro‘g‘liga bermay, uni jazolash edi. Shu narsa aniqki, muayyan maqsadni ko‘zlagan xalq qaxramoni adolatsizlik qilayotgan raqibiga taslim bo‘lib qolmaydigina emas, unga qaqshatg‘ich zarba berishi kerak. Ana shuning uchun ham g‘oyibdan madad keladi:

*Toy hindi shopiman.
Osmondan yarqiratib,*

*Go'ro'g'lining boshidan
Tos tepasini ko'zlab,
Go'ro'g'liday polvonga.
Toy hindi xanjar soldi.*

Go'ro'g'li ham Toy hindi askariga qarshi jangga kiradi. Toy hindi juda kuchli raqib. Lekin Go'ro'g'li ham undan qolishmaydi. Ular o'rtasidagi konflikt kurashda yanada rivojlanadi. Go'ro'g'lining devpolvonlaridan tashqari, Hindistonda uning adolatparvar hamfikrlari bor. Bunday hamfikrlilarning boshlig'i, yetakchisi toy hindining vaziri Simindir. U bu kurashda Go'ro'g'lini qo'llab-quvvatlaydi.

Ko'rinadiki, asar voqealari Go'ro'g'li - Toy hindi - Amin vazirlar o'rtasidagi ziddiyatlar fonida keskin tus oladi. Bu konflikt Go'ro'g'lining sevgilisini olib qaytishi, Hind yerida tinchlik o'rnatish, adolatli podshoh ko'tarish bilan tugaydi. Shu bilan ideal qahramon maqsadiga erishdi, jangu jadallar nihoyasiga yetdi.

Mabodo, asar voqealariga shu yerda nuqta qo'yiladigan bo'lsa, doston shinavandalari Go'ro'g'li matonatiga unchalik qoyil bo'lmagandek tuyuladi. Qoniqtirmayotgan yeri shundaki, qahramon sevgilisi uchun shuncha jang qildi, qizni olib qaytdi. Ammo gap shundaki, xalq san'atkori birinchi mavzuda juda katta ijtimoiy masalani xalq manfaati nuqtai nazaridan turib hal qila olgan. Birinchidan, epik Go'ro'g'li Hind yurtini qora niyatli xukmdorlardan tozalaydi va adolatli shoh ko'taradi. Ikkinchidan, qardosh afg'on xalqlari bilan do'st tutinib, do'stlik, tinchlik qo'shnichilik to'g'risidagi asriy xalqchil g'oyalarni olg'a suradi.

Ijodkor xalq voqealarni qolgan yeridan davom ettirish uchun endi Go'ro'g'li bilan Chambil elining azaliy dushmani bo'lmish arablar o'rtasidagi bo'lgan ziddiyatdan foydalangan. Aytish joizki, bu voqea zo'rma-zo'raki bog'langani yo'q. Go'ro'g'li Toy hindini yengib, Gulnor parini olib o'z vataniga jo'narkan, u qaytishda Afg'oniston xukmdori Abdi otaliqqa mehmon bo'ladi. Fursatdan foydalangan Jalman qizilning o'g'li Alman qizil, Go'ro'g'li urushda o'lgan bo'lsa, otamning xunini olaman deb Shirvonga borib, Rayhonning otasi Bektosh arabni olib Chambil yurti bilan urushishga jo'naydi.

Ko'rinadiki, azaliy dushman hech qachon tinchib ketmaydi, u o'ch olish payida bo'ladi. Po'ltan shoir ana shundan kelib chiqib, ikkinchi mavzuning tabiiy bog'lanishiga ergashgan, ikkinchi asosiy konflikt mana shu yerdan boshlanadi. Shunisi xarakterliki, bu yerda ham katta konflikt tarkibiy qismini tashkil etuvchi kichik ziddiyatlar borki, bular

Xoljuvon oyim bilan arablar Yunuspari, Misqol pari to‘qnashuvidir. Xoljuvon oyim arablarga ma’naviy zarba bersa, Yunus pari boshliq Chambil yurtining xotin-qizlari qurol bilan dushmanga tashlanadi:

*Xotinlarni Yunus pari yig‘dirdi,
Barisiga sarboz libos kiydirdi.
Telpak kiygizdi-da, sochin yig‘dirdi.
Qolganlarning yelkasidan to‘ntarib,
Bog‘ginasini bo‘sh-bo‘shgina bog‘latib,
Kark teri qolgan egniga quyirdi.
Chor Oynani boshlariga kiydirdi.
Kampir qolmay, xotin qolmay hammasin,
Yig‘ib keldi ham momosin, ammasin
Yig‘ib kelib mulla libos kiydirdi.*

Yana Go‘ro‘g‘lining dev-polvoni Hasan Chopson himoya qilishga keladi. U Gulnor parining gapidan arazlab ketib, balo tog‘iga ketgan edi, kampiri bilan arablarning kelganini ko‘rib qoladi. O‘zi kurashishga yakkama-yakka kuchi yetmadi va Go‘ro‘g‘liga xabar berishga ketdi. U Go‘ro‘g‘lini Afg‘onistondan topib, dedi:

*Belni mahkam bo‘g‘ing endi,
Oyoq - qo‘lni yuving endi!
Qistab borib arablarni,
Yovlab kelgan taraflarni,
Shirvon elga quving endi.*

Bu gapni eshitib Abdi Otaliq do‘sti Go‘ro‘g‘liga yordamga bermoqchi bo‘ladi, lekin Go‘ro‘g‘li ko‘nmaydi. Avval Hasan Chopsonni yuborib, keyin o‘zi odamlar bilan jo‘naydi. Bu yerda konflikt voqealar xarakteriga mos hal qilinadi. Boshda Go‘ro‘g‘li - toy hindi Amin Vazirlar o‘rtasidagi tasodifiy ziddiyat fonida ko‘zga tashlangan konflikt endi Chambil - afg‘on xalqlari ittifoqining umumiy dushmani - Arab bosqinchilariga qarshi zarba berishdek keng diapazondagi voqealarni tasvirlashda chiroyli badiiy usul rolini o‘taydi.

Xullas, Go‘ro‘g‘li boshliq ijobiy kuchlar bilan Toy hindi, Bektosh Arab, Rayhon Arab kabi salbiy obrazlar o‘rtasidagi kurashda yaxshilik timsoli bo‘lgan ijobiy kuchlar g‘alaba qozonishi an’anaga mos bo‘lib, bunda syujetning asosiy unsurlaridan hisoblangan konflikt muhim ro‘l o‘ynaydi.

II BOB. XALQ DOSTONLARINING BADIHIYATI

2.1 «Alpomish» dostoni poetikasi

Har bir xalqning o'z sevgan, u bilan faxrlana oladigan eng yuksak asarlari bo'ladi. Masalan, o'zbeklarda «Alpomish», qirg'izlarda «Manas», qozoqlarda «Qizjibek», o'g'izlarda «Kitobi Dada Kurkut» va boshqalar. Chunki bu asarlar turkiy xalqlarning bir umr orzu qilgan qahramonlari, Odil shoxlari, pahlavonlari bo'lib, adolatparvar kuchlarning g'alaba qozonishi, sevgi-muhabbatda sadoqatli bo'lishligi haqidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgandir.

O'zbek eposining eng mukammal, badiiy jihatdan pishiq bo'lgan, syujet va kompozision tomondan so'z san'atining eng oliy talablariga javob beradigan «Alpomish» dostoni qahramonlik eposining yorqin namunalaridan biridir. Bu doston jahon xalqlari og'zaki ijodi xazinasidan munosib o'rin olishga loyiq hisoblanadi. Shu boisdan ham 1999 yilda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligi va YUNESKO hamkorligida «Alpomish» dostonining 1000 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi.

«Alpomish» dostoni baxshilar bilishi kerak sanalgan mezon bo'lib, baxshilar mahorati uni qay darajada kuylay olishlari bilan belgilangan. Professor T.Mirzaev «dostonlar gultoji» deb ta'riflagan «Alpomish» dostonining she'riy qismining o'zigina eng mukammal Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti 14 ming, qozoq, qoraqalpoq versiyalari 2,5 ming misradan iborat bo'lgan. Hayratlanarli jihati shundaki, Fozil Yo'ldosh o'qish yozishni bilmagan, ammo juda yuksak xotira va salohiyatga ega bo'lgan. Folklorshunoslar «Alpomish» dostoni misolida o'zbek dostonchiligining aksariyat nazariy masalalari, poetikasini, jumladan, turkumlik, mifologiya, qo'shloqlashtirish, badiiy tasvir vositalaridan mubolag'a, o'xshatish sifatlash, monologlar, xalq maqollari, xalq iboralari va hokazo yoritib berishlari mumkin. Bundan tashqari dostonda o'zbek xalqi etnografiyasining shunchalar ko'p jihatlari o'z ifodasini topganki, «Alpomish» dostonini haqli ravishda o'zbek xalq og'zaki ijodining qomusi deb ataydilar.

Tabiiyki, bu mukammal asar bo'lgani uchun juda ko'p olimlar, mutaxassislar unga murojaat qilishgan va murojaat qilib kelishmoqda. Dostondan birinchi namunalar A.Divayev, Kun degan olimlar tomonidan XIX asrning oxirida parchalar sifatida yozib olingan. Bu parchalar «Alpomish» dostoniga taalluqli deb xisoblanadi. Uning mukammal variantini 1928-1929 yillarda Mahmud Zarifov Fozil

Yo'ldosh o'g'lidan yozib olgan edi. 1939 yilda shoir H.Olimjon so'zboshisi bilan Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti 1-marta qisqartirilgan holda, keyin 1957, 1958 yillarda 2-3-nashri to'la holda nashr qilindi. Rus tilida chop etildi. Mustaqillik davrigacha ana shu nashrga asoslangan qayta nashrlar eng mukammal xisoblanar edi. Aslida eng mukammal nashr 1998 yilda chop etildi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, «Alpomish» dostoni o'zbek xalqi orasida ikki versiya va ko'plab variantlarda juda keng tarqalgan. Uning variantlari 28 xalq baxshisidan 33 marta (to'la matni, parchalar, mazmuni) yozib olingan. «Alpomish» dostonining to'la variantlarini quyidagi baxshilardan yozib olingan: Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Berdi baxshi, Bo'ri Sodiq o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li. Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li, Umir Safar o'g'li va boshqalar. Dostonning yozib olingan qo'lyozmalarining asl nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor arxivida saqlanadi. Dostonning o'zbeklar «Alpomish», qozoq-qoraqalpoqlar «Alpamo's», o'g'uzlar «Bomsı Bayrak», tatar, boshqirdlar «Alpamsha», «Alpamsha va Barsuo' xo'luu», o'yrotlar «Alo'sh-Manash» deb yuritadigan versiyalari bor. Bular ko'p o'rganilgan va o'rganilmoqda.

Dostonning yaratilishi davri haqida turlicha fikrlar, qarashlar mavjud. Jumladan, asarni V.M. Jirmunskiy va Hodi Zarif XIV asr, M.Saidov V asr, T.Mirzaev va B.Sarimsoqov X-XI asrda yaratilgan deyishadi. Folklorshunos O.Madaev dostonning mifologiya bilan bog'liq tomonlaridan kelib chiqib, uning ilk genezisi, 3000 yil oldin mif sifatida paydo bo'lgan deb hisoblaydi. Ilmiy jamoatchilik orasida ko'proq doston X-XI asrlarda yaratilgan, degan xulosa ustivorlik qilib keladi.

Qo'llanmada dostonning yaratilish davrini X-XI asrlarda Sirdaryo bo'ylari va Orol ko'li atrofida yashagan chorvador qo'ng'iroq qabilasi orasida yaratilgan deyiladi. Dostonning bunday deyilishi Sirdaryo bo'yidagi qadimiy Sig'noq shaxri yaqinida bo'lgan Barchinning ko'k koshonasi, Sirning quyi oqimidagi Barchinkent (Barchingligkent, Barchkent, Barchkand, Barn) shaxri va boshqa nomlari ham tasdiqlaydi deyiladi.

Prof. M.Saidov «O'zbek dostonchiligida badiiyat mahorat» nomli monografiyasida «Alpomish» dostoni ustida juda ko'p ilmiy tekshirish ishlari olib borilgani, lekin bu asar xaqida yanada ko'proq ilmiy ishlar qilish mumkinligi haqida gapiradi. T.Mirzaev «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari» nomli nomzodlik dissertasiyasi yoqlab, kitob

shaklida 1968 yilda chop ettirgan. V.M. Jirmunskiy, H.T. Zarifovlar 1947 yilda chiqargan «O‘zbek xalq qahramonlik eposi kitobi»da ko‘p fikrlar bildirilgan. O‘tgan asrning 50 yillari boshlarida eposga turli nigilistik qarashlar bo‘lgan, ya’ni asar bosqinchilikni sharaflagan deb taqiqlangan. 1956 yilda «Alpomish» dostoni bo‘yicha Toshkentda o‘tkazilgan regional kengashda bu dostonga, asosan, to‘g‘ri va ob‘ektiv baho berildi. Shundan keyin yana ko‘p ishlar qilindi. Jumladan, «Alpomish» dostonining til xususiyatlari, genezisi, badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini va boshqa masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab maqolalar, kitoblar chop etildi. Dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, 1999 yilda mualliflar tomonidan dostonning ming yilligiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plamida ko‘p yillar davomida yaratilgan eng sara namunalar to‘planib, ularda asarning versiya va variantlari, motivlari, xalq ertaklari bilan munosabati, mifologik qatlami, tarixiy-etnografik ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

«Alpomish» dostoni va mifologiya haqida gapirishdan oldin bir oz nazariy ma’lumotlarga qaytsak. Xo‘sh, mif deb nimaga aytiladi: Miflar xudolar, pahlavonlar, qahramonlar haqida to‘qima afsonalardir. Mifologiya ibtidoiy insonning tabiatni bilishga intilishining natijasi hisoblanadi. Bo‘ron, zilzila, sel kabi g‘ayri tabiiy kuchlar dahshatidan talvasaga tushgan inson homiy izlagan, yaxshilik va yomonlik ilohlari haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo‘lgan. Miflar kishilarga ruhiy kuch, tetiklik, osoyishtalik baxsh etib, insoniyatni g‘alabaga chorlagan. Mana, endi mifologik qarashlarni bevosita dostonga qiyoslasak. Biz ibtidoiy tasavvurlar - totemizm, animizm, fetishizm haqida bilamiz. Dostonning mifologik tasavvurlar, xalq etnografiyasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatish uchun, Alpomin ajdollarining nomi va ism olishi bilan bogliq dastlabki qismini taxlil qilsak, quyidagi xolatni ko‘ramiz: «Burungi o‘tgan zamonda, o‘n olti Qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘i ikki o‘g‘il paydo bo‘ldi: kattakonining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinasining otini Boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari ikkovi - katta bo‘ldi. Boysari boy edi, Boybo‘ri esa shoy edi, bo‘l ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi». An’anaviy dunyoqarashda ismlar, nomlar kishilar, jonivorlar, tog‘lar, daryolar va hokazolarni boshqalaridan farqlabgina qolmay, totemistik, shomonlik, ritual, qisqasi, mifologik ahamiyatga ham ega bo‘lgan. «Ana endi o‘n olti urug‘Qo‘ng‘irot elida bir chufron to‘y bo‘ldi... Biylar ham to‘yga keldi». Chufron - xatna to‘yi haqidagi etnografik faktlar shuni ko‘rsatadiki, bu marosim Islom dinigacha ham

ko'pgina xalqlarda, masalan, hindlarning bir qabilasida juda qadimdan mavjud bo'lgan va ritual ahamiyat kasb etgan. U tosh asridayoq marosim ahamiyatiga ega bo'lib, qadimgi yaxudiylar nikoh yoshiga yetgan o'smirlarni xatna qilganlar. O'zbeklarda uylanayotgan yigitlar xatna qilinayotgan bolaga o'xshatilgan. Ehtimol, bu odat qadimgi turkiylarda ham bo'lgandir.

Turlicha to'ylar marosimi jahonning barcha xalqlarida uchraydi. O'zbek xalq ertaklari, dostonlari ham, odatda, qahramonlarning qirq kecha-kunduzlik to'ylar bilan yakunlanadi. «Alpomish» dostonida ham to'y lavhalari talaygina. Shu sababli ushbu o'rinda to'y etimologiyasi va etnografiyasiga qisqagina to'xtalib o'tamiz.

Dastlab, to'y so'zining mohiyatiga kelsak, olim Muzayyana Alaviya uni to'ymoqdan olingan, odamlar bu marosimda faqat moddiy jihatdan emas, ma'naviy jihatdan ham bir-birlarining diydorlariga to'yadilar, deydi.

O'ljas Sulaymonov esa uni qadimgi turkiy tuu - tug'ish so'zidan bo'lib, tug'ilish munosabati bilan o'tkaziladigan bayram, deb izohlaydi. Qadimgi kishilar, jumladan, turkiylar an'anasida kishi umrida asosan uchta to'y: tug'ilish, nikoh, o'lim borligini hisobga olsak, keyingi fikr tarixiy haqiqatga to'g'ri keladi. Bu marosimlarning har birida ajdodlar ishonchiga ko'ra inson avval o'lib, boshqa sifatda qayta tug'iladi.

Chufon ham ilgari shunday ritual sifatida o'tish ma'nosiga ega bo'lgan. Bola bir sifatda o'lib, boshqa sifat bilan qayta tug'ilgan hisoblangan. Xatna to'ylarida hozirgacha saqlanib qolgan juda ko'p irimlar, ta'qiqlar ham bu fikrimizni tasdiqlaydi. Jahon xalqlari etnografiyasida bunga o'xshash misollar ko'p. Masalan, laosliklar birinchi soch olishni ham o'lib, qayta tirilishga tenglashtirganlar. To'ylardagi ziyofatlar, pishiriq va taomlar ham moddiy oziqgina bo'lib qolmay, jiddiy magik-marosimiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Xullas, chufon to'yidagilar biylarning farzandsizligini yuzlariga solib, haydab yuborgandan battar qilishadi. Sababi farzandsizlik jahon xalqlari folklorida eng ko'p tarqalgan motiv bo'lib, ajdodlarimiz uni tabiiy sabab emas, balki ruhlar qarg'ishining natijasi deb bilganlar va bu borada, asosan, ayollar aybdor sanalgan. Farzandsiz kishilarning nafaqat o'zlariga, balki butun jamiyat va tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, baxtsizlik, ofat keltiradi, deb ularni to'y marosimlarga, mevazor bog'lar, serhosil dalalarga yaqinlashtirmaganlar. Urug'-qabila jamoasidan haydab yuborganlar. Shu o'rinda bir xalq rivoyatini keltirish joiz: Bir mirishkor dehqon ko'p yillar aziyat chekib, urug'siz va juda shirin

qovun yetishtirib, dono va adolatli shohga olib keldi. Shoh uni mukofotlash o'rniga qatl ettirdi. Odamlar juda hayron bo'ldilar. Axir bunday ish hammaning ham qo'lidan kelavermaydida. Shunda shoh o'z hukmini shunday deb oqladi: «bu dehqon Tangriga qarshi boribdi. Hamma shunday bo'laversa, bu dunyoda qovunning urug'i, oqibat odamzot ham qurib ketadi». Mifologik tafakkur uchun qovun urug'i ham inson urug'iga tengdir. Umuman, urug' hayot ramzi, urug'sizlik yo'qlik ifodasi bo'lib, qadimgi kishilar borliqni o'zlari orqali, o'zlarini borliq orqali ifodalaganlar. Shu sababli Boybo'ri va Boysari to'ydagilarning ta'nasiga qarshi lom-lim deyisha olmaydi. «Xafa bo'lib, sakson tilla chufroga tashlab, turib ketdi».

To'y va aza marosimlarida xonadon egalariga nimadir berib ketish, sovg'a qilish va to'y egalarining odamlarga ziyofatdan tashqari nimalardir berishlari ham an'anaviy udumlardan biridir. «Boybo'ri turib aytdi: Boysari uka, qariganda bizning molimiz besoyibg'a chiqdi, endi bizlar farzand taraddi qilmaymizmi? Boysari turib aytdi: Tortib olib bo'lmasa, o'girlab olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, xudo bizga bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!»

Modomiki, farzandsizlik jahon folklorida keng tarqalgan motiv, farzandsizlik ruxlar qarg'ishi natijasi deb tushunilgan ekan, qadimgi kishilar, ajdollarimiz bunga qarshi qanday chora ko'ringan? Yana ruxlarning o'ziga murojaat qilingan, albatta. Masalan, qadimgi turkiylarda farzandsiz xotinlar shomonlarga murojaat qilishgan. Muqaddas tog'larga chiqib farzand so'rashgan. XIX asrda Isfarada farzandsiz xotinlar qabrni etaklari bilan supurib, farzand tilashgan. Farzandni tabiat atosi bilib, «cho'p bo'l, ko'p bo'l», - degan maqol yaratishgan. Bolgar va bosniyalik ayollar asrandi o'g'ilni etagi tagiga solib olishgan va u shu damdan to'la huquqli farzand hisoblangan. Qadimgi turkiylarda ham bu odatning mavjudligiga Go'ro'g'li turkumi dostonlaridagi Yunus va Misqol parilarning Avazxon bilan Hasanxonni yoqasidan solib, etagidan chiqarganlari misol bo'ladi. Bunday o'xshashlik magiyasiga ishonchga asoslanilgan. Bu aytilganlar, bizningcha, ajdollarimiz tarixida islomgacha mavjud bo'lib, qoldiqlari hozirgacha mavjud.

«Alpomish»ga keyinroq kirib kelgan Islomiy qatlam ta'siri tufayli biylar arxaik ajdodlar kulti yoki ruxlarga emas, nazr-niyozini olib, Shohimardon pir ravzasiga yo'l oldilar. An'anaviy uch kunlik yo'lni tortib, nazr-niyozini shayxlarga berib, bir kam qirq kun pirga iltijo qilishdi.

An'anaviy qirq kunlik qonuniyat ijro etilmagani uchun Xudo ularga pir ovozi orqali farzand bermayman, dedi. «Qirq kun o'rtadan aniq o'tdi, boz ravzadan ovoz keldi: «Boybo'ri, senga Xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi, yolg'iz emas, egiz berdi; Boysari, senga Xudoyim bir qiz berdi, egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'yda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman». Nima uchun pir bolalar ismini o'zi qo'ymoqchi bo'ldi? Savolga javob topish uchun ismlar etnografiyasi va ular bilan bog'liq irimlarga to'xtalsak. Qadimgi kishilar, turkiy ajdodlarimiz ismlarning ilohiy qudratiga, ularning inson taqdirini belgilashiga ishonganlar. «Oting o'chsin» degan qarg'ish o'lim tilashdir. Ismlar umr talashadi, deb go'daklarga hayot bo'lgan qarindosh-urug'larining ismlarini qo'ymaganlar. Ismlar bilan bog'liq ko'pgina irimlar hozirgacha saqlanib qolgan. Shu sababli tabiiy xol bilan tug'ilganlar Anorgul, Norboy, Xolboy, Xolida bo'lishadi. Xol qadimgi turkiylarda iloha Umay ona ramzi bo'lib, chaqaloqqa xol bilan bog'liq ism qo'yilmasa, Umay ona ranjiydi, natijada, bolaning kasalliklardan boshi chiqmaydi. Dunyo xalqlari etnografiyasida tabiiy xol serfarzandlik, hosildorlik, baxt ramzi hamdir. Yasama xollar qo'yish odati ham ana shu ishonch bilan bog'liq. Farzandlar turavermagan oilalarda, chaqaloq kindigi ostonada bolta bilan chopilib Boltaboy, o'roq bilan kesilib O'roqboy, tesha bilan chopilib Teshaboy, Cho'tboylar dunyoga kelgan.

Ostona ikki dunyo orasi, ajdodlarning homiy ruxlari keladigan joy bo'lgani uchun ostonani bosmaydilar, ostonada ko'rishmaydilar, kelinlar ostonalarga ta'zim qiladilar. Qadimgi Xitoy imperatorlari saroyidagi yasovullar eshik oldida kirib chiqqanlarning ostonani bosmasliklarini nazorat qilganlar. Slavyanlar ruhlardan madad tilab, og'ir safar oldida ostonada o'tirganlar. Ostona bosilsa, ruhlar ranjiydi. Bolalarga Muhammad, Yusuf, Sulton, Malika, Nodira kabi ismlar qo'yilib, ular kasal bo'lishaversa, ism og'irlik qildi deb, maxsus udumlar bilan boshqa ism qo'yadilar. To'yda tug'ilganlar To'ychiboy, yo'lda tug'ilganlar, Yo'lchiboy, ro'zada tug'ilganlar Ro'ziboy, O'rozugul bo'ladilar. Otasi vafot etgan yoki noma'lum yo'qolgan chaqaloqlarni Yodgor, Izbosar ataydilar.

«Alpomish» dostonida bu Yodgor misolida ko'rinadi. Bunday ismlar haqida V.Yeryomina ular marhum ajdodlarning sifatlarini chaqaloqqa ko'chirish yo'li bo'lib, bu tasavvur butun jahonda bor va ajdodlar kultidan kelib chiqqan. Ism jonning yangi tug'ilishidir desa,

M.S.Andreev chaqaloqqa marhum bobosi yoki qarindoshi nomini berish odati butun O'rta Osiyoda mavjud bo'lib, kishilar shunday qilinsa, marhumning ruhi chaqaloqqa o'tishiga ishonganlarini aytadi.

Qadimda ismlarni shomonlar, keyingi paytlarda serfarzand bobo, momolar qo'yishgan. Islom kirib kelishi bilan bolaning qulog'iga azon aytilib, ism qo'yiladigan bo'ldi. Ammo juda ko'plab qadimiy urflar ham saqlanib qoldi. «Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi» maqolida ismlarning magik qudratiga ishonch bor. Ko'pgina xalqlar bola tug'ilgan paytda berilgan ismni yashirganlar. Yaxshi ism saqlaydi, yomon ismni almashtirish kerak, deb bilishgan. Bolani axlatga tashlab, boshqa ism bilan qaytarib kelganlar. Qadimgi misrliklar marxumning ismini aytish uni hayotga qaytaradi, deganlar. Ism olish qarindoshlik tizimiga kirishning birinchi belgisi bo'lib, bolalarni asrash, yovuz ruhlarni chalg'itish uchun yolg'on yoki yomon ism qo'yishgan.

O'zbekistonning ko'pgina joylarida farzand ko'rishgach, er- xotin oilada, ba'zida qishloq, mahallalarda ham o'z ismlarini yo'qotib, bir-biriga bolasining ismi bilan murojaat qiladilar. Kelinlar oiladagi ko'p kishilarning ismlarini aytmaydilar. Bu bolaga mehr, o'zaro hurmatdan tashqari tarixan farzandimizga kelgan balo bizga ursin, deganidir.

Islom ta'limotida Alloh Odam otaga barcha narsalarning, jumladan, o'zining ham go'zal ismlarini o'rgatdi. Barcha ismlarini bilgan bandalariga jannat va'da qildi. Shu sababli inson Allohdan keyingi eng ulug' va mukarram zot bo'ldi. Qirg'izlar yetti yoshgacha yetti ism qo'yishgan: 1 - yomon, 2 -tentak, 3 - jinni, 4 - o'g'ri, 5 - qora soch, 6 - qo'y soch, 7 - uzun soch bola. Dunyoning ko'pgina xalqlarida qizlar turmushga chiqqach, qayta tug'ilgan sifatida avvalgi ismini o'zgartirganlar.

Boysun-urug' nomi, bo'ri - totemi. Qadimgi turkiy tilda boy - badavlat, hurmatli, ulug', rahbar er, biy muqaddas, taqiqlangan demakdir. Ayrim olimlar rus tilidagi "bog" tushunchasi bogatstvoda, turkcha boy so'zidan kelib chiqqan, Baykal - Boyko'l - Muqaddas ko'l deyishadi. Gap shundaki, boylik ham Xudo ne'mati hisoblangan. G.N.Potantin qahramon ismining o'zgarishi, qahramonning bolalikdan yetuk yoshga o'tganini bildiradi, deydi. Jahon xalqlari, turkiylar tarixi, o'zbeklarning maishiy turmushida hozirgacha saqlanib kelayotgan bunday faktlarni yana ko'plab keltirish mumkin. Ammo biz uchun shular ham kifoya. Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, Dobonbiyning tarixiy etimologik ma'nosi - muqaddas dovon bo'lib, genetik jihatdan ajdodlar kulti bilan bog'liq.

Alpinbiy - badavlat, tangrilar nazari tushgan bahodir, ulkan odam. Arxaik tasavvurda alplarning boshi osmonga, oyog'i erga tegib turgan. Ularning folklordagi madaniylashgan ko'rinishlari oddiy odamlarga o'xshab borsa-da, katta jasadi, qarashi, sovuti liboslari, kelbatiga mos jangovar otlari bilan farqlanib turgan.

Boybo'ri - muqaddas bo'ri, bo'ri totemi bilan bog'liq. Yaqin-yaqinlargacha tish bilan tug'ilgan bolalarga shunday ism qo'yishgan. Boysari - muqaddas, yetakchi rahbar va h.k. Mana, dastlab Hakimbek deb atalgan Alpomish 7 yoshga kirib, Olpinbiy bobosidan qolgan 14 botmon birinchidan bo'lgan parli yoyini qo'lga ushlab ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqisini yulib o'tdi, shunda Hakimbekning ovozi olamga ketdi deyiladi. Birinch nima? 14 botmon qancha bo'ladi? 1 botmon - 250 kg. bo'lsa, 14 botmon 1 tonnadan ortiq bo'ladi, birinch - bu miss, temir, po'latlarning qorishmasidan quyilgan quyma bo'lib hisoblanadi. Masalan, Maxobxorot eposisini eslang. Yoyni ko'tar deydi, ko'tarolmaydi, chunki og'ir. Uni faqat nasl-nasabi mos kelgan podshoh bo'ladigan odamgina ko'tara oladi. Mana shu narsa «Alpomish» dostonida saqlanib qolgan.

Hakimbekning bobolari Dobonbiy, Olpinbiylar yurt egasi bo'lishgan. Ularning farzandlari Boybo'ri va Boysari esa oliy darajadagi bu mavqega ega bo'lsalar ham obro'siz, chunki ularning farzandi yo'q. Uzoq muddat davomida farzand ko'rmay keyin yuzaga kelgan farzandgina bunday mavqega ega bo'lishi mumkin, shuningdek, u nazarkarda bo'ladi, pirlar qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, «Farhod va Shirin», «Tohir va Zuhra»ni eslang. Shu motiv «Alpomish»da bor. Yurtni boshqarishdagi xususiyat faqat Alpomishda bo'lishi kerak, ana shuning uchun Hakimbek 14 botmonli yoyini zarb bilan ko'tarib Alp nomini oladi. Mifologiyada davlat ramzini anglatgan bu belgining «Alpomish» dostonida ishtirok etishi uning qadimgi doston ekanligidan dalolat beradi va o'tmish, tarix belgilari bu dostonning qadimiyligini yana bir bor isbotlaydi. Bu o'rinda Ozarbayjon olimi, filologiya fanlari doktori M.Seidovning «Tyurkologiya» jurnalidagi «Go'zo'l duyushchining tarixi», ya'ni «Qizil askarning tarixi» nomli maqolasida keltirilgan fikr va faktlar juda o'rinlidir. Bunda aytilishicha, Sibir tomonida o'q-yoylari bilan oltin odam topilgan. Shu oltin odam boshidagi dubulg'asining to'rtta chekkasida 4 o'q bo'lgan. Boshi o'zi dumaloq. Dubulg'aning to'rt chekkasidagi 4 o'q -qo'llarim bor degan

ma'noni beradi, shu bilan hamma narsaga egaman, boshliqman degan ma'noni beradi deydi, olim.

Yoy tushunchasi «Alpomish»da ham saqlanib qolgan. Yoy egasi bo'lish, yurtning egasi bo'lish demakdir. Ustozimiz prof. M.Saidov dostonidagi hokimlik belgisiga alohida e'tibor beradi. Dostonidagi mifik tushunchalar juda ko'p bo'lib, buni dostonidagi qahramonlarning nomlanishi bilan ham bog'lashimiz mumkin. Boybo'ri -yuqorida aytganimizdek, muqaddas bo'ri degan ma'noni beradi. Oq bo'ri hozirgi paytda ham Qashqadaryo, Surxon vohalarida muqaddas hayvon hisoblanadi. Bo'riining terisidan beshikka o'yinchoq qilinadi, tirnog'i bosh tomonga qo'yib qo'yiladi. Boyning yana bir etimologik ma'nosi oq demaqdir. Turkiylar tarixining ma'lum davrlarida oq rang o'zi muqaddas hisoblangan. Podshohlarni oq kigizga o'tqazib ko'tarishgan. U oq o'tovda o'tiradi. Yurt egalarining belgisi - oq, Sari - bosh tepalik, Oq tepa - muqaddas tepalik. O'tmishda har bir joyning o'z Oqtepasi bo'lgan. Hozirgi Toshkentda ham bulardan to'rttasi Yunusobod, Ko'kcha, tibbiyot shaharchasi, Sirg'ali oq tepalari nomlari mavjud. Bunday tepaliklar qorovulxona vazifasini ham bajargan. Tepalikdan dushmanning kelganini ko'rib turganlar.

Mifologiyada totem bilan bog'liq hayvonlar, parrandalar ko'p. Shulardan 3-4 tasi dostonida ishtirok etadi. Dostonida ifodalangan maqsad asosida nortuya turadi. Alpomish zindondan qutilib, Qultoy qiyofasida kelganini 7 yil bag'rini yerga berib yotgan tuya taniydi va o'rnidan turib ketadi. Yoki Boychibor otning nazarkardaligi, gapni tushunish o'rinlari, shuningdek, Alpomish zindonda yotgan chog'ida yaralangan g'ozning qulashi va uning xat tashuvchi sifatida yordam qilishi ham totemistik tushunchalar bilan bog'liqdir. Yana shunday tushunchalardan fetish ham dostonida o'z o'rniga ega. Asosan, yoy bunda birinchi o'rinda turadi. Shuningdek, tush ko'rish tushunchasi ham bor. Qahramonlardan Alpomish, Barchin, Qorajonning ko'rgan tushlari juda katta ma'nolar tashiydi. Masalan, Qorajon tush orqali musulmon bo'ladi. U akalarini insofga chaqiradi. Gapiga kirmagandan keyin, akalariga qarshi boradi. Musobaqadagi holatni misol keltirishimiz mumkin. Poygada yutmoqchi bo'lgan Qorajonni akalari bog'lab, Boychiborning tuyog'iga gul mixlarni qoqish holati. Yana kurash holati. Tush bilan bog'langan tomonlari.

Dostonida animistika tushunchasi, mifologiya bilan bog'langan tushunchaning bittasi niyat bilan bog'liq. Chilla o'tirish, farzand berarmikan deb 39 kunda Shohimardon pir farzand bermaganini aytadi,

ammo 40 kun kutamiz, deb Boybo'ri bilan Boysari 40-kunni ham kutadi, bir kun sabr qilaylik deb, yana bir kun Allohga astoydil sig'inadilar, ishonchni oxiriga yetkazadilar va farzandlar berilgani haqida, o'zi pir borib ism qo'yib kelishini aytadi. Demak, oxirigacha bir ishni yetkazish lozimligi tushunchasi ko'rinyapti. Niyatni amalga oshirishida tushning katta roli bor. Senga o'g'il va qiz, senga qiz deb aytishlar, bunga dalildir.

Yana bir misol keltirsak. Bu ham niyat va xalq irimlari bilan bog'liq. Alpomish otim Murod tepaga qiynalmay chiqsa, Barchin meniki, bo'lmasa yo'q, deb niyat qiladi. Ot bemalol chiqqandan keyin uning niyati amalga oshadi. Shu o'rinda rus folklorshunosligi fani asoschilaridan biri F.Buslayevning: «Xalq irimlari xalq poeziyasining muhim ko'rinishlaridan biridir... o'zlarining fantastik asoslariga qaramasdan, irimlar xalq uchun o'z turmush tashvishlarida amaliy qo'llanishi bilan qadrlidir», - degan fikri Alpomishning harakatini etnografik jihatdan aniq dalillashini aytib o'tishimiz zarur.

Mifologiyada xudolar bo'lgan. Masalan, Mitra - Quyosh xudosi, uning farzandlari bo'lgan. Mitraga atalgan o'q qaytib ketar ekan. U suvda cho'kmas bo'lgan. Shu holat «Alpomish»da bor. Dostonning II qismida Maston kampir Surxayl hiyla-nayranglar bilan mast qilib, behush qiladigan dorilarni solib ichirib, Alpomishni yengganday bo'ladi. Uni o'ldirmoqchi bo'ladilar, unga, ya'ni xalq qahramoniga na qilich, na o'q o'tadi. Keyin uni yondiradilar, yonmaydi. Alpomishning tuki o'zgarmaydi. Oxiri uning otini dumiga bog'lab, dumni kesib zindonga tashlaydilar. U yetti yil zindonda yotadi. Hamma uni o'ldi deb o'ylaydi. Mifik qaxramonning o'ziga xos belgilari bo'lgan. Shu o'rinda Alpomish zindonda yotib Kaykubod tashlagan 4-5 yoki 10 qo'yni bir kunda yeb tashlaganini misol keltirish mumkin. Bir suruv qo'y tugaydi. Shu yerda yana xalq irimiga duch kelamiz. Alpomish Qultoyga isiriq-nishona berib, Boychibor yonida tutatishini aytadi:

*Isriq nishon beray sening qo'lingga
Borib tutat otim turgan yerina,
Isim borsin Boychiborning burnina.
So'ngra mening tirikligim biladi,*

*U otning zarbini qalmoq ko'radi...
Bu tablada tovlab hayvon kishnadi.
Gulu zanjir mayda-mayda bo'ladi,
Bu parchindan o'zin ozod qiladi...*

*Bekning oti bir ag'anab turibdi,
Qo'l ochib chiltanlar duo qilibdi.
Ot quyrug'i boz qirq quloch bo'libdi,
Ot quyrug'in u zindonga solibdi.*

*Hakimbek beliga boylab olibdi,
Jonivor zo'r urib shu zamon tortdi.
Boychiborga pirlar berdi quvvatdi,
Hakimbek u zamon zindondan chiqdi...*

Insoniyat o'zining taraqqiyotida turli bosqichlarni bosib o'tgan. Ibtidoiy, qabilaviy bo'lib, ayollarning jamiyatni boshqarishi poligamik oila tizimi bo'lgan. Oiladagi aka-ukalar uchun bir xotin bilan turmush qurish odati bo'lgan. «Maxabxorat» eposidagi Draupadi obrazini eslang. Hozir shu odat Tibet atrofidagi ayrim qabilalarda uchrar ekan «Jenshina mira» degan qomusiy kitobda 5 ta ayol haqida gap boradi. Shunda 5 ta aka-uka bir xotinga uylanadi. Ayol qarshi chiqadi. Bir erkak bir ayol bilangina turmush qurishi kerak, deydi. Monogam oila tizimi «Alpomish»da ham 90 alpdan 7 ta aka-uka qalmoq Alplari yo bittamizga yo barimizga teg, deyishida ko'rinadi. Bunda ham poligamik oila elementlari saqlanib qolgan. Demak, «Alpomish» dostoni juda qadimda yaratilganligiga bu ham asos bo'la oladi.

Folklorshunos O.Madayev asar doston tarzida yaratilgunga qadar diffuziya holati yetakchi o'rinni egallagan, degan xulosani aytadi. Diffuziya - lotincha «singish», «tarqalish» so'zlaridan olingan. Diffuziya shunday holatki, bunda narsalar bir fursatda boshqa narsaga aylanib qoladi. Epik asar syujetining mifologiyadan afsonaga, keyin rivoyatga, ertakka va dostonga aylanishini B.Sarimsoqov «epik janrlar diffuziyasi» maqolasida ko'rsatib bergan. Diffuziya holati dostonga o'tish bosqichlaridir. Doston xalq og'zaki ijodining mahsuli. U taraqqiyotning nisbatan keyingi bosqichida paydo bo'lgan janr. Birinchi bosqichda mifologik qarashlar yetakchi bo'lgan bo'lishi mumkin. Rivojlanayotgan davrdagina doston holida yaratilgan bo'lishi kerak. Chunki bu dostonda xalq og'zaki ijodi janrlarining hammasi bor. Afsona - Alpomishning safarga chiqishi. Ertakka xos tomonlari bor. Qo'shiq -turey, turey, yor-yorlar. Maqollar, hikmatli so'zlar, mubolag'a va boshqalar o'z mujassamini topgan. Domlamizning fikricha, janrlarning o'zaro munosabatlari oqibatida doston degan durdona asar paydo bo'lgan. Doston sifatida shakllanishi uchun mifologik qarash hamirturush

vazifasini o'tagan. Xullas, bunday misollarni dostonidan ko'plab topish mumkin.

Asarning asosiy g'oyasi «Alpomish» xalqimizning ilk pedagogik tamoyillarini o'zida badiiy ifoda etishida ko'rinadi. Bu birinchi fazilat. Maqsad yoshlarni haqiqiy inson qilib tarbiyalash, haqiqiy inson bo'lsa, mard, jasur, bir so'zli, o'z maqsadiga intiluvchi shaxs bo'lishi kerak. Ota-onaga, elga, xalqiga xurmat, xalqini birlashtirish xizmati, elni so'raydigan erkak bo'lsa, odil bo'lishi kerak, ilimli bo'lishi kerak. Ayollar esa, avvalo, uy xizmatini yaxshi bilishi kerak, eriga vafodor, sadoqatli, nozik didli, o'z farzandlarini sevuvchi bo'lishi, eng yaxshi fazilatlar egasi bo'lishi kerak. Mana shu fazilatlarning hammasi «Alpomish»da bor. Kitobni qayta-qayta o'qisangiz asarning yangi-yangi qirralarini topaverasiz.

Xalq inson psixologiyasini yaxshi bilgan. Qahramonlarning yoshlik, o'smirlik, yigitlik ruhiyatida nimalar kechishini yaxshi bilgan. Xalqning tasavvurida haqiqatdan ham psixologik jihatdan turmushga qizlar juda tez yetiladi. Shu jihatdan olib qaraganimizda, Qaldirg'och garchi 14 yoshda bo'lsa ham akasiga nisbatan uning aqli baland, oila tushunchasini fahmlaydi va akasining yori Barchin dushman qo'lida qolgani, uni qutqarish zarurligini uqtiradi. Alpomish esa ko'proq jismoniy tarbiya, ot minish, davlat ishlari kabi tomonlarni o'ylaydi va Barchin xatiga e'tibor qilmaydi. Qaldirg'ochni gapidan keyingina oila masalasi jiddiy ekanligini tushunib yetadi va yo'lga otlanadi.

Qayd etish lozimki, o'zbek folklorshunoslari, jumladan, I.Ermatov dostonning badiiy xususiyatlari bo'yicha doktorlik, S.Yo'ldosheva nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, O.Madaev «Alpomish» haqida so'z» risolasini e'lon qildi. Bu epos o'zining qomusiy xarakteri, yuksak badiiyati bilan jahon adabiyotining nodir durdonalaridan hisoblanib, yana o'nlab, yuzlab izlanishlarga manba bo'la oladi.

2.2 «Alpomish» dostonining badiiy masalalari.

«Alpomish» dostoni badiiy jihatdan ham xalqimiz og'zaki ijodidagi eng mukammal asarlardan biridir. Fozil Yo'ldosh o'g'li mohir va tajribali baxshi bo'lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir lavha ishtirokchilarining tashqi qiyofasini, ichki dunyosi, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni izchil ta'riflaydi. Tomoshabin ko'z oldida jonli voqea tasvirini hosil etadi, qahramonning xatti-harakatlarini dalillashga alohida e'tibor beradi,

shuning uchun ham tinglovchi ko'nglida doston mazmuni bilan bog'liq yechilmagan jumboq qolmaydi.

«Alpomish» dostoni mubolag'a, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy vositalarga juda boydir. Masalan, Alpomishning yoshligi bilan bog'liq mana bu lavhani olaylik: «Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'liga ushlab ko'tarib tortdi, tortib, qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi, Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasini olamga ketdi». Lug'atlarda og'irlik o'lchovi sifatida qayd etilgan «botmon» O'rta Osiyo xalqlari orasida 2 pud dan 16 pudgacha vaznga ega ekani ko'rsatilgan. Agar har bir pud 16 kilogrammga teng ekanini nazarda tutsak, 14 botmon 224 kilogramm bo'ladi. 7 yoshli Hakimbekning turli metall ma'danlardan quyilgan (birinchdan bo'lgan) shu qadar og'ir yoyni ko'tara olishi, unga mos o'q joylashi va o'qni otib, katta tog'ning cho'qqisini uchirib yuborishi tinglovchida hayrat uyg'otadi. Ammo tinglovchi mazkur voqeaning sodir bo'lganiga mutlaqo shubha bildirmaydi. Chunki Hakimbekning dunyoga kelishini ilohiy kuchlar bashorat qilgandilar, Shohimardon pirining o'zi qalandar qiyofasida kelib, Boybo'rining yangi tug'ilgan o'g'liga Hakimbek deb nom qo'ygandi. Mubolag'ali o'rinlar Hakimbek, to'qson alplarning tog'dek gavdalari, Barchin, Qaldirg'ochning go'zalligi tasvirida, botirlarning kurashlarida, otlarning poygasida juda o'rinli yaratilgan. Dostonda ajoyib o'xshatishlarni ham uchratamiz:

*Ostingda bedoving halloslar qushday,
Achchig'ing chillali muzlagan qishday.*

Bu satrlarda uzoq masofani bir zumda bosib o'tadigan Boychibor qushga, Alpomishning g'azabi butun atrofni muzlatib yuboradigan qishga o'xshatilyapti.

Darhaqiqat, «Alpomish» dostoni badiiy barkamol asardir. Unda o'zbek xalqi she'riy dahosining buyuk qudrati namoyon bo'lgan. «Alpomish» dostonida boshqa dostonlarga nisbatan mubolag'aviy uslub ustunlik qiladi. Bu asar xarakteridan, unda kuylangan voqealar ko'lamidan kelib chiqqandir. Dostonda Alpomish tilidan shunday bir chiroyli mubolag'a beriladi:

*Tikilsam quriydi daryoning gumi,
Na'ra tortsam qular qo'rg'onning timi*

Bunday mubolag‘aviy tasvir changallasa tog‘ni talqon qila oladigan, kuch-qudratda «kallasi kapaday, tanasi tepaday» qalmoq alplardan ustun turgan Alpomishning azamatligini sifatlab bera oladi.

Tog‘ tepasida turgan Alpomishning ko‘rinishi ajoyib o‘xshatishlar yordamida Qorajon tilidan shunday ta‘riflanadi:

*Ostingda bedoving halloslar qushday,
Achchig‘ing chillali muzlagan qishday,
Norkalla kelgansan chuyda qo‘shmushtay.
Norkalla polvonim, qaydin bo‘lasan?...*

Dostonda asar ruhiga mos, favqulodda yaratilgan ajoyib ko‘chimlarni, asarga go‘zal bir bezak bo‘lib tushgan chiroyli parallelizmlarni («Kechani munavvar qilar to‘lgan oy, Savashli kun tortiladi parli yoy...»), misralarni jilvalantiruvchi quyma badiiy vazifa bajarib keluvchi tovushlarni («Suvda bo‘lar suluv o‘tning suyrug‘i») istagancha topish mumkin. Asarda she‘riy satrlar badiiy jihatdan shu darajada mukammal ishlanganki, ularning ko‘plari asrlar tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan aforizmlar darajasiga ko‘tarilgan. Masalan:

*Davlat qo‘nsa bir chivinning boshiga,
Semurg‘ qushlar salom berar qoshiga.
Ot chopsa gumbirlar tog‘ning darasi,
Urushda bilinar mardning sarasi*

kabi hikmatli so‘lar tez-tez uchraydi. Ma‘lum bo‘ladiki, «Alpomish» dostonining o‘ta qiziqarli voqealardan tashkil topgan mazmuni so‘z san‘atining go‘zal badiiy vositalari bilan bezatilgan holda tinglovchiga taqdim etilgan. Shuning uchun ham doston asrlar osha xalqimiz tomonidan sevib tinglanmoqda va o‘qib kelinmoqda.

«Alpomish» «ozod, erkin, mag‘rur va go‘zal odamlar haqida to‘qilgan, shularni maqtab ko‘klarga ko‘targan, shu bilan odamlarning yuragiga yaqinlashgan» (Hamid Olimjon) dostonidir. U o‘zbek xalqining ko‘p asrlik badiiy yodgorligi sifatida jahon madaniyati tarixida muhim o‘rin tutadi.

Dostonda Alpomishning o‘z oilasiga qaytishini tasvirlashda baxshi doston eshitayotgan tinglovchilarga turli yo‘llar bilan hayotda ziyrak bo‘lishi kerak, degan o‘gitni ham berib o‘tadi, Xususan, Qultoy Alpomishning Alpomishligga ishonmaydi. Shundan keyin Alpomish chap yelkaidagi Qultoy panjasining dog‘ini ko‘rsatadi. Shundan keyin Alpomish Qultoy qiyofasida yurtdoshlar bilan uchrashadi. Bu ko‘rinishlar tasvirlangan doston sahifalari xuddi badiiy filmdagi ekran

lavhalarini eslatadi va har safar «Qultoy»da Alpomish belgilari namoyon bo‘ladi.

Dostondagi Barchinoy bilan bog‘liq voqealar baxshilar tomonidan alohida mehr bilan bayon etiladi. U zukkoligi, tadbirkorligi, donoligi, mardligi jihatdan Alpomishdan qolishmaydi. Surxayil kampir o‘g‘illari Barchinoyni zo‘rlik bilan xotinlikka olmoqchi bo‘lganlarida, qiz alplardan birini ko‘tarib yerga shunday zarb bilan uradiki, alpning ogzidan ko‘pik sachraydi. Shundan so‘ng alplar Barchinga Alpomishni kutish uchun olti oy muhlat berishga majbur bo‘ladilar. Baxshi dostonida Barchin ishtirokini tasvirlashda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘radi va uni eng go‘zal fazilatlarga ega ayol sifatida tasvirlaydi.

«Alpomish» dostoni badiiy jihatdan ham mukammal asar. Siz badiiylik deganda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko‘laminigina tushunmasligingiz lozim. Chunki badiiylik tushunchasining o‘zi juda murakkabdir. «Alpomish» dostonida qabila-urug‘chilik munosabatlarining tugallanishi va davlatning vujudga kelishi aks etgan dedik. Masalaning qo‘yilishi boshqa, uni badiiy mukammal holda ishonarli qilib tasvirlash boshqa. «Alpomish» dostoni asrlar davomida xalqimizni mardlik, qahramonlik, adolat, irodalilik ruhida tarbiyalab keldi. Mana shunday vazifani sharaf bilan bajarib kelgan asar, albatta, badiiylik talabiga javob bera oladigan bo‘ladi, ya‘ni asar ijrosini tinglovchilar qiziqish bilan qabul qiladilar.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li mohir va tajribali baxshi bo‘lgani uchun asardagi voqealarni bayon qilishda shoshilmaydi, har bir lavha ishtirokchilarining tashqi qiyofasini, ichki dunyosini, atrofdagi tabiat manzaralarini, voqea-hodisalarni izchil ta‘riflaydi. Tinglovchi ko‘z oldida jonli voqea tasvirini namoyon qiladi. Asardagi qahramon xatti-harakatlarini dalillashga e‘tibor beradi, shuning uchun ham doston mazmuni bilan bog‘liq yechilmagan jumboq qolmaydi.

2.3 Dostonlarda an‘anaviy uslub va poetik shakllar

Asrlar bo‘yi ishlangan, puxtalangan xalq badiiy an‘anasi va kuylovchi ijodiy faoliyati birligida vujudga kelgan dostonlarda an‘anaviy uslub unsurlari va poetik shakllar asosiy o‘rin tutadi. Dostonchining individual mahorati, ijodchi va ijrochilik faoliyati faqat mustahkam badiiy an‘ana doirasida namoyon bo‘ladi.

Dostonlarning kompozitsion tuzilishini umumiy an‘anaviy andaza-o‘rni bilan o‘zaro almashinib turadigan nazm va nasriy matnlar tashkil qiladi. Bunday umumiy qolip bir qator turkiy xalqlar eposlari uchun ham

xosdir. Dostonlardagi she'rlar, asosan, 7, 8 va 11 hijoli barmoq vaznida bo'lib, turoqlarning o'zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanish sistemasiga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega. 7, 8 hijoli vazn voqealarning jadal rivojlanishi tasvirida qo'llaniladi, ular tezlikni bildiradi. Qahramonlarning otda safari, jang manzaralari, qizlarning sayribog' yurishlari, xabar va chaqiriqlar, bazm va o'tirishlar tasviri qisqa she'rlarda beriladi. Masalan:

*Qulon yurmas yerlardan
Quvib o'tib boradi.
Bulon yurmas yerlardan
Buvib o'tib boradi.
Qarsoq yurmas yerlardan
Qalqib o'tib boradi.
Bo'ri yurmas yerlardan
Bo'zlab ketib boradi...*

Agar bu tasvirning do'mbira bilan kuylanishi tinglansa, otlarning tuyog'idan chiqayotgan do'pir-do'pir, jang suroni eshitilib turadi. Uzun vaznli (11 hijoli) she'rlar harakatning tinch, ohistaligini bildiradi. Qahramonlarning monolog, dialoglari, ta'rif-tavsiflar shu vaznda beriladi:

*- Men zulfimni toblab-toblab o'rgali,
Ilojim yetmaydi jonim bergali,
Zindonning ichida to'ram bormisan,
Baxti qora yoring keldi ko'rgali.
- Tor zindonda yotib doim huv dedim,
Kim o'tsa boshimdan osh ham suv dedim,
Omonat er, yo'lay ko'rma qoshima,
Ajalning otini mindim, chu dedim.*

Xalq dostonlarida qisqa she'rlarga nisbatan uzun she'rlar ko'pchilikni tashkil etadi va asosiy o'rin tutadi. Bunday vazniy o'zgarishlar dostonlarning mazmuni bilan, qahramonlarning xatti-harakati va holati bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Dostonlarning nasr qismi ham o'ziga xos. Ular vaznli hamda sajlangan:

«Ravshanxon bu bog' devorlariga qarasa, tik paxsasini ishlagan, devorini tagini g'ishtlagan, juda mahkam qilib tashlagan, devorlarni ganchlagan; to'g'riga ketgan rastalar, devorlarda guldastalar, juda o'xshatibdi ustalar, Ko'rgan xasta, ko'rmagan havasda, gul ekilgan

baland-pastda, gulni desang dasta-dasta, tevaragi yong‘oq, pista, qilgan ham juda usta».

Dostonlarda nazm va nasr badiiy vazifasi jihatidan deyarli teng huquqqa ega. Ularning har birining o‘z o‘rni, o‘z vazifasi bor. Biroq tasviriylik va hajm nuqtayi nazaridan nazm nasrdan ustunlik qiladi.

Dostonlarning mavzusi, sujeti, ko‘pchilik motivlari an‘anaviy va doimiy bo‘lish bilan birga, ko‘pgina sujet vaziyatlari, matndagi bir qancha parchalar ham umumiy va barqarordir. Dostondan dostonga aynan yoki ayrim o‘zgarishlar bilan «ko‘chib yuradigan» bunday parchalar umumiy tipik o‘rinlar yoki epik klishelar deb yuritiladi. Dostonlarning boshlamasi (zachini) va tugallamasi, qahramonga nasihat, ot ta‘rifi va otni egarlash, otda safar, jang tasviri, maston, ko‘sa, Oqqiz singari an‘anaviy obrazlarning portretlari va boshqalar epik klishelar hisoblanadi. Egri klishelarni to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llash dostonchining mahorati va iqtidoriga bog‘liq. Dostonlarda boshlama uch muhim qismni o‘z ichiga oladi, ya‘ni boshlama asarda tasvir etiladigan voqeaning uzoq o‘tmishga oid ekanligini, voqea o‘rnini va qahramon avlodi shajarasini ko‘rsatadi.

Dostonlarning tugallanmasi optimistik xarakterga ega bo‘lib, qahramonlar faoliyatining yakuni sifatida to‘y tasviri, adashganlarning topishib, murod-maqсадga yetganligini ko‘rsatish bilan tamomlanadi. Tugallanma boshlamadan farqli o‘laroq ham nasr, ham nazmda berilishi mumkin. Ayrim hollarda baxshilar tugallanmada qahramonlarning murod-maqсадlariga yetganliklarini ko‘rsatish bilan birga, o‘zlari haqida gapiradilar, tinglovchi va o‘quvchilarga yaxshi istaklar bildiradilar.

Dostonlarda epik klishelar bilan bir qatorda, an‘anaviy uslubga xos belgilardan yana biri - dostondan dostonga ko‘chib yuruvchi, tayyor, qolip holiga kelib qolgan misralar, ikkiliklar, ifodalar-doimiy uslubiy shakllar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan: «Xazon bo‘lmay bog‘da gullar so‘ldimi, so‘lgan gulga bulbul kelib qo‘ndimi», «Qiyg‘ir degan qush o‘ltirar qiyada», «Ot chopsa gumburlar tog‘ning darasi, botirni ingratar nayza yarasi», «Uchqur eding qanotingdan qayrilding, yugrug bo‘lsang tuyog‘ingdan toyrilding», «Oshiqning fahmidir qorong‘i kecha», «Yomg‘ir yog‘sa, halqob yerlar loylansin», «Bahorda ochilgan bog‘ning gulsan», «Qizil gul ochilar g‘unchadan g‘uncha».

Doston mazmuni bilan u yoki bu darajada bog‘langan, ayrim hollarda aforizmlilik xususiyatiga ega bo‘lgan bunday misralar bandning boshida, ba‘zan o‘rtasida kelib, aytuvchining to‘xtovsiz badihagoy‘lik qilishiga imkon beradi, quyilib kelayotgan fikr oqimini mohirlik bilan

tezroq bayon qilishga yengillik tug'diradi. Banddagi boshqa misralar bilan qofiyada mahkam bog'langan bunday qaytariqla dostonchining so'z topishiga bir oz fursat yaratib, keyingi misralarni tezlik bilan ijod qilishga sharoit hozirlaydi.

Dostonlarda doimiy uslubiy shakllar qofiya, vazn talabiga qo'llanish o'rni va vaziyatiga ko'ra ayrim o'zgarishlar bilan ishlatiladi. Masalan, «Alpomish» dostonida «Xazon bo'lmay bog'da gullar so'ldimi» satridagi «bo'lmay» so'zi «bo'lib», «bo'lsa» shaklida; «so'ldimi» so'zi «so'lgandir», «so'lganda», «so'lgandi», «so'libdi», «so'ladi», «so'lmadi», «so'lsin-da», «so'lganmi», «so'larmi», «so'lmasa», «so'lmasin», «so'lmasmi», «so'larmikan», «so'lar deyman» shakllarida qo'llanilgan.

Yuqoridagilardan tashqari, doimiy epitelar, o'xshatishlar ham an'anaviy uslubga xos belgilardan hisoblanadi. An'anaviy uslub va baxshilar ijodiy badihasining birligi, o'zaro aloqasi folklorning asosiy xususiyatlaridan bo'lib, og'zaki poeziyaning g'oyaviy-estetik mohiyatini belgilaydi. Ko'p avlodlar tomonidan shakllangan va bizgacha davom etib kelgan an'analar, an'anaviy poetik uslub xalq og'zaki ijodining, folklor jarayonining asosiy belgilaridan sanaladi. Chunki folklor umumlashgan, barqaror an'analar doirasida yuzaga keladi, yashaydi, rivojlanadi, o'zgaradi va saqlanib qoladi.

O'zbek xalq dostonlarining tarixiy-madaniy ahamiyati tengsizdir. U xalqimizning o'ziga xos badiiy tarixidir. Unda xalqimizning asrlar bo'yi qilgan orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi o'y-fikrlari mujassamlashgan.

Demak, doston va dostonchilikdan maqsad mehnatkash ommaning kayfiyati va ruhiyatini kuylash, shu ruh va kayfiyatga mos idealdagi «burungilar» sabog'i orqali baxshi bilan yuzma-yuz turgan tinglovchilar doirasining «ko'nglini botir qilish», ularni yanada ezgulik va olijanoblikka yo'llashdir. Xalq dostonlari milliy iftixor va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik va do'stlik va birodarlik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim g'oyaviy-estetik vazifani o'taydi.

O'zbek xalqi bitmas-tuganmas boy adabiy merosga ega. Xalq ijodkorlari mana shu merosni asrlar osha ardoqlab, boyitib o'z hofizalarida sayqal berib saqlab kelmoqdalar. Unda tengsizlik, adolatsizlik, yuqori tabaqa vakillarining razilligi, pastkashligi, muttahamligi qoralanadi, ezgu orzu-umidlar, tilak-intilishlar kuylanadi. Xalq asarlarini o'qir ekansiz, ularning badiiy jihatdan puxta va mukammal namunalar ekaniga yana bir shohid bo'lasiz. Bu

mukammallikda har bir motiv, syujet, obrazlar tasviri bilan bir qatorda har bir badiiy tasvir vositasining ham o'z o'rni, o'z tarixi bor. Akademik A.N.Veselovskiy birgina sifatlash tarixini qisqacha adabiyot tarixiga tenglashtirgan edi. Dostonlarni kuylashda baxshilar an'anaviy badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanganlar. Shulardan biri mubolag'adir. Mubolag'a tasvirlanayotgan narsa, hodisaning, qolaversa, asarning ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, «Alpomish» dostonidagi asosiy qahramon Alpomishning dushmanlari qalmoq alplari obrazi bo'rttirib mubolag'ali tasvirlanadi. Jumladan, kurashga tushayotgan qalmoq Alplari quyidagicha ta'riflanadi:

*Shomurti yoqalab har yoqqa ketgan,
Ichida sichqonlar bolalab yotgan,
Ortidan tushgan pishak oltoyda yetgan,
Shunday qalmoq qo'lini bulg'ab keladi...*

*Odam tushmas uning aytgan tiliga,
Besh yuz quloch arqon etmas beliga...*

*Bu qalmoqlar qalmoqlarning ravishi
Oh ursa olamni buzar tovushi,
To'qson molning terisidan kovushi ...*

*Qahrlansa toshni yorar qahari,
To'qson norning go'shti bo'lmas nahori,
Har iziga ketar ancha bahori (bug'doy) ...*

*Tag'i ham bir qalmoq keldi maydonga,
Oltmish karich olachadan qalpogi,
To'qson qo'yni terisidan telpagi.*

*To'rt yuz quloch qo'lda hassasi,
Sarhovuzdan katta edi kosasi,
Shuning bilan o'n sakkizdan nashasi,
To'qson qarich bo'zdan bo'lgan kissasi.*

Alpomishning dushmanlari shu darajada bahaybat, beqiyos kuch-qudratga egaki, xalq o'z sevimli qahramoni Alpomishning ulardan ham kuchli, qudratli bo'lishini orzu qiladi. An'anaviy dostonlarda

qahramonlar xalq tomonidan nihoyat darajada ideallashtiriladi. Alpomish mana shunday xalq idealidagi qahramonlardan biridir.

Mubolag'a qahramonning xos tomonlarni bo'rttirib berish vositasidir. Shuningdek, bu vosita ko'p hollarda metafora, jonlantirish, o'xshatish kabi badiiy vositalar bilan birgalikda qo'llaniladi. Xalq shoirlari butun bir xalqning xislatlarini bir-ikki obrazlarda mujassamlashtirib bera olganlar, doston qahramonlari bo'rttirish usuli bilan tasvirlanadi. Natijada doston qahramonlarining butun xatti-harakatlari mubolag'alashtiriladi. Bunday tasvirlash bilan doston ta'sirchanligi oshiriladi, tinglovchi yo o'quvchi ongiga tez etib boradi va uning xotirasida uzoq saqlanib qoladi. «Ravshan» dostoni ham chiroyli mubolag'alarga boy:

*Oti to'pning o'qiday,
Suvsiz cho'lda otilib,
Sovib tortib buyrini,
Togning boshini ko'zlaydi.*

Shuningdek, «Ravshan» dostonida kallalar obrazini tasvirlashda ularni gavda tuzilishi va boshqa tomonlari shunday mubolag'a bilan tasvirlagan:

«Aynoq kal shunday edi: ot, tuya, arava ko'tara olmas edi, doimo bir yoqqa ko'chirmoqchi bo'lsa, piyoda ketar edi. Ersak kal shunday edi: oqshomlari kamonni qo'lga olsa, qushni ko'zidan urar edi». Baxshi kallarni bunday bo'rttirish orqali ularning o'ziga xos tomonlarini, ya'ni birining bahodirligini, ikkinchisining merganligini konkret ta'kidlab ko'rsatadi.

Dostonlarda faqat qahramonning gavda tuzilishi mubolag'a uslubi bilan tasvirlanib qolmasdan, qahramon qarashlari ham bo'rttiriladi. Dushman qahramonning jismoniy kuchgagina emas hatto bir qarashiga ham dosh olmaydi. Masalan, «Xushkeldi» dostonida Go'ro'g'lining qarashi shunday mubolag'alashtiriladi: «Go'ro'g'libek shunday darvozadan kirib boraversa, bir ajali yetgan bachchag'ar, bir burchakda yozilib turgan ekan. Go'ro'g'libek shunday bir qaradi. Haligi odam birdan dod solib yig'lay boshladi. «Voy o'ldim, voy o'ldim, anavu bachchag'ar menga bir qaradi, o'tim yorildi. talog'ham yorildi. Ho', odamlar Go'ro'g'limikan? Ho', yoronlar, o'ldim! Shu odamni ko'ringlar, bilinglar, men o'laman, men odam bo'lmayman, o'ldim, o'ldim» - deb baqiraverdi». Bu epizoda xalq qahramoni har qanday dushmanga bir qarashda dahshat sola oladigan bahodir ekanligi namoyon etilgan.

Dostonlarda qahramon obrazigina emas, balki butun bir epizodlar va boshqa obrazlar (masalan, ot obrazi) ham mubolag'a usuli bilan tasvirlangandir. «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarda G'iro't, «Alpomish» dostonida Boychibor va boshqa otlar shunday timsollardandir.

Dostonlardagi poyga epizodida o'ta mubolag'a bilan tasvirlangan kartinaga duch kelamiz. Qahramon poygada hammadan uch-to'rt kun keyin jo'nab, hammadan oldin marraga yetib kelishi ham mubolag'a kuchidandir. Qahramon otining tilga kirishi, odamday gapirishi na faqat jonlantirish, balki mubolag'a tasvirining ajoyib namunalaridan biridir. Bu bilan shoir yo baxshi qahramonning birinchi yordamchisi, maslahatgo'yi ot ekanligini ta'kidlaydi. «Qunduz bilan Yulduz» dostonidagi G'irko'k otning gapirishi epizodi fikrimizning dalili bo'la oladi: «Anda G'irko'k ot, nazarkarda xonazot tilga kelib, Avazxonga necha yerdan timsol keltirib bir so'z dedi:

*Ustimda bo'lmadi Go'ro'g'li Sulton,
Tarbiyatlar qilar edi farovon,
Na qultum suv berding, na chimdim somon,
Ochlikning kasodi bo'ldi Avazxon!*

*Eshi ulug qora ot, mendan kattakon
Xudoni o'rtaga solib tilagin.*

Bu parchalarda ot gapirish bilan birga Avazga maslahatlar beradi. Otning tilga kirishi qisman yozma adabiyotdagi masal qahramonlarini eslatadi. Dostonlarda ot obrazini yaratishda faqat mubolag'a vositasidan foydalanib qolmasdan boshqa badiiy tasvir vositalari ham qo'llaniladi. Masalan, otga nisbatan «tulpor», «xonazot», «jonivor», «bedov» kabi sifatlashlar ishlatiladiki, bu sifatlar qahramon otining qanday ot ekanligini o'quvchi ongida yorqin gavdalantiradi. Qahramon otining uchqurligini «qush»ga, turli o'yinlar ko'sata olishini «qiz»ga o'xshatiladi, bahodir oti uchqurliqda qushdan qolishmaydigan, qizlarday o'yin ko'rsata olish qobiliyatiga, ya'ni odam gapiga tushunish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Dostonlarda o'ta mubolag'a bilan tasvirlanadigan epizodlardan biri an'anaviy jang epizodidir. Doston qahramoni maqsad tomon borarkan, yoki maqsadini amalga oshirib qaytarkan, albatta, bir to'siq-g'ovga duch keladi. Bu g'ov qanday kuch bo'lishidan qat'iy nazar, u dadil kurashadi. Xalq qahramoni behisob qo'shinmi yoki hech narsa bas kela olmaydigan g'ayri tabiiy kuchmi, baribir ular ustidan g'alaba qiladi. Son-sanoqsiz

dushmanga nisbatan qahramonning bir o'zi jang qilishi va ularni qirib tashlashi o'ta mubolag'alidir. Bu bilan xalq bosqinchi dushmanlarga nisbatan o'z idealidagi qahramonni ana shunday zarba berishini xohlaydi va uning qahramonligini shunday mubolag'alashtiriladi.

Masalan, «Malika ayyor» dostonidagi Avaz bilan Maqotilning to'qnashuvini olsak. Dostonda katta-katta epizodlar mubolag'a tarzida beriladi, hatto ba'zi obrazlar, jumladan, Maqotil obrazi mubolag'a asosida bo'rttirilib, grotesk darajasigacha ko'tariladi. Mubolag'alar poetik ideallashtirish mezonlarini qabul qilgan epik asarlar uchun suv va nur singari zarur. Usta dostonchi uni mohirligi bilan ishlatib o'zi kuylayotgan Doston obrazlarining yorqin bo'lishiga erishadi. Dostonda Avazxonga yo'l-yo'lakay duch kelgan Maqotil shu qadar bahaybat ediki, «...fil mingan, ikki oyog'i chim yerni omochday tilgan, soqol-murti o'sib ketgan, aymashib kelib og'zi-burnini bosib ketgan». Dostonda Maqotil obrazining o'zi to'laligicha mubolag'a tarzida yaratilgan, Avazxon Maqotildan «Qayda borasan» deb so'rasa, u shunday javob qiladi:

*Minib yurgan chigirtkaday oting bor,
Qumursqaday sening bir jasading bor.
Ola toying menga ta'til bo'lmaydi,
Senday odam rezgisi hech qolmaydi.
Tur, yo'lingga bora bergin bachchag'ar!
Men o'ldirsam seni, ko'nglim to'lmaydi.*

Bu parcha mazmunidan ko'rinadiki, Maqotil va Avaz, fil va G'irotning tashqi ko'rinishlari bir-birlariga qarama-qarshi qo'yilishi bilan Maqotilning vahimador savlati kishining esida qoladigan darajada gavdalantirilgan. Shuning bilan birga mubolag'aning bu tarzda badiiy ishlanishi o'quvchi va tinglovchining ijodiy qahramoni Avazga nisbatan mehrini oshirib, hayajon ham qo'zg'atadi. Kishi sabrsizlik bilan ular kurashining oqibatini kutadi. Ikkinchi tomondan, bu badiiy usul har ikkala qahramonning yakkama-yakka olishuv kartinasida Avazning qudratini nihoyat darajada bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu yakkama-yakka kurashda Maqotil avval uch botmonlik, so'ng olti botmonlik va undan keyin to'qqiz botmonlik cho'yan so'yil bilan Avazni uradi. Bu so'yillar Avazning qalqoniga tekkan zamoniyoq tariqday bo'lib tirqirab ketadi. Ko'rinib turibdiki, Avazning dadilligi, jismoniy qudrati, umuman, tashqi va ichki dunyosi uning sifatlarini birin-ketin oldindan aytish yo'li bilan emas, balki, voqealarning borishi jarayonida birin-ketin ochilib boradi. Bu esa asarning ta'sirchanligini

oshiradi. Shuning bilan birga tom ma'noda haqiqiy san'at darajasiga ko'tariladi.

Avazxon bilan grotesk darajasidagi Maqotil kurashar ekan, Avaz avliyolarga sig'inadi. Maqotil esa:

*Qani sening karomating bilayin
Shul maydonda qo'llamagin, ko'rayin!
Temirdan avliyo, go'li choryor,
Borgandan o'rningdan bekor qilayin*

deb Avazning, u orqali xalqning avliyolarini tahqirlaydi.

Uning bu ko'pol so'zlari o'zining mubolag'a tarzidagi gavda tuzilishiga, fe'l-atvoriga juda mos so'zlar bo'lish bilan birga ajoyib yumor namunasidir. Avazxon olmos qilich bilan Maqotilni chopib tashlagandan keyingi tasvir ham kuchli mubolag'a orqali tasvirlangan: «Maqotil ikki bo'linib, ag'anab qoldi, birovning o'n yetti botmonlik ishlatib qo'ygan yerini tanasi bosib qoldi, qon daryoday oqib ketdi». Bu mubolag'ali tasvir Avaz ko'rsatgan qahramonlikning darajasini ham kuchaytirib ko'rsatadi. Xalq o'z qahramonining kuch-qudratini ko'rsatish uchun kontrast tariqasida dushmanni bahaybat qilib tasvirlaydi. Xalq ommasining barcha ijobiy xislatlarini o'zida mujassamlantirgan qahramon Maqotildek haybatli, katta jismoniy kuchga ega bo'lgan dushmanni yengadi. Arbotindan kelayotgan son-sanoqsiz qo'shinga qarshi yakka o'zi jang qiladi, har ikki qarshi kuchni mahv etishda xalqning sevimli qaxramoni Avazxon shu obrazni yaratgan xalq ommasining kuch-qudratini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham u dushmanni, qaysi bir ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar yengadi. Yana shu dostonidagi Go'ro'g'li obrazi uchun xarakterli bo'lgan bir epizod: Shoqalandar Turkiston shahri tomon yo'l olib, Qoratosh oldidagi toqqa siyosat qilib shunday deydi:

*Jafolar solganman tandagi jonga,
Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga.
Ajalli kasratki tegar yilonga.
Indan chiqib pishak bilan hazillar,
Magar ajal qamsab kelsa sichqonga.
Men Chirpib, otarman seni osmonga,
Injilma, yo'l bergin tog'lar jodugar!*

Toqqa qilingan bu xitob go'zal mubolag'a va jonlantirish namunasi bo'lish bilan birga, azamatlikni gavdalantirgan. Dostonida yana ana shunday folklorga xos chinakam, shunday parchani uchratamiz:

Shoqalandarning devlarga bergan zarbasi tasvirlanar ekan, shunday parchani o'qiymiz:

*Talabkor deb qichqirib bul botirlar,
Bab-barobar qo'ydi otning boshini,
Buni ko'rgan togning aqli shoshadi.*

Bu parchadagi keyingi misralar jonlantirishning go'zal namunasidir, ayni zamonda ajoyib bir mubolag'adir:

*Boshidan aylantirib havoga otdi,
Qalandar zarbidan G'irko'k bukildi.
Qahrlansam qirov turar murtima,
O'zim o'lmay kim keladi yurtima!?*

«Achchig'i chillali qishday murtiga chappa qaytdi... Soqiga qarab har tebrandi, tebranganda, quymuchi yerga to'rt enlik botdi».

Ko'ramizki, o'rinli, kuchli mubolag'alar, chiroyli o'xshatishlar asarning badiiy qiymatini oshirib boradi.

«Murodxon» dostonida bosh qahramon juda ko'p qiyinchiliklar tortib, Guliston yurtiga borib, kampirga o'gil tutinadi. Bir kun tunda uyqusi qochib, xovliga chiqsa shovqin ovoz eshitiladi. Bu nima ekan, deb tomga chiqib qarasa, «katta bir shahar, oy tuqqanday bo'lib, oqshom yorug bo'lib, olgan olib, sotgan sotib, nechovlari angrayib, osmonga qarab yotib, nechovlar bozor qilib, ketgan ketibyotir». Ertalab Murodxon buning sababini enasidan so'rasa, u jinlar bozori deb Murodxonni aldaydi. Murodxon ishonmay tunda turib, bozorga boradi. Borib ko'rsa, oltin to'shakda bir ajoyib Parizod yotibdi, yuziga niqob tortilgan. Shu qizning yorug'ligiga butun shahar yorug' bo'lib, odamlar bozor qilib yottan ekan, mantiqan olib qaraganda, bu ortiq darajada mubolag'a ekanligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Har qanday go'zal qizning xam jamoli nur taratishi, hatto tunda odamlar bozor qila oladigan darajada yorug'lik berishi haqiqatta mutlaqo to'g'ri kelmagan narsa albatta. Lekin mana shu haddan tashqarii ortiqcha mubolag'a xam dostonning qusuri emas, balki fazilati, aniqrog'i, xalq eposiga xos badiiy shartlilikning mevasi hisoblanadi.

«Gulixiromon» dostonini olsak, dostonida Avazning «kesilsin dushmanning boshi» deya janga kirib, ko'rsatgan jasorati Shunday ifodalanadi:

*Ular ham bostirib keldi,
Lochin yutganday bo'lib,
Avazxon bir yoqdan qiyratdi,
Terak butaganday bo'lib.*

*Ot arillab og‘zin ochdi,
Dushman behad o‘qin sochdi...*

Qahramonning jang maydonidagi harakati, tezligi, dushman ko‘rgan og‘ir talofati go‘zal mubolag‘ali o‘xshatishlarda namoyon bo‘ladi.

«Xiromon otasining qal’asiga miltiqning o‘qi aylanib yetar edi. Chap oyogini uzatib, devorga etagi tegib o‘tdi». Yoki «Yig‘ishtirib olganda yetti gaz qo‘li bor edi... shunday uzatdi, jilovidan ushlab G‘iroti to‘xtatdi». «Avazni lippasiga qistirib, G‘iroti ko‘tarib ketdi». «O‘n to‘qqiz chinorni tomir-pomiri bilan qulatib, Xiromonning shahriga otdi. Bir chinorii qo‘porib, kiftiga tashlab, shoxidan ushlab jo‘nadi». Mazkur personaj, ya’ni yalmog‘iz kampir bilan bog‘liq bo‘lgan grotesk detal va shtrixlar ta’rifida mavjud epik ko‘lam hamda pahlavonlar tasviridagi badiiy mubolag‘alar tizmasi ushbu dostonning mazmuni, uning janr belgilari, o‘ziga xos xususiyatlarining ochilishiga imkon yaratadi.

O‘zbek xalq dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, unda allegorik obrazlar ham juda mubolag‘ali tasvirlanadi. Masalan, «Shirin bilan Shakar» dostonida ajdahoning paydo bo‘lishi shunday tasvirlanadi:

*Pishqirib ajdaho damga tortadi,
Chivin ko‘lning suvini birdan yutadi.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umuman, badiiy tasvir vositalaridan eng faol usul bo‘lmish mubolag‘a, mubolag‘ali tasvir xalq og‘zaki ijodiga, xususan, eposning ijobiy va salbiy qahramonlari tasviriga xosdir. Mubolag‘a usuli dostonlarda keng o‘rin tutadi. Alpomish-Hakimbekning o‘n to‘rt botmon birinchidan qilingan yoyni dast ko‘tarib otishi, Rustamxon, Murodxonning qahramonliklari, Avazning Maqotilni o‘ldirishi, son-sanoqsiz dushmanga bas kelishi, Go‘ro‘g‘lining, ya’ni Shoqalandarning devlarga dashnom berishi, tog‘larni ham siljita olish darajasidagi qahramonliklari doston bosh qahramonlarining yengilmasligining isboti bo‘la oladi. Bu dostonlarda sinov motivi o‘ta mubolag‘a shaklida ifodalangan bo‘lib, bunda qahramonlik, mardlik, beqiyos kuch xalq orzusining umumlashma ifodasi sifatida ideallashtirilgan. Mubolag‘a usuli dostonlarning badiiy xususiyatini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

III BOB XALQ DOSTONLARINI O‘QITISHDA FAOL METODLAR

3.1 Dostonlarda badiiy tasviriyy vositalarining o‘qitishning ustuvor yo‘nalishlari

Doston – xalq og‘zaki ijodining sinkretik janri sifatida.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida doston eng yirik hajmli va keng tarqalgan janr hisoblanadi. Dostonlar xalqning badiiy shakldagi taqdirnomasi, o‘ziga xos qomusidir. Har bir xalqning insoniyat tarixidagi o‘rni, xizmati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, madaniy mavqei eposlari namoyon etadi. Xalqning komil inson, adolat, haqiqat, ozodlik, tenglik tushunchalari, falsafiy, diniy qarashlari va bu yo‘ldagi ibratli qahramonlari, ideallari, ularning kurash yo‘li dostonlar mavzuini, g‘oyaviy mazmunini tashkil etadi. Ushbu mazmun va mundarija dostonlar syujeti, motivlar tizimi, badiiy tasviriyy vosita va usullarida o‘z ifodasini topadi.

Hozirda keng omma orasida va folklorshunoslikda qo‘llanib kelayotgan «doston» so‘zi «qissa», «hikoya», «tarix»⁶, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarini anglatadi. Ammo atama sifatida folklordagi epik turga mansub, she’riy va nasriy parchalardan iborat, ma’lum bir qahramonlar hayoti, taqdirini tasvirlab beruvchi yirik hajmdagi, maxsus ijrochilar tomonidan kuylanuvchi asarga nisbatan qo‘llaniladi. Ayni paytda doston atamasiga muqobil ravishda epos termini ham ishlatiladi. Epos – yunoncha «epos» – rivoyat, hikoya, qo‘shiq so‘zidan olingan bo‘lib, badiiy adabiyotda voqea, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash ma’nosini anglatadi. Taniqli folklorshunos olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov 1947-yilda Moskvada e’lon qilingan katta hajmdagi kitobni «O‘zbek xalq qahramonlik eposi» deb nomlangan va unda, o‘zbek dostonlarining tabiati, turlari, doston ijrochilari, ijro jarayoni, yetakchi dostonchilar, dostonchilik maktablari, doston kuylash tartibi, ustoz va shogird munosabatlari, «Alpomish», Go‘ro‘g‘li turkumiga oid dostonlar, «Kuntug‘mish» kabi ishqiy-romanik dostonlar va boshqa masalalar tahlil etilgan.

Doston atamasi yozma adabiyotda ham katta hajmdagi epik asarlarga nisbatan keng istifoda etiladi. Biroq og‘zaki va yozma

⁶O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – .B. 649.

adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari, usullari, an'anaga munosabat va boshqa bir qator xossalari ko'ra jiddiy farq qiladi. V.M. Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar ta'biri bilan aytganda xalq og'zaki ijodida doston o'tmish zamonlar to'g'risida qahramonlik idealizatsiyasi ko'lamidagi hikoyalar va rivoyatlardir⁷. Professor M.Saidov ta'rificha, avvalo, og'zaki ijoddagi dostonlarda she'riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo'lishi lozim (Bu o'rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik musiqa asari bo'lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do'mbira cherta bilishi yoki qo'biz chala bilishi zarur. To'rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo'lishi va qo'shiq aytish mahoratini egallagan bo'lishi zarur⁸. Folklorshunoslarning bu fikrlari biri ikkinchisini to'ldiradi va xalq dostonlarining mazmun-mundariyasi, qurilish tartibi, ijro o'rni va boshqa jihatlarini qamraydi.

Xalq dostonlarida xalq taqdiri, tarixi, tarixiy voqelik xalqning oddiy mushohadalari asosida umumlashma obrazlarda o'z ifodasini topadi. Dostonlarda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Dostonlardagi epiklik, monumentallik xos bo'lib, syujet va kompozitsion qurilish jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqea va hodisalar mazmunan favqulodda kuch-qudratga ega bo'lgan xalq idealidagi bahodir – alp atrofiga birlashadi. Xalqning ozod va hur o'lka, komil inson haqidagi orzu- o'ylari doston g'oyasini belgilaydi.

Doston sinkritik san'at namunasi, bir kishilik o'ziga xos teatr hisoblanadi. Doston aytuvchi ayni paytda sozanda, kuylovchi, bastakor, aktyor va rejissyor. U doston ijrosi davomida barcha qahramonlar, personajlar obrazini tomoshabinga mahorat bilan yetkazib beradi. Doston ijrochisiga nisbatan baxshi atamasi qabul qilingan.

2. Xalq baxshilari, dostonchilik maktablari. «Baxshi» so'zining «O'zbek tilining izohli lug'ati»da to'rt xil ma'nosi izoh olgan: 1 – donishmand, 2 – dostonlarni kuylovchi, 3 – dam solib davolovchi tabib, 4 – Buxoro xonligida qurilish mablag'ini nazorat qiluvchi. Yuqoridagi to'rt ma'nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli. Chunki xalq orasida baxshi bo'lish uchun inson donishmand, aqlli

⁷ Жирмунский В. М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М., с. 303 .

⁸Saidov M. Doston / Muhammadnodir Saidov – ma'rifat fidoyisi. - T.: MUMTOZ Saidov M./ Muhammadnodir Saidov – ma'rifat fidoyisi. – T. : MUMTOZ SO'Z, 2009.– B.7. So'z, 2009 – .B. 7.

bo'lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta'kidlanadi. Ikkinchidan, «baxshi» xalq dostonlarining ijrochisi. Uchinchidan, ibtidoda baxshi va shomon yagona tizimda qaralgan va so'zning mo'jizaviy magik fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig' qiluvchi shaxs hisoblangan. O'zbek folklorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning malumot berishicha, baxshi mo'g'ulcha va buryatcha «baxsha», «bag'sha» so'zlaridan olingan bo'lib, «ustod», «ma'rifatchi» ma'nolarida qo'llangan. Baxshi keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqllovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkor. Doston ijrochilarini Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim hududlarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, ba'zi joylarda sozanda, Farg'ona vodiysida sannovchi, ba'zi joylarda jirov, jirchi, oqin, oxun deb ham atashagan. Yetuk baxshilar, badihago'y, epik an'ana doirasida o'zlarining yangi-yangi variantlarini, hatto yangi dostonlarni yarata bilgan ijodkorlarga nisbatan shoir nisbati ham qo'shib aytilgan. Masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po'ltan shoir, Abdulla shoir kabi.

Baxshilar o'z dostonlarini do'mbira, ayrimlari qo'biz yoki dutor jo'rligida, ichki ovozda ijro qilishgan. Xorazm baxshilari o'z dostonlarini, asosan, dutorda ijro qilishgan, ularga ijro jarayonida g'ijjak va bulomonda sozandalar jo'r bo'lishgan. XX asrning 30-yillaridan boshlab Xorazm baxshilari dostonlarni tor va rubob jo'rligida ham kuylay boshlashdi. Ayrim baxshilar o'z to'piga doirachi va o'yinchini ham olib kirishdi. Xususan Bola baxshi to'pi bunga misol bo'la oladi. Xorazm baxshilari epik asarlar yoki ularning parchalarini garmon sozi bilan ijro qilishga o'tishdi. Bunday hollarda ular sozchi deb yuritildi. Masalan: Qurbon sozchi, Qodir sozchi vaboshqalar. Sozchilar epik asarlarni to'liq ijro qilishdan ko'ra undan parchalar, termalar, o'zlari yaratgan asarlarni kuylashga alohida e'tibor berishgan⁹.

Xalq dostonlarining kuylash jarayonida, asosan, yakka ijrochilik yetakchilik qilsa-da, Xorazmda jamoaviy ijro birinchi o'ringa chiqqanligini kuzatamiz.

Xorazm hududida xalq dostonlari va ulardan saralangan parchalarni, termalarni kuylovchi ijrochilikning yana bir turi bu – xalfachilikdir. Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng urf bo'lib, ijrochilar ham ayollar hisoblanadi. Xalfa san'atining ikki turi mavjud bo'lib, jamoaviy xalfalar va yakka xalfalarga bo'lingan. Jamoaviy xalfalar uch kishidan

⁹Qarang: Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981. -B. 21-37.

iborat guruhni tashqil qilib – ustoz xalfa (garmon chalib, ashula aytgan), doirachi (ashulaga jo‘r bo‘lgan, ba‘zan raqsga tushgan) va o‘yinchi (raqsga tushgan, qayroq chalgan, yalla va lapar aytgan, ba‘zan doira chalgan)dan tashkil topgan. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova kabilar shunday xalfalardir.

Yakka xalfalar doston va qo‘shiqlarni sozsiz ijro etadi. Ular dostonlarni yoddan yoki qo‘lyozmalardan ma‘lum bir ohangda o‘qish, «Yor-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi to‘y qo‘shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozonishgan. Roziya Matniyozova, Saodat Xudoyberganova, Poshsho Saidmamat qizi, Ambarjon Ro‘zimetova, Anorjon Razzoqova kabilar yakka holda xalfachilik qilganlar.

Xalfalar ko‘proq «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «Oshiq oydin», «Aslxon», «Hurliqo va Hamro», «Qumri», «Qissayi Zebo», «Tulimbiy», «Bozirgon», «Xirmon Dali» kabi dostonlarni, Maxtumquli she‘rlarini, turli marosim qo‘shiqlari va o‘zlari yaratgan asarlarni ijro etadilar. Ular xalqning barcha to‘y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollarning yig‘inlari va bayramlarda qatnashadilar, to‘y va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik ayollar san‘ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda¹⁰.

O‘tmishda epik asarlarni xalqqa yetkazuvchilar qatorida qissaxonlar ham faoliyat yuritishgan. Qissaxonlar xalq dostonlarining qayta ishlangan nusxalarini, qiziqarli tarjima hikoyalarni, mumtoz adabiyot namunalaridan «folklorlashtirilgan» variantlarni, turli jangnomalarni o‘ziga xos ohangda o‘qiganlar, hikoya qilganlar. Qissaxonlar «Rustami Doston», «Tohir va Zuhro», «Hikoyati Go‘ro‘g‘li Sulton», «Bahrom va Gulandom» kabi dunyoviy qissalarni ijro etish bilan birga, ko‘proq diniy mazmundagi «Bobo Ravshan», «Ibrohim Adham», «Abo Muslim» kabi asarlarni o‘qishgan. Ayrim hollarda eng qobiliyatli qissaxonlarning o‘zlari qissa tuzishgan, ba‘zan yangi asarlar yaratishgan, aytilayotgan asarga ijodiy yondashishgan.

Doston kuylashning an‘anaviy tartiblari, vaqti mavjud. Odatda, dostonlar kech kuzdan erta bahorga qadar kechqurunlari ijro etilgan yoki to‘y-tantanalar baxshilar ishtirokisiz o‘tmagan. Baxshi taklif etilgan xonadonga odamlar yig‘ilib, davra qurib o‘tirishgan. Doston kuylash kichik ziyofatdan so‘ng boshlangan. Baxshi dastlab termalar kuylagan. Do‘mbira ta‘rifi va boshqa turli mavzudagi termalar tinglovchi va baxshi o‘rtasida ruhiy yaqinlik, doston kuylash uchun maxsus tayyorgarlik

¹⁰Qarang: Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981– .B.24-38.

vazifasini ham bajargan. Baxshi ma'lum muddat termalar aytib, tinglovchilar xohishini bilish maqsadida «Nima aytay?» («Doston terish») termasini kuylagan. Tinglovchilar ma'lum bir dostonni tanlashgan. Baxshi ularning istagiga ko'ra so'ralgan dostonni ijro etgan. O'zbek xalq dostonlarining ko'pchiligi bir kun kuylashga mo'ljallangan, ammo «Alpomish»ga o'xshash asarlar bir necha kunlab kuylangan. Doston voqealarining qancha cho'zilishi tinglovchilarning xohishi, dostonni tinglash kayfiyatiga va baxshining badihago'yligiga bog'liq. Birgina dostonning bir hafta yoki bir oy davomida uzluksiz ijro etilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan: XVIII asrning ikkinchi yarmida yashagan Amin baxshi «Alpomish» dostonini tinglovchilarni zeriktirmay uch oy kuylagani naql qilinadi. XIX asrda yashagan Jumanbulbul «Ravshan» dostonini ikki hafta davomida kuylagani el orasida og'izdan og'izga o'tib kelgan. Baxshilar ijro davomida dostonning har bir tasviriga mos so'z va kuy topib avjga chiqa boradi, ularning o'zlarining ta'biri bilan aytganda, «qaynaydi». Baxshi kuylash davomida tinglovchi auditoriyasini ohangi, kuyi, doston voqealari tasviri bilan butunlay sehlrab qo'yish holatlari ko'p kuzatilgan. Bunday ajib xil alolo holatlarida kuylovchi, tinglovchilar bir butun «vujud»ga aylanganlar. Xorazm ekspeditsiyasida folklorshunoslar 300 kishidan ortiq davrada doston kuylagan Ahmad baxshining ijro davomida ilhomlanib, o'rnidan turganligini, boshqa ijrochilar ham, dostonni sel bo'lib tinglab o'tirgan tinglovchilarning ham gur etib o'rnidan turishganlarini kuzatishgan. Bu xil holatlar baxshi ijrosida ko'p bor kuzatilgan.

Doston kuylash eng avj nuqtaga yetganida, vaqt yarim tundan oshgan paytda baxshi dam olish uchun tanaffus qilgan. Bu choqda baxshi eshituvchilarga yoki o'z do'mbirasiga murojaat qilib, bir nechta qistirma misralar to'qib, ijroni to'xtatgan:

*Seni uydan olib chiqdim bo'ktarib.
Sen yuribsan ulfatingni axtarib,
Men qo'yayin seni endi to'ntarib.
Yarim kecha haddi bo'ldi, jonivor.
Yig'ib opsan ulfatingning jamini,
Egang olsin-da bir oz damini,
Damin olib aytib berar kamini,
Ro'mol yozar vaqti bo'ldi, jonivor...*

Shundan keyin baxshi choponini, belbog'ini va do'mbirani to'ng'arilgan holda qoldirib, dalaga (tashqariga) chiqib ketadi. Bu payt davradagilardan biri baxshi belbog'ini o'rta yoyadi. Bu odat «ro'mol yozmoq» deyilgan. Unga har kim o'z imkoniyatiga yarasha pul yoki biror narsa tashlagan. Baxshi qaytib xonaga kirguncha, yig'ilgan pul va narsalar belboqqa tugib qo'yiladi. So'ng dostonning qolgan qismini kuylash davom ettirilgan.

Yetakchi xalq shoirlari bo'lajak baxshini yetishtirishga, shogird tayyorlashga alohida e'tibor berganlar, chunki og'zaki yaratilib, og'zaki kuylanib kelingan dostonlarni avloddan-avlodga faqat shu yo'l bilan yetkazish mumkin edi. Biroq o'tmishda baxshilar orasida dostonchilik san'atini «sirli» hodisa sifatida tushuntirish, muayyan ustozdan o'tganligini yashirish, professional ta'lim usullarini inkor etish hollari keng tarqalgan ediki, ular o'zlaridagi ijodiy qudratni g'ayritabiiy kuchlarning da'vati bilan birdaniga, to'satdan paydo bo'lgan qobiliyat, ilgaridan tayyorgarligi, shoirlik salohiyati bo'lmagan kishilarda muayyan sharoitlarda «g'oyibdan chaqiriq» tufayli bexosdan yuzaga kelgan ehson tarzida izohlash holatlariga tez-tez duch kelinadi. O'zbek baxshilari orasida Ko'r G'oyib, Oshiq Oydin, Ovul patta kabi baxshilikning pirlari tilga olinadi va ularning ba'zilar haqida maxsus dostonlar ham mavjud. Baxshilar afsonaviy Murodbaxsh g'orini baxshilik san'atini o'rganuvchi ilohiy makon sifatida talqin etishadi. Murodbaxsh g'ori turli hududlarda turli manzillarda deb ko'rsatiladi. Masalan, Shahrizabzliklar Kenggo'zar, Nurota hududida Kanda, Chashmai Zirak kabi tog' qishloqlarida, deydilar. Bu holat xalq orasida so'z san'ati va baxshilikni ilohiy ne'mat sifatida anglash natijasidir.

Baxshilikni o'rganish og'zaki ravishda amalga oshadi. Xalq dostonlarini eshitish va kuylashga kirishish ta'limning eng birinchi va asosiy shartidir. Dastlab termalar, dostonlardagi an'anaviy misralar («Xazon urmay bog'da gullar so'ldimi, So'lgan gulga bulbul kelib qo'ndimi», «Yana bahor bo'lsa ochilar gullar, Gulni ko'rsa mast bo'p sayrar bulbullar», «Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi, Botirni ingratar nayza yarasi» kabi), umumiy o'rinlar (epik klishelar), ya'ni ba'zi bir juz'iy o'zgarishlar bilan ko'pchilik dostonlarda takrorlanadigan parchalar (qahramonga nasihat, uni kuzatuv, qahramonlarning uchrashuvlaridagi savol-javoblari, qahramonlarning portretlari, otni egarlash, ot ta'rifi, otda safar, jang tasviri, boshlanma, tugallanma, voqealarni bir-biriga bog'lovchi tasvirlar kabi) yodlatilgan. So'ng ayrim

olingan bir doston, keyinroq esa, ustoz repertuaridagi barcha asarlar o'rgatilgan. Ustoz shogirdning badihago'ylik qobiliyatini, ya'ni yodlab olingan an'anaviy misralar, epik klishelar asosida yangilarini to'qiy olish salohiyatini, ularni tasvir vaziyatiga qarab turli xil stilistik o'zgarishlar bilan qo'llay bilish san'atini o'stirishga alohida e'tibor beradi.

O'rgatishning keyingi bosqichlarida ustoz shogirdni o'zi bilan birga dostonchilik yig'inlariga, to'y-hashamlarga olib yuradi. Bunday paytlarda shogird ko'pchilik oldida termalar, dostonlardan parchalar kuylaydi. Shogird ancha «pishib» qolgach, ustoz o'zi kuylayotgan dostonning davomini unga aytiradi yoki bir dostonni ustoz va shogird galma-gal kuylaydilar. Bunday hollarda ustoz tomoshabinlar reaksiyasini hisobga olib, uni shogirdiga uqtira boradi. Shu tariqa o'rgatish va o'rganish ishlari bir necha yil davom etadi. Ustoz shogirdi yetilganligini bilib unga el orasida fотиha bergan va shogird baxshi sifatida mustaqil kuylash huquqiga ega bo'lgan.

O'zbek dostonchiligida doston kuylash an'anasi qadimda uch yo'nalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqay dostonchilik maktablarida do'mbira chertib yakka holda, bo'g'iz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, g'ijjak, garmon, bulomon, qo'shnay, doira jo'rligida ba'zan yakka, ba'zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Farg'ona vodiysida dutor jo'rligida ochiq ovozda aytilgan.

Baxshilar o'ziga xos poetik yo'l, uslub, repertuar xarakteri, ijro usullari bilan bir-birlaridan farqlanadilar. Umumlashgan puxta epik an'ana doirasida ma'lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo'llar, uslublar o'zgachaligi, ustoz-shogird munosabatlari mavjud. Bunday farqlarni ko'rsatish uchun Hodi Zarif folklorshunoslikda dostonchilik (baxshilik) maktablari ter-minini qo'llagan. O'zbekistonning ko'pgina yerlarida bir qancha dostonchilik maktablari – baxshilik san'atining ajoyib markazlari mavjud¹¹. Bu maktablar Qo'rg'on, Bulung'ur, Nurota, Shahrisabz, Narpay, Sherobod, Qamay, Piskent kabi yetakchi baxshilar yetishib chiqqan joylar nomlari bilan ataladi. Aslida atamalar nihoyatda shartli bo'lib, shunday

¹¹ *Qarang:* Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981. -B.24-38. Murodov M. O'zbek baxshilari poetik maktablarni.«Adabny meros».Toshkent, 1976, 4-son, 87–92-betlar.

maktablar vakillari yetishib chiqqan va ular dostonchilik qilib yurgan hudud juda ham kengdir.

Bulung'ur dostonchilik maktabi vakillari qahramonlik dostonlarini ijro etish bilan mashhur bo'lganlar. Sodda, yuksak, o'ta an'anaviy, nisbatan arxaik bo'lgan qahramonlik eposi uslubi bu dostonchilarning poetik yo'li hisoblangan. Fozil Yo'ldosh o'g'li Bulung'ur dostonchilik maktabining vakili hisoblanadi. Undan «Alpomish», «Yodgor», «Yusuf bilan Ahmad», «Malika ayyor», «Mashriqo», «Zulfizar», «Balogardon», «Avazxonning o'linga hukm etilishi», «Intizor», «Nurali», «Jahongir», «Murodxon», «Rustam», «Shirin bilan Shakar», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Ra'no bilan Suxangul», «Zevaxon» kabi dostonlar yozib olingan. XVIII–XX asrlarda yashagan Amin baxshi, Muhammad shoir, Chini shoir, Tovbo'zar shoir, Qurbonbek shoir, Sultonmurod, Yo'ldoshbulbul, Yo'ldosh Mulla Murod o'g'li, Yo'ldosh Mulla Murod o'g'li, Suyar Mulla Murod o'g'li, Rahimbulbul, Jo'ra shoir, Do'styor Ho'jayor o'g'li, Xo'janazar baxshi, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Yorlaqab Beknazar o'g'li kabi o'nlab dostonchilarni birlashtirgan bu maktab vakillari Bulung'ur, Jomboy, Poyariq, G'allaorol, Zomin, Jizzax atroflarida dostonchilik qilib yurganlar.

Epik san'atning ikkinchi bir muhim markazi Qo'rg'on dostonchilik maktabi bo'lib, bu dostonchilik maktabining Ergash Jumanbulbul o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Egamberdi Allamurot o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li kabi vakillaridan «Alpomish», «Yakka Ahmad», «Oysuluv», «Kuntug'mish», «Qironxon», «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek». «Ernazar», «Go'ro'g'lining tug'ilishi», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari», «Xushkeldi», «Hasanxon», «Chambil qamali», «Dalli», «Ravshan», «Avazxon», «Qunduz bilan Yulduz», «Bo'tako'z», «Xoldorxon», «Xilomon», «Berdiyot otaliq», «Zamonbek», «Xidirali elbegi» kabi ko'plab dostonlar yozib olindi. Mangishtovdan Nurotaga qadar cho'zilgan silsila tog'larning, ayniqsa, Oqtovning shimoliy va janubiy etaklarida, hatto Miyonkolga qadar cho'zilgan keng masofada yashagan xalq shoirlari Qo'rg'on dostonchilik maktabiga mansubdirlar. Bu yerlarda yetishgan baxshilarning ko'pchiligi Qo'rg'on qishlog'ida tarbiya topgan va haqli ravishda o'z ustozlarini shu ajoyib shoirlar qishlog'i bilan bog'laydilar. XIX asrning o'rtalarida Qo'rg'on qishlog'ida yashagan yetti oilada yigirmadan ortiq baxshi bo'lgan. Ergash shoir otasi Jumanbulbulning shogirdi bo'lgan. Jumanbulbulning ustози Bo'ron shoir (Kichik Bo'ron)

bo'lib, uning ustози Bo'ron baxshi (Katta Bo'ron)dir. Po'ltan shoir Jossoqning o'n ikkinchi shogirdi bo'lib, Jossoqning ustози Mulla Abduqodirdir. Mulla Abduqodirga otasi Bo'ron baxshi (Katta Bo'ron) ustozlik qilgan. Katta Bo'ronning akasi Jolmon baxshi ham XVIII asrning dongdor kuychilaridan bo'lgan. Og'zaki ma'lumotlarga qaraganda, Qo'rg'on dostonchilik maktabining asoslarini Ergash Jumanbulbul o'g'lining ota-bobolari qurganligi taxmin qilinadi va u XVII–XX asrlarda yashagan Yodgor Usta Ko'lay o'g'li, Usta Lafas Yodgor o'g'li, Tilla kampir, Mulla Tosh Usta Lafas o'g'li, Mulla Xolmurod Mulla Tosh o'g'li, Jolmon baxshi, Bo'ron baxshi (Katta Bo'ron), Mulla Abduqodir Bo'ron baxshi o'g'li, Bo'ron shoir (Kichik Bo'ron), Sulton kampir, Qulsamad baxshi Sulton kampir o'g'li, Xudoynazar qassob, Jossoq Mulla Xolmurod o'g'li, Yorlaqab Mulla Xolmurod o'g'li, Jumanbulbul Mulla Xolmurod o'g'li, Bolta Qulsamad o'g'li, Quvondiq Qulsamad o'g'li, O'tagan Qulsamad o'g'li, Berdiqu (Qupbaqa baxshi). Rasul baxshi, Safarqul baxshi, Qultoy baxshi, Chuvoq baxshi, To'xtamish baxshi, Ortiq baxshi, Ollomurod shoir, Darvish baxshi, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Abduxalil Jumanbulbul o'g'li, Sarimsoq baxshi, Jolg'osh Jossoq o'g'li, Yo'ldosh Jossoq o'g'li, Qo'ldosh Jossoq o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Bo'ta baxshi Ortiq o'g'li, Egamberdi Ollomurod o'g'li, Usta Xolqul, Abdumurod Berdixol o'g'li, Abdulla baxshi, Qurbonqul Jolg'osh o'g'li, Mardi Jiyan o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li kabi ko'plab baxshilarni birlashtiradi. Bu baxshilar, asosan, ishqiy - romanik dostonlarga ko'proq e'tibor berganlar. O'ziga xos chuqur lirizm, chiroyli tasvirlar, she'riy bezaklar, tafsilotlarni atroflicha ishlash, noziklik va jimjimadorlik Qo'rg'on dostonchilik maktabi uslubining asosiy belgilaridir. Bu hol uning vakillari kuylagan asarlarda yozma va og'zaki adabiyot an'analari o'ziga xos ravishda omuxta bo'lib ketganligini ko'rsatadi. Qo'rg'on dostonchilik maktabi vakillari poetik formalar va ifodalar taraqqiyotida ancha olg'a ketishganligini folklorshunoslar alohida ta'kidlashadi.

Doston ijrosida Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona vodiysidagi dostonchilik maktablari ham o'z repertuariga, mashhur baxshi shoirlariga ega bo'lishgan. Bugungi kunga kelib faqat Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridagi bir qator dostonchilik maktablari o'z an'analarni davom ettirmoqda hamda o'zbek eposining jonli ijroda yashash holatini saqlab kelishmoqda.

3. Dostonlarning tasnifi.

O'zbek xalq dostonlari nafaqat son jihatidan, balki mavzu va ma'no qamroviga ko'ra ham rang-barangdir. Uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan o'tib kelgan dostonlarda qahramonlik, sevgi-muhabbat, jang-sarguzasht, lavhalari kuylanadi. Ammo asarning umumiy mazmuni zaminida muayyan mavzu yetakchi hisoblanadi. Muayyan motivlar, syujetlarda umumiyliklar bo'lsa-da asarning bosh g'oyasi talqinlarga ko'ra ular o'rtasida farq aniq namoyon bo'ladi. Masalan, «Alpomish» va «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra» dostonlari syujeti bir tipga kirsa-da ular syujet talqiniga ko'ra turli tasniflar qamrovida baholanadi. «Alpomish» qahramonlik dostoni sifatida qaralsa, «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra» romanik doston namunalari hisoblanadi.

Epos namunalarining tahlili, avvalo, mavjud materialni tasnif etishdan boshlanadi. O'zbek folklorshunosligida xalq baxshilarining epik repertuari bir qator olimlar tomonidan tasnif etilgan. Bu tasniflarda o'zaro yaqinlik bo'lsa-da ma'lum o'rinlarda farq ham mavjud. Xalq dostonlarini dastlab tasnif etish V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarga tegishli bo'lib olimlar o'zbek xalq eposini quyidagicha guruhlariga ajratib tahlil etadilar: 1. Qahramonlik eposi. 2. Jangnoma dostonlar. 3. Tarixiy mazmundagi dostonlar. 4. Romanik dostonlar. 5. Adabiy manbaga ega bo'lgan dostonlar. 6. Yangi dostonlar¹².

M.S.Saidov dostonlarni qahramonlik, sof muhabbatni kuylovchi, romanik, jangnoma va tarixiy kabi turlarga ajratgan.¹³ Olim epik materiallarni manbalariga ko'ra: a) og'zaki an'ana orqali yetib kelgan; b) kitobiy manbalar orqali yetib kelgan dostonlarga ajratadi. Shuningdek, xalq dostonlarini syujet voqealarining xarakteriga ko'ra an'anaviy va zamonaviy namunalarga bo'lib ko'rsatadiki, bu qarashlari hozir ham eposshunoslik taraqqiyoti tadqiqida o'z ahamiyatiga ega. Folklorshunos T. Mirzayev o'zining «O'zbek folklorining epik janrlari» kitobida¹⁴ xalq dostonlarini tasnif etishda V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifovlarning ilmiy tasniflarini yanada aniqlashtiradi.

B.I.Sarimsoqov xalq dostonlarini tarixiylik nuqtai nazaridan: qahramonlik, romanik, tarixiy kabi uch turga bo'ladi. Uning tasnifida

¹²Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. O'sha asar – .B.61-301.

¹³Saidov M.S. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. Toshkent, 1969, 30-32-bet.

¹⁴O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1980.-B.203-206; Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981- .B.65-75.

jangnoma va kitobiy dostonlar romanik dostonlarning ichki ko‘rinishi sifatida qaraladi¹⁵.

O‘zbek xalq dostonlarini eposning tarixiylik prinsiplari, voqelikni aks ettirish tarziga ko‘ra qahramonlik, romanik, tarixiy kabi turlarga ajratish va ularni o‘z ichida kitobiy, jangnoma hamda boshqa ichki guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq.

4. Xalq dostonlarida turkumlik. Ma’lum bir epik qahramon, uning avlodlar va safdoshlari hayotidan hikoya qiluvchi dostonlar silsilasi turkumlikni tashkil etadi. Turkumlikka kiruvchi dostonlar bir-birining izchil davomi bo‘lmay, har biri alohida-alohida voqealar asosiga qurilishi ham mumkin. Bu o‘rinda epik qahramonlar, epik makon va zamon umumiylikiga amal qilinadi. Folklorshunoslar turkumlikka ega dostonlarni mazmuniga ko‘ra biografik, nasliy va geografik kabi turkumlarga ajratib o‘rganishadi.

O‘zbek xalqi epik ijodida Go‘ro‘g‘li va uning asrandi o‘g‘illari, safdoshlari hayotidan hikoya etuvchi dostonlar majmuasi alohida o‘rin tutadi. «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi dostonlarda Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, bolaligi, uylanishi, Avazxon va Hasanxonlarni asrab olishi, Avazxon, Hasanxon, ularning o‘g‘illari – Ravshan, Nurali, Sherali, keyingi avlod – Jahongirlarning hayotidan tortib, bosh qahramonning bir yuz yigirma yoshida g‘orga kirib g‘oyib bo‘lib ketgungacha bo‘lgan voqealar aks etadi. «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi har bir doston o‘zicha mustaqil xarakterga ega va ularning har biri el orasida alohida-alohida kuylanib kelingan. «Go‘ro‘g‘li» turkumi tarkibi g‘oyatda murakkab, kuylanish va ijro sharoitlarida o‘zaro mustaqil va har biri alohida yagona syujetga ega bo‘lgan bu silsila dostonlar Go‘ro‘g‘li va G‘irot obrazlari, Chambil mamlakati kabi asosiy nuqtalarda, shuningdek, qirq yigit, Soqibulbul, Hasanxon, Ahmad sardor singari an’anaviy obrazlar, ularning g‘ayriqutblari tasviri orqali bir-birlari bilan birlashsalar-da, bosh qahramonning muntazam epik biografiyasi emas, balki uning dovuqli afsonaviy hayotining ko‘pdan-ko‘p epizodlari tasvirlaridan iborat. «Go‘ro‘g‘li» dostonlari o‘tgan asrning boshlaridan turli yillarda, turli baxshilar tomonidan yozib olingan. «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi», «Go‘ro‘g‘lining bolaligi», «Zaydinoy», «Yunus pari», «Misqol pari», «Gulnor pari» dostonlari atoqli baxshi Po‘lkan shoirdan ketma-ket yozib olingan bo‘lsa, taniqli shoir-qissaxon Rahmatulla Yusuf

¹⁵Sarimsoqov B. Xalq dostonlarining tasnifi va oraliq shakllar masalasi“ // O‘zbek tili va adbiyoti.3№ ,”

o'g'li yigirma turkumning yigirma uch dostonini (yozilmaganlari bilan birgalikda o'ttiz dostonning) o'zicha ketma-ketligini belgilab, to'rt jild qilib, Folklor arxiviga topshirgan. Turkum dostonlarining soni haqida ham baxshilar o'rtasida har xil fikrlar mavjud. Ularning ko'pchiligi «Go'ro'g'li qirq dostondir», – deydilar. Nurotalik Bekmurod Jo'raboy o'g'lining «Avazning arazi» dostonida kuylashicha, uning ustozlari Go'ro'g'lini «Oltmish to'rt doston qip ta'rif etgan». Janubiy Tojikistondagi o'zbek baxshilarining (soqilarining) naql qilishicha, XIX asrda yashagan mashhur dostonchi Qunduz soqi Go'ro'g'lini bir yuz yigirma shoxa (doston) qilib aytar ekan. Shunda ham Go'ro'g'li o'lganda, Yunus pari: «Bedoston o'tgan, to'ram», – deya yig'i bergan ekan. Folklorshunoslikda esa «Go'ro'g'li» turkumi qirq dostondan iboratdir, degan fikr qat'iylashgan. Keyingi kuzatishlar turkumga kiruvchi dostonlar soni yetmishdan oshishini ma'lum etdi. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari hozirgi o'rganilish holatida quyidagilardan iborat: 1. Go'ro'g'lining tug'ilishi. 2. Go'ro'g'lining bolaligi. 3. Zaydinoy (Zulxumor, Go'ro'g'lining Rayhon arab qizini olib qochib kelishi). 4. Chortoqli Chambil. 5. Yunus pari. 6. Misqol pari. 7. Gulnor pari. 8. Qirq yigit bilan qirq qiz. 9. Soqibulbul. 10. Hasan ko'lbar. 11. Doniyorxo'ja – yozib olinmagan. 12. Shodmonbek – yozib olinmagan. 13. Berdiyor otaliq. 14. Xidirali elbegi. 15. Zamonbek. 16. Hilomon (Elomon). 17. Xoldorxon (Go'ro'g'lining Qiringa borishi). 18. Shohdorxon. 19. Shoqalandar. 20. Xushkeldi. 21. Rayhon arab. 22. Bektosh arab – yozib olinmagan. 23. Govdarozi dev. 24. Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi. 25. Ro'zaxon. 26. Yosqila. 27. Ahmad sardor va Hasan shoh – yozib olinmagan. 28. Ahmad sardor va Avazxon – yozib olinmagan. 29. Ahmad sardorning suyagi – yozib olinmagan. 30. Ahmad sardorning o'linga buyurilishi. 31. Hasanxon (Go'ro'g'libekning Hasanxonni olib kelishi). 32. Chambil qamali. 33. Dalli. 34. Avazxon (Go'ro'g'libekning Avazxonni olib kelishi). 35. Gulqizoy. 36. Gulqizoyning vafoti. 37. Intizor. 38. Malika ayyor (Gulshanbog', Tarkibadaxshon). 39. Mashriqo. 40. Zulfizar. 41. Xoldor buvish – yozib olinmagan. 42. Oydinoy – yozib olinmagan. 43. Bo'tako'z (Oqbilak oyim yoki Oqchishboyning qizi). 44. Qunduz bilan Yulduz. 45. Balogardon. 46. Avazxonning arazi (Avazxonning dor ostidan qutqarilishi). 47. Avaz o'g'lonning Rurga qochishi. 48. Avazxonning o'linga hukm etilishi. 49. Sarvinoz. 50. Girdob. 51. Xonimoy. 52. Oyto'ra va Mastura. 53. Avaz va Gulton. 54. Oltin qovoq. 55. Zayidqul (Sakson nor). 56. Gulixiromon. 57. Zarnigor. 58. Avaz va Oyzaynab. 59.

G'irotning o'g'irlanishi (Misqol pari va Avazxon) – yozib olinmagan. 60. Og'a Yunusning olib qochilishi. 61. Ravshan. 62. Nurali. 63. Nuralining yoshligi. 64. Sumbulsoch beka. 65. Balxuvon. 66. Jorxon maston. 67. Nurali va Qari Ahmad. 68. Nuralining yutilishi. 69. Malla savdogar. 70. Nurali va semurg'. 71. Sherali. 72. Sheralining uylanishi (Oynigor). 73. Jahongir. 74. Jahongirning yoshligi (Shahidlar darasi). 75. Ero'g'li (Shahidnoma, Go'ro'g'lining o'limi, Go'ro'g'lining g'oyib bo'lishi). Hozirgacha yozib olinmagan va bugungi kunda unutilib ketgan sakkiz dostonni («Doniyorxo'ja», «Shodmonbek», «Bektosh arab», «Ahmad sardor va Hasanxon», «Ahmad sardor va Avaz», «Xoldor buvish», «Oydinoy», «G'irotning o'g'irlanishi» kabilarni) ushbu ro'yxatga kiritilsa turkum dostonlarining soni saksondan oshadi¹⁶.

«Go'ro'g'li» dostonlarining bu xil turkumlikdan iborat ekanligi dunyo epik merosida noyob hodisa sifatida baholanadi va o'zbek xalqining poetik iqtidori, yaratuvchanlik quvvatining naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Hozirda butun dunyoda barcha sohalarda tizimli tahlilga qiziqish g'oyat kuchayib bormoqda. Aslini olganda bu holat kecha yoki bugun yuzaga kelgani yo'q. Yaqin yuz yildirki, barcha sohalarda bo'lgani kabi, san'at va falsafada ham tizimli tahlil, tizimli yondashuv masalalari dolzarblashib bormoqda. Buning yaqqol misoli sifatida semiotika, strukturalizm, poststrukturalizm oqimlarining jahon falsafasi va san'atshunosligida etakchi oqimlarga aylanganini aytish mumkin. XX asr boshlaridayoq ushbu soha diqqat markaziga chiqib ulgurgan bo'lsa-da, 70-yillarda ham mutaxassislar tizimli yondashuvni endi shakllanib kelayotgan soha deb qaraydilar: “Tizimli tahlil fanda qaror topgan emas, qaror topib borayotgan yo'nalishdir”. Tizimli tahlil usuli haligacha o'z vazifasini bajarib tarix sahnasidan tushib ketgani yo'q. Mohiyatan olib qaraganda, tizimli yondashuvning ildizlari so'nggi yuz yillikdan nariga, bir necha asrlik falsafiy bilimlarga borib taqaladi. Biroq u so'nggi yuz yildagina alohida metodologik tizim ko'rinishida kishilar ongida muqimlashib ulgurdi. Endilikda faoliyatning tizimli tahlil qo'llanilmayotgan biror sohasini topish qiyin. “Bugungi kunda tizimli yondashuv, garchi turli sohalarda o'zini turlicha namoyon qilsa ham, barcha sohalarda qo'llanadi. Misol uchun texnik fanlarda – tizimli texnika, menejmentda – boshqaruv tizimlari, biologiyada – biotizimlar va ularning tuzilmali pog'onalari, sotsiologiyada – tuzilmaviy-

¹⁶Qarang: Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981. -B.65-90.

funktsional yondashuvning imkoniyatlari, tibbiyotda – murakkab kasalliklarni (kollagenozlar, tizimli vaskulitlar va hokazo) keng profilli terapevtlar (tizimli shifokorlar) tomonidan tizimli davolash to‘g‘risida gap ketadi ” Tizimli tahlil asosida ish ko‘rish masalasi gumanitar fanlar sohasida ham dolzarblashib bormoqda. Zotan, professor H.Boltaboev ta’kidlaganidek, “Gumanitar fanlar tizimida tizimli tahlil tamoyillarini o‘rganish asosida murakkab amaliyot jarayonida qaror qabul qilish, qaror qabul qilingunga qadar falsafiy tushuncha va filologik kategoriyalar asosida tizimli tahlilga kirishish muhim ahamiyat kasb etadi”

Shuningdek, olimning “filologik ta’limda tizimli tahlilga kirishish tilshunoslik, adabiyotshunoslik va folklorshunoslikning dolzarb masalalarini o‘rganish, murakkab tahliliy jarayonda aniq ilmiy xulosalarga kelishga yordam beradi” degan fikriga ham qo‘shilish mumkin.

Gap tizimli tahlil masalasi haqida ketar ekan, bir narsani yoddan chiqarmaslik zarur. Tizimli tahlil, shuningdek, “tizim” tushunchasi har bir sohaning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib talqin etilishi ham bor gap. Bu borada rus olimi A.I.Rakitovning mulohazalari o‘rinli: “Muayyann shart -sharoitlarda inson, ijtimoiy guruh yoki butun boshli jamiyat hayot faoliyati yoki ko‘zlagan maqsadlariga etishi uchun muhim voqea-hodisa va jarayonlar tizim deb qaraladi. “Tizim” tushunchasi, boshqa ko‘plab bazaviy tushunchalar kabi, g‘oyat murakkabdir. Uni har qaysi inson, zamonaviy menedjer va tahlilchilar faoliyatida to‘qnash kelishi mumkin barcha butunliklarga tatbiq etsa bo‘ladigan tarzda aniq qilib ta’riflash imkondan tashqarida”

Shunga ko‘ra adabiyotshunoslikda tizimli tahlilning qo‘llanishida, albatta, sohaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqiladi.

Tizimli tahlil deganda murakkab tarkiblangan obyektlarni o‘rganish uchun qo‘llanuvchi metod va vositalar majmui tushuniladi. Ya’ni, boshqacha aytganda, tizimli tahlil alohida metod emas, balki tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda tanlangan metodlar yordamida obyektни atroflicha va chuqur bilishga qaratilgan amaldir. O‘z navbatida, tizimli tahlil tushunchasi tizimli yondashuv va struktur tahlil tushunchalari bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, birinchidan, sistem tahlil obyektga sistem yondashuvni taqozo etadi, ikkinchidan esa, sistemaning butunlik sifatidagi mohiyati struktur tahlil orqali to‘liq namoyon bo‘ladi.

Adabiyotni sistema sifatida tushunish ildizlari qadimiyatga borib taqalsa-da, bu qarashni nosbatan tugal holda ilk bor nemis faylasufi

Gegel ifoda etgan. Bu o'rinda biz olim san'at haqida aytgan fikrni nazarda tutmoqdamiz. Uningcha, "san'at" tushunchasi 1) odatiy mavjudlik bo'lmish asar, 2) uning yaratuvchisi bo'lmish subyekt hamda 3) o'sha asarni qabul qiladigan va uning qarshisida tiz cho'kadigan subyektlardan tarkib topadi. Shundan kelib chiqilsa, san'atning bir turi o'laroq adabiyot tizim sifatida "yozuvchi – adabiy asar – o'quvchi" uchligidan tarkib topadi. Keyingi davrlarda olimlar tomonidan bu silsilaga "reallik" va "an'ana" bndlari ham qo'shildiki, bu bilan tizim yanada tugal ko'rinish oldi.

Keltirganimiz "adabiyot" degan tizimning har bir unsuri ham "kichik tizim" (podsistema) bo'lib, ular ham sistem yondashuvni taqozo etadi. Shu bilan birga, bu "kichik tizim"lar ham alohida tizim sifatida, ham tizim el ementi sifatida ko'rilishi mumkin. Jumladan, "adabiyot" nomli tizimida markaziy o'rin tutuvchi "folklor asar" ham. Hayotda biz bilgan san'atkor bilan ijod onlaridagi san'atkor orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmaydi: real san'atkor bilan asarda aks etgan muallif obrazi (yoki lirik qahramon) bitta emas. Ikkinchidan, ijod onlaridagi ijodiy-ruhiy holat betakror bo'lib, bitta daryoga ikki bora sho'ng'ib bo'lmaganidek, san'atkorning xuddi shu ijodiy-ruhiy holatga qayta tushishi mumkin emas. Demak, o'zida muayyan ijodiyruhiy holatni aks ettirgan badiiy asar ham betakror (fenomenal) hodisa sanaladi.

Shunga ko'ra, badiiy asardagi har bir unsur o'sha ijodiy-ruhiy holat mahsuli, asarda bironta ham ortiqcha unsur mavjud emas. Zero, asardagi barcha unsurlar, hatto, bizning nazdimizda ortiqchadek tuyulganlari ham, muallifning ijod onlaridagi ruhiy holatini, demakki, asarning mazmun mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Anglashiladiki, folklore asari - butunlik, bu butunlikdagi biror bir unurni asar mazmun-mohiyatga putur yetkazmagan holda olib tashlash mumkin emas.

Sababi, folklor asarni tashkil qilayotgan unsurlarning bari bir -biri bilan mustahkam aloqada, ayni shu aloqalar asosida butunlik yuzaga keladi, ya'ni, folklor asar - qismlardan tashkil topayotgan butunlik, sistem butunlikdir.

Badiiy asar - sistem butunlik, sistema deganda esa qismlardan tarkib topgan butunlik tushuniladi. Bu monolit emas, lekin qismlar orasidagi aloqa shu qadar muhimki, bu aloqalarning yetarlicha anglanmasligi asarni chala, o'z mohiyatidan o'zgacha tushunishga olib kelishi mumkin. Butunga kiritilayotgan qism butun talabiga mos holda kiritiladi, demak, qismlar orqali butun tushuniladi, qismning mohiyati butun tarkibidagina namoyon bo'ladi. Demak, dostonni o'qiyotgan odam, birinchidan,

asardagi har bir qismni boshqa qismlar bilan aloqada, ikkinchidan, asarni butun holicha tasavvur eta bilmog'i lozim. Deylik, katta hajmli dostonning boshlanish qismidagi konkret unsur uning oxiridagi boshqa bir unsur bilan mazmuniy aloqaga kirishishi mumkin, lekin bu aloqa bevosita emas, ya'ni, baxshichilar bu aloqaga hech qanday ishora qilgan emas. Biroq ularning har ikkisi butunning qismi bo'lgani uchun ham butunning mazmun mohiyatini ochishda bu aloqa muhimdir. Elektr manbaiga ulangan ikkita simning uchi birbiriga tegizilganda uchqun chiqqanidek, ongimizda o'sha ikki qismni bir-biriga to'qnashtirganimizdagina uchqun chiqadi - mazmunning yangi bir qirrasi kashf etiladi. O'qishning ijodiy jarayon deb atalishi ham aslida shundan, ya'ni, doston qismlarini o'zaro bog'lagan holda yaxlit butunlikni hosil qilishning o'zi ijoddir. Konkret asarning turli o'quvchilar tomonidan turlicha tushunilishining boisi ham bir tomoni shunda - qismlar orasidagi ko'rinmas aloqalarni tiklay olish imkoniyati barcha o'quvchilarda ham birdek emas. Bu o'rinda masalaning yana bir muhim jihati mavjud: sistem butunlik, birinchi galda, obyekt (badiiy voqelik) va **subyekt** (ijodkor) birligini taqozo qiladi. Shunday ekan, badiiy asarga ijodiy yondashuv o'quvchi o'qish jarayonida ijodkor subyektining o'rnini egallab, uning ijod onlaridagi betakror ijodiy-ruhiy holatiga kira olsagina mavjuddir. Bunda o'quvchiga ijodiy jarayonning modeli bo'lmish dostoning o'zigina yordam berishi mumkin. Doston(sistem butunlik)ni tushunishning ko'pchilik e'tirof etgan qoidasi esa oddiygina: butunni qism, ya'ni badiiy tasviriy vositalari qismni butun orqali tushuniladi. Baski, konkret dostonstrukturasini - butunlikning tashkillanishi, uni tashkil etayotgan unsurlarning o'zaro aloqalari, ularning qay yo'sin butunlik hosil qilishini - yorqin tasavvur etmasdan turib uning mazmun-mohiyatini anglash mahol. Hatto, kezi kelganda bittagina unurning e'tibordan chetda qolishi ham butunning mazmun-mohiyatini o'zgartirib yuborishi mumkin. Zero, struktura mazmunning mantiqiy tashkillanishidirki, o'sha mantiqni ya'ni tasviriy vositalarni o'zlashtirmasdan turib badiiy asardagi mazmun jilolarini ilg'ash dushvordir.

Adabiy asarni immanent tekshirish uni alohida tizim sifatida olgan holda ichki aloqalarini o'rganishni taqozo etadi. Shu maqsad bilan Sh.Rahmonning quyidagi she'rini olamiz:

*Ko'zingizni oching, qo'rqmang,
Ziyodan qamashsin, og'risin, mayli.
Mayliga yashamak bo'lsin qiyinroq,*

*Ochiqligi tufayli...
Lazzat bor har qanday og‘riqda,
Kechalar og‘riqdan ingrab yotaman
Va o‘sha og‘riqni beg‘am, bo‘g‘riqqan,
Og‘riqsiz yuzlarga otaman...
Izg‘iringa yuring, oching ko‘krakni,
Yiqiling, qon qusing – baribir keraksiz.
Qiynang, o‘z holiga qo‘ymang yurakni
Yashamaslik uchun yuraksiz...*

She‘r matnida aks etgan subyekt va obyektivlashgan kechinmani birlikda olib qarash lirik asarni sstem butunlik sifatida tushunishning birlamchi shartidir.

Bu she‘r subyekt – ijtimoiy hayot hodisalariga befarq qaray olmaydigan odam (eslatib o‘tamiz, biz she‘rni alohida olmoqdamiz, uni reallik bilan, yozilgan davri bilan bog‘lamaymiz). She‘rda, shuningdek, lirik mushohadaga turtki bergan obyekt ham muayyan (kechinmani harakatini ta‘minlash va uning manbaini his qila olish uchun etarli minimum) darajada aks etgan: kechinma “ko‘zini ochib yashash qiyinroq” bo‘lgan muhitda tug‘ilgan, shunday muhitga isyon, “beg‘am, bo‘g‘riqqan Og‘riqsiz yuzlar”ga ta‘na o‘laroq yaralgan.

She‘rning shakl tomonini tekshirmoqchi bo‘lsak, eng avval uning ritmikintonatsion tomoniga e‘tibor qaratish kerak. Bir qarashda she‘r barmoqda yozilgandek ko‘rinshi mumkin, lekin diqqat qilinsa, aslida u erkin she‘r ekanini ko‘rish mumkin. She‘rda 7, 8, 9, 10, 11 bo‘g‘inli misralar bor va ular (barmoqning murakkab vaznlaridagidan farqli) tartibli takrorlangan emas. She‘rning xushohanglik kasb etishida poetik sintaksis vositalari muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, “oching, qo‘rqmang”; “qamashsin, og‘risin”; “beg‘am, bo‘g‘riqqan”; “yuring, oching ko‘krakni”; “yiqiling, qon qusing”; “qiynang, o‘z holiga qo‘ymang” kabi uyushiq bo‘laklar ta‘kiidni kuchaytirishga xizmat qiladiki, bu invektiva ruhini kuchaytiradi. Shuninggdek, turli nav so‘z takrorlari (“mayli, Mayliga”, “ochiq... ochiqligi”; 2-bandda “og‘riq” so‘zining turli morfologik shakllari 4 bora takrorlangani) ham ta‘qidni kuchaytirishga xizmat qiladi. Janr e‘tibori bilan she‘rni, U.To‘ychiev tasnifidagi invektiva (“Adabiy turlar va janrlar. Lirik”)ga mansub etish mumkin. She‘rdagi iivektiva ruhini yuzaga chiqarishda unda qo‘llangan buyruq maylidagi fe‘llar (10 ta)ning roli katta.

She‘rda badiiy tasvir vositalarini qo‘llashda “xasislik” qilingani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buni she‘rning janr xarakteri – da‘vat ruhida

bitilgani bilan izohlash mumkin. Qo‘llangan kam sonli vositalar aynan o‘sha da‘vat ruhini kuchaytirishga xizmat qilgan. Aniqrog‘i, shoir shundaylarini tanlab qo‘llagan.

Masalan, ketma-ket kelgan “beg‘am, bo‘g‘riqqan, Og‘riqsiz” sifatlashlari o‘quvchining shunday yuz egalari –atrofdagi hodisalarga befarq, loqayd qishilarni ko‘z oldiga keltirishi, bunday bo‘lmaslikka ich-ichida ahd qilishi uchun etarli.

Ayni munosabatni shoirning o‘sha yuzlarga “og‘riqni otaman” deyishi quvvatlasa, bunda metafora-jonlantirishga ters metafora-predmetlashtirishning xizmati kattadir. Shuningdek, “yurakni qiynang”, “yuraksiz yashamoq” metaforalari ham tugal g‘oyaviy-badiiy niyat ijrosiga bo‘ysundirilgan. She‘r kompozitsiyasi ko‘zlangan g‘oyaviy-badiiy niyatga mos va uni yuzaga chiqarish uchun optimal tarzda amalga oshirilgan. Dastlabki ikki misrada “ko‘zni ochish” – yuz berayotgan hodisalarga befarq qaramaslikka da‘vat etiladi va ortidanoq buning oson emasligi, ko‘zni og‘ritishi mumkinligi ta‘kidlanadi. Ikkinchi bandda “og‘riqda ham lazzat” borligi aytilib, uchinchisida faol yashashga, kurashga da‘vat yanada baland pardada ta‘kidlanadi.

Biz alohida olingan she‘rni tizimli tahlil qilib, uning barcha unsurlarini tavsiflashga harakat qildik. Tahlilning bu usuli obyektni to‘la tavsiflash imkonini beradi, albatta. Biroq asarni tizim sifatida –barcha edementlarini to‘la tavsiflashning o‘zi maqsad bo‘lolmaydi. Aksincha, asarning sistema ekanligini (va uning barcha unsurlarini) nazarda tutgan holda tizimli tahlil tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda uning ayrim unsurlari (podсистема)ga tayanish bilan qanoatlanishi va shu asosda xulosa chiqarishi mumkin va to‘g‘riroqdir.

Dostonlarni o‘rganishda tizimli yondashuv haqidagi qarashlarimizni Islom shoir Nazar o‘g‘lining “Orzigul” dostoniga qismiga tatbiq etgan holda asoslashga harakat qilamiz.

Doston lirik hodisa bo‘lgani holda undagi biz uchun eng muhim jihatlardan biri subyektiv ibtido (ya‘ni, asarda tasvirlangan narsaning o‘zigina emas)dir desak, yanglishmagan bo‘lib chiqamiz. Zero, dostonijodkor tomonidan ko‘rilgan, idrok etilgan va qayta yaratilgan borliqdirki, unda muallifning o‘zi yashagan yoki asarda aks ettirilgan davr (jamiyat va inson)ni qanday tushunganiyu baholagani – dunyoyu davr kontseptsiyasi o‘z ifodasini topadi. Klassik tushunchadagi doston ijtimoiy-shaxsiy ehtiyoj mahsulidir. Bu ehtiyoj esa ijodkor shaxsning jamiyat bilan ziddiyatidan yuzaga keladi, ya‘ni doston o‘z hayot yo‘lida chigal muammolarga duch kelgan ijodkorning «ziddiyatli holatni adabiy

yo‘l bilan yechishga urinishi»dir Mazkur ehtiyojni qondirish uchun ijodkorning hayot materiali (dispozitsiya)ni badiiy idrok etishiyu ideal asosida qayta ishlab badiiy reallik(kompozitsiya)ka aylantirishi taqozo qilinadi. Voqelik bilan muntazam muloqot asosida amalga oshgan ijodiy jarayon (badiiy tafakkur) asar strukturasi muhrlansa, muallif anglagan haqiqatlar asar butunligi(sistema)da o‘z ifodasini topadi.

Modomiki dostonning badiiy voqeligi muallif ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida qayta yaralgan borliq ekan, u qanchalik obyektiv tasvirlanmasin, baribir ijodkor subyektini o‘zida aks ettiraveradi. Zero, muallif subyektini roman situatsiyasidayoq, ya’ni unda personajlarning joylashtirilishiyu har birining asar voqeligida tutgan mavqeidayoq ko‘zga tashlanadi. Bunga amin bo‘lish uchun “Orzigul” dostoniga sirtidangina bir qur nazar tashlash kifoya.

Demak, har qanday dostonidagi obrazlar tizimi muallif kontsepsiyasiga mos holda tashkillanadi, deyishga to‘la asos mavjud. Folklorshunoslikda **«obrazlar tizimi»** degan atama qo‘llanadiki, bu tushuncha mohiyatiga to‘laligicha mos istilohdir. Zero, doston voqeligiga kiritilayotgan har bir personaj turli iplar (goho yo‘lg‘on, goho ko‘zga ko‘rinar-ko‘rinmas) bilan bog‘lanadi, baxshi-shorning g‘oyaviy-badiiy niyati ijrosiga, kontsepsiyaning ifodalanishiga xizmat qiladi. Ya’ni, dostonidagi har bir unsur, jumladan, **har bir personaj har vaqt yagona markazga intiladi («центростремительность» – Zatonskiy)**ki, o‘sha markaz sifatida **muallif konsepsiyasini** ko‘rsatish mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan ayon bo‘ladiki, muallif konsepsiyasini bitta-ikkita obrazgina (albatta, ularning roli katta bo‘lishini inkor etmaymiz) emas,

asarning **badiiy voqeligi – unda yaratilgan yaxlit dunyo obrazi** ifodalanar ekan. Shunga ko‘ra, **asar strukturasi har qaysi obrazning bunda muayyan roli bor, zero, dunyo obrazi shu katta-kichik obrazlar tashkil qilayotgan butunlikdir.** «Folklorda badiiy tasviri vositalarni o‘rgatishda faol metodlardan foydalanish»dagi obrazlar tizimining tashkillanishini, bizningcha,

Quyosh sistemasiga mengzagan holda tushunishimiz qulayroq ko‘rinadi.

Quyoshning sayyoralari tegrasida yo‘ldoshlar bo‘lganidek, «Orzigul»ning yetakchi qahramonlari tevaragida ham yo‘ldosh personajlar harakatlanadi. Shunisi e’tiborliki, yo‘ldoshlarning joylashishida ham sayyoralarning joylashishida kuzatilgan printsip amal

qiladi. Ya'ni, yo'ldosh qanchalik katta va tortish kuchi yuqori bo'lsa, uning joylashishi Quyoshga yaqinroq, tabiiyki, boshqa yo'ldoshlarga nisbatan sayyoradan uzoqroq bo'ladi. Bu xilda joylashgan yo'ldosh, tabiiyki, sistemadagi muvozanatni saqlash, butunlikni ta'minlash (masalan, Yerning yo'ldoshi bo'lmish Oy massasiyu tortish kuchi bilan Venera va Merkuriy sayyoralariga muayyan ta'sir ko'rsatadi)da o'z holicha ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'ramizki, bu o'rinda **sistema ichida mikrosistema** yuzaga kelayotganiga guvoh bo'layotirmiz. Bizningcha, shunga o'xshash holni «Orzigul» dostoni strukturasida ham kuzatish mumkinki, unda ikkita mikrosistema mavjud. Masalan, Orzigul va uning tevaragida aylanuvchi personajlar tashkil qilayotgan mikrosistemani olaylik. Markazida Orzigul turgan mazkur mikrosistemaning chekka orbitasida Qoraxon tursa, oraliqda Suvonxon, Sultonxon, Sari Miroxo'r kabi qator personajlar harakatlanadi. E'tiborli jihati shundaki, dostonning boshlanishida yaxlitlashgan mazkur mikrosistemada muvozanat turg'un emasdi: uning chekka orbitasida harakatlangan yo'ldosh – Qoraxon ining sayyoraga bog'lanishi kuchsiz edi. Xuddi shunday gapni markazida Suvonxon turgan mikrosistemaning chekka orbitasida harakatlangan Qoraxon ya'ni Olloyor haqida ham aytish mumkin. Har ikki sistemaning ichki ziddiyatlari ikkalasining o'zaro to'qnashuvga olib keladiki, natijada muvozanat buzilib, sifat jihatidan jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi: Orzigul mikrosistemasi parokanda bo'lib, o'zi Suvonxon yo'ldoshiga aylanadi; Suvonxonning eng katta yo'ldoshi bo'lmish Sari Miroxo'r tortish kuchini yengib, o'zi yangi mikrosistemani shaklantira boshlaydi. Doston voqeligida kuzatilganga monand sifat o'zgarishlari Quyosh sistemasida milliard yillar mobaynida bir boragina kuzatilishi mumkinligi tayin gap. Ayni paytda, Quyosh sist emasiga o'xshagan sistemalardan ming-minglabini bag'riga jo aylagan cheksiz KOINOTda bu xil o'zgarishlar har lahzada sodir bo'lib turishi, olam har lahzada yangi bir sifat ko'rinishini kasb etib turishi ham tasavvurimizga sig'adi, albatta. Shunga o'xshash, real hayotda ham ming-minglab sistemalar mavjuddirki, ularning biri ikkinchisining unsuriga aylangani (deylik, Islom shoir Orzigul mikrosistemasining elementi sifatida olgan personajlarning har biri o'z holicha boshqa mikrosist emani hosil qilaveradi, ayni paytda, bu mikrosistemalarning bari butunicha yuqoriroq sistemalarning unsuri bo'lib qoladi) holda SISTEMA tobora kattarib boraveradi.

Shu mulohazadan turtki olsak, Oslom shoir «Orzigul»dostonida xalqimizga xos bo'lmagan axloq chegarasidan chiqqan voqelikni aks

ettiradi, degan da'vomizda shartlilik ulushi ko'proqligi, an'ana inertsiyasi bilan shunday deyayotganimiz anglashiladi. Zero, shoir dostonidagi badiiy voqelik real voqelikning oddiygina aksi emas, u baxshining dunyoni anglash yo'lidagi izlanishlari mahsuli sifatida yuzaga kelgan, yaxlit ma'no asosida anglangan mohiyatning modelidir. Ya'ni, doston badiiy voqeligi BUTUN(real voqelik)ning ijodkor tomonidan ko'rilgan va sistem butunlik holiga keltirilgan bo'lagidirki, u o'zida (albatta, ijodkor nuqtai nazaridan) BUTUNning mazmun mohiyatini mujassam etadi.

«Orzigul»dagi voqealarning o'zaro bog'lanishiga qisqacha to'xtalib o'tish joiz doston strukturasining o'zagini markazida Orzigul turgan syujet chizig'i tashkil qiladi. Biroq mazkur syujet voqealari Orzigul xarakterini ochishgagina emas, ko'proq asarga boshqa shaxslar dramasini olib kirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan asarga nazar solinsa, undagi syujet voqealari yagona maqsad – qahramon dramasini yoritishga qaratilgani ko'riladi. Bizningcha, «Orzigul» dostoni epik ko'lamdorligi jihatidan boshqa dostonlarga nisbatan ustunroq ekani shubha uyg'otmaydi. Epik ko'lamning kengayishi esa, tabiiyki, qalamga olingan voqealarning barini bevosita aloqada talqin qilish imkonini cheklaydi. Shunda tasvir vositalarini taxlil qilish ahamiyatlidir, asosiy syujet voqealari rivojiga jiddiy ta'sir qiladi, xolos. Ya'ni, Islom shoir dostonida ancha keng o'rin berilgan badiiy asar tasvirining asosiy syujet chizig'iga bog'lanishi shakl nuqtai nazaridan judayla mustahkam emas, biroq mazmun nuqtai nazaridan bu ikki yo'nalish uzviy bog'lanib ketadi. Zero, mazkur ikki yo'nalishning mazmuniy aloqalari voqealarning yuz berish sabablarini, qahramonlarning fe'l-atvoriyu xatti-harakatlarini asoslaydi, baxsh-shoirlarga qahramonlari duch kelgan oilaviy-maishiy muammolarni dolzarb ijtimoiy muammo maqomiga ko'tarishu umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan talqin qilish imkoninib eradi.

O'ylashimizcha, «Orzigul»dagi shaklan markaziy personajlarning o'zaro aloqalari tufayligina bog'langan voqealarning mazmuniy aloqalariga diqqat kilinsa, ular orasida syujetda o'z ifodasini topmagan sabab-natija munosabatlarini ilg'ash mumkin bo'ladi. Doston voqealari dramatizmga boy bo'lib, barcha keskin voqea-hodisalarni Xosxona-Oqtosh mamlakati, shuningdek, Qoraxon-Orzigul, Suvonxon-Sultonxonlar o'rtasidagi kolliziya birlashtiradi. Undagi qahramonlar va personajlarning taqdiri nixoyatda og'ir vaziyatlarda kechadi. Ma'lumki xalq dostonlarining ko'pida o'tmishda og'ir xayot xavosini chekkan mehnatkash xalqning xonlar, beklar zulmiga qarshi cheksiz nafrat-

g'azabi kuylanadi. Ushbu dostonda xam Orzigul obrazi orqali xotin-qizlarning o'tmishdagi qora kunlari, ularning chekkan azoblari va unga qarshi kurash o'z ifodasini topgan. Dostonning syujeyi boshidan oxirigacha podshox Orzigulni qo'lga kiritish uchun xarakat qiladi. Orzigul esa Qoraxonning o'z otasi ekanligini bilganligi uchun ham doim undan qochadi va azob-uqubatlarni chekadi. Dostondagi syujet liniyasi va g'oyasi qahramonlik, gumanizm, or-nomus uchun kurash va dushmanga nafrat motivlari bilan rivojlanadi.

Islom shoir doston syujetini bitta qahramon tegrasida uyushtirmagan, voqealarning izchil davriy tadrijiylik (ya'ni, bunday dostonda «parallel» va «retrospektiv» vaqtning paydo bo'lishi muqarrar)da yoki sabab-natija munosabati asosida batartib joylashtirish imkoniyati bo'lgan. Shunga qaramasdan, Baxshi-shoir qahramonlarini galma-galdan syujet markaziga chiqarish orqali mazkur imkoniyatni birmuncha kengaytirishga muvaffaq bo'lgan. Shunga o'xshash aloqalar asar personajlari orasida ham mavjudki, bunga mikrosistema haqida gapirganda qisman to'xtaldik. Aytish kerakki, asar personajlari o'zlarining strukturaviy aloqalari doirasi va yo'siniga ko'ra jiddiy

farqlanadilar. Aytaylik, dostondagi qator personajlar strukturaviy jihatdan faqat vertikal aloqaga kirishadilar, ya'ni, yetakchi qahramonlardan birigagina bog'lanadilar: u harakat qilayotgan muhitni tavsiflash, uning xarakter qirralarini ochishga, to'ldirishga, asoslashga xizmat qiladilar. Tabiiyki, bu personajlarning asar butunligi bilan bog'lanishi o'sha etakchi qahramon orqaligina amalga oshadi.

Yuqorida aytganimiz Orzigul mikrosistemasida harakat qiluvchi Suvonxon, sultonxon o'g'li Dilmurodlar ayni shu xil personajlar sirasiga kiritilishi mumkin. Ayni paytda, ularning **gorizontaliga mazmuniy-strukturaviy aloqalari** ham mavjudki, bunda ular o'zlari bog'lanayotgan unsurlarni metaforik, metonimik yoxud kontrastli munosabat asosida to'ldiradilar, izohlaydilar, asoslaydilar. Aytish kerakki, konkret personajning strukturaviy aloqalari sistema (badiiy asar) doirasi bilan cheklansa, mazmuniy aloqalari bot-bot chetga chiqishga—asar yaratilgan yoki asarda aksini topgan davr kontekstiga murojaat etishga undaydi. Strukturaviy jihatdan Qoraxonday ma'nan tuban kimsalarni etishtirgan, uni Sultonxon mansabga ko'tarib, qo'llarini echib qo'yganu el-yurtni em qilib bergan ham asli bir yaxshi oilani xudbinlarcha buzmoqchi bo'lgandir.

Xuddi shunga o'xshash holni Suvonxon obrazi misolida ham kuzatishimiz mumkin ko'rinadi. Darhaqiqat, strukturaviy jihatdan

Suvonxon faqat Orzigul bilangina bog'langandek, biroq uning mazmuniystrukturaviy aloqalari aslida ancha kengdir. Yu.Borev badiiy obraz strukturasi haqida so'z yuritarkan, unda bir predmetning mohiyati boshqa predmet orqali ochilishiga, bir-biridan tamomila uzoq narsa-hodisalarning qiyoslanishi yoki yonma-yon qo'yilishi ularning kutilmagan qirralarini namoyon qilishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi. Bizningcha, Islom shoir Orzigul va suvonxonning baxtli bo'lishlarini xoxlaydi. Zero, har ikkila makon ham mohiyat e'tibori bilan birdek. Faqat zamona zo'rlari makon tutgan xonadonlarga el-yurt hech yo'q qo'rqqanidan hurmatla qarasa, «mashhur no'mer»ga nafrat-la qo'lini bigiz qilib qaraydi. Holbuki, ma'naviy jihatdan har ikki amaldor Qoraxon-Olloyor va Sultonxon tubanroq, sababki, undagi iflosliklar niqoblanadi va munofiqlik ham qo'shilib ketadi. Agar shu nuqtai nazardan yondoshilsa, o'z ixtiyoriga zid holda Suvonxonixonadoniga tushgan Orzgul bilan noilojlik orqasida Orzigul taqdirida uyqashlik borligi anglashiladi. Demak, dostonida Orzgul obrazi boshqa personajlar bilan metaforik asosda mazmuniy-strukturaviy aloqaga kirishadi, mazkur obraz vositasida baxshi-shoir Sultonxon va Suvonxon mikromuhitlarining mohiyatini ochishga, Oqtosh shahridagi, umuman shohlik tuzumidagi ayollarning qismati nechog'li foje va ayanchliligini ta'kidlashga muvaffaq bo'lgan, deyishimiz mumkin.

Yuqoridagi mulohazalar folklore asarini sistem butunik sifatida qarab, uning barcha unsurlarining o'zaro aloqalarini e'tiborda tutgan holda o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

San'atning obraz vositasida fikrlashi uning spetsifik, ya'ni, tur sifatida belgilovchi xususiyatidir. San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san'atga xos fikrlash tarzi «obrazli tafakkur» deb yuritiladi. Obrazli tafakkur bilan tushunchalar vositasidagi tafakkur tarzining farqi nimada? Bunday farqni yorqinroq tasavvur etish uchun fan va xalq og'zaki ijodi adabiyotni qiyoslab ko'rish mumkin.

«Obraz» termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha tarjimada «aks» degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham «obraz» deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi farqlanadi: lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo'lsa -da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushunmog'i lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, biz «obraz»

deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik - badiiy borliqdir.

Fikrimizni oydinlashtirish uchun musavvir ijodiga murojaat qilaylik.

Musavvir yaratgan peyzaj - tabiat manzarasi tasviri bilan «natura» - asarga asos bo'lgan real manzara orasida juda katta tashqi o'xshashlikni topishimiz va, hatto, «xuddi o'zi-ya» deya hayratlanishimiz mumkin. Ehtimol, kim uchundir bu nav hayrat musavvir ijodiga berilgan yuksak baho bo'lib ko'rinar, aslida esa bu xil baho san'atni tushunmasligimizdan dalolat, xolos. Ya'ni, biz musavvir ayricha bo'rttirgan bo'yoqlarni, uning kechinmalariga «hamohang» ranglar jilosini, bizning nazarimizda ahamiyatsiz ko'ringani uchun e'tibor bermaganimiz, biroq muallif nazarida muhim bo'lgani uchun bo'rttiribroq berilgan chizgini, naturada bo'lsa-da asarda aksini topmagan yoki bo'lmasa-da asarda aks ettirilgan jajji detalni, ... ilg'ay olmagan bo'lib chiqamiz. Boshqacha aytsak, obrazdagi obyektiv ibtidoni ko'rganimiz holda, undagi subyektiv ibtidoni - asarga singdirib yuborilgan muallifni, muallif qalbini ko'ra olmadik. Modomiki badiiy obrazda faqat obyektiv ibtidonigina ko'rar ekanmiz, demak, asarni ko'rmagan - badiiyat hodisasidan chetda qolgan bo'lib chiqamiz. Zero, badiiyat ijod va retsepsiya (o'qish, tomosha qilish, tinglash) jarayonlaridagina mavjuddir. Bundan ko'rinadiki, haqiqatda badiiy obrazning materiali real voqelikgina emas, ijodkor shaxsiyati hamdir.

Badiiy obrazning xususiyatlari haqida so'z ketganda, birinchi galda, uning **individuallashtirilgan umumlashma** sifatida namoyon bo'lishi xususida to'xtalish zarur. Ma'lumki, voqelikdagi har bir narsa-hodisada turga xos umumiy xususiyatlar bilan birga uning o'zigagina xos xususiyatlar mujassamdir. Yuqorida, obrazli va abstrakt tafakkur haqida fikr yuritganimizda, bunga qisqacha to'xtalib o'tdik. Gap shundaki, abstrakt tafakkur narsa-hodisaning umumiy xususiyatlariga, obrazli tafakkur esa individual xususiyatlariga tayangan holda fikrlaydi. Deylik, fan umuman odam haqida (masalan, biolog umuman odamning fiziologik xususiyatlari haqida) so'z yuritishi mumkin, biroq san'at hech vaqt umuman odam obrazini yarata olmaydi. Shu ma'noda **konkretlilik**

- badiiy obrazning muhim spetsifik xususiyatlaridan biri sanaladi. Shu o'rinda yana «Orzigul» dostoniga qaytsak. Hech shubhasiz, dostondagi ayol obrazi o'zida katta badiiy umumlashmani tashiydi va shu bilan birga u o'quvchi ko'z o'ngida konkr et bir inson sifatida gavdalanadi. San'atkor umumlashmaga obrazning individual xususiyatlarini bo'rttirish orqali erishadi. Bunda Orzigulning ayanchli fojiali oxirida muvafaqiyatli taqdiri yorqin misralarda ochib beriladi . Ayni shu individual belgilarning bo'rttirilishi hisobiga baxshi-shoir katta badiiy umumlashmaga erishadi: zamona amaldorlariga xos bo'lgan qo'l ostidagi fuqaroning taqdiriga befarqlikni ko'rsatadi. Ya'ni, Qoraxon obrazi ko'z oldimizda individual xususiyatlariga ega bo'lgan konkret yomon odam sifatida gavdalanadi, ayni shu individuallashtirish hisobiga obraz umumlashmalilik kasb etadi. Ko'rinadiki, shu tariqa badiiy obrazda bir paytning o'zida bir-biriga zid ikki jihat (individuallik va umumiylilik) uyg'un tajassumini topadi.

Badiiy obraz o'zida aql va hisni uyg'un birlashtiradiki, shu bois uni ratsional va emotsional birlik sifatida tushuniladi. Badiiy obrazdagi ratsional jihat shuki, uning yordamida ijodkor o'zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi. Masalan, Islom shoirning podshohlik tuzumidagi tarixiy yurtining ertasi haqidagi o'ylar tashvishlantirgan. O'zini qiynagan muammolarni Islom shoir «Orzigul» dostonidagi qator obrazlar vositasida badiiy tadqiq etadi, asardagi obrazlar tizimi vositasida o'zining badiiy fikri(tugal bir qarash, tizim holidagi xulosa - konsepsiya)ni shakllantiradi va ayni shu obrazlar orqali o'zi anglagan haqiqatni badiiy fikr(konsepsiya) tarzida ifoda etadi. Ayni paytda, asarda yaratilgan obrazlarda shoirning hissiy munosabati ham o'z aksini topgan.

Ijodkorning hissiy munosabati badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunining o'quvchiga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, obrazlar tizimidagi har bir konkret obrazning hissiy tonalligi turlicha bo'lib, bu narsa birinchi galda muallifning ijodiy niyati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, «Orzigul « dostonining boshlanishidayoq Islom shoir Orzigulga bir turli, Qoraxonga yana bir turli, Suvonxonga esa boshqa bir turli munosabatda bo'ladi. Voqealar rivojlanib borgani sari muallifning ularga hissiy munosabatida ham ma'lum o'zgarishlar kuzatiladi. Aytaylik, shoirning doston boshlanishidagi Orzigulga nisbatan shaydolik to'la mehri ortib boradi.

Ya'ni, shoirning o'zi xarakter mohiyatiga kirgani sari qahramonlariga nisbatan hissiy munosabatida o'zgarish yuzaga keladi.

Hissiy munosabatdagi o'zgarish o'qish jarayonida kitobxonga ham o'tadi va ayni shu narsa uning asar mazmunini shoir istaganidek tushunishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'rinadiki, badiiy obrazdagi ratsional va emotsional jihatlarining uyg'unligi doston badiiy konsepsiyasini shakllantirilishida ham, ifodalanishida ham birdek muhim ahamiyatga ega ekan.

Badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan yana biri uning metaforikligi sanaladi. Bu o'rinda «metaforiklik»ni keng ma'noda tushunish, uni «o'xshashlik»ning o'zi bilangina bog'lab qo'ymaslik lozim. Ya'ni, «metaforiklik» deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi. Chinakam san'atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo'lib, u voqelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga ko'rinib turgan tashqi o'xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. San'atkor biz uchun kutilmagan ichki o'xshashlikni inkishof etadiki, natijada o'sha biz bilgan narsa-hodisa ko'z oldimizda butkul yangicha bir tarzda suratlanadi, o'zining bizga noayon qirralarini namoyon etadi.

Ma'lumki, **assotsiativlik** umuman inson tafakkuriga xos narsa. Zero, tashqi olam ta'sirida ongimizda biror narsaning aksi paydo bo'lishi hamono u bilan bog'liq assotsiatsiyalar ham uyg'onadi. Masalan, «qish» deyilishi bilan xayolimizda assotsiativ tarzda «qor», «sovuq», «po'stin», «chana» kabi u bilan bog'liq tushunchalar uyg'onadi. Obrazli tafakkurni yuksak darajada assotsiativ deyishimizning sababi shundaki, reallikda ko'rilgan bir narsa san'atkor xayolida butunlay boshqa bir narsani, u bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan narsani uyg'otishi mumkin. Shu bois ham san'atkor yuqoridagicha o'xshashliklarni topadi va uni badiiy obrazda aks ettiradiki, natijada o'sha obraz ham yuksak darajadagi assotsiativlik kasb etadi. Badiiy obraz yakma'no bo'lolmaydi, ko'p ma'nolilik uning tabiatiga xos yana bir muhim xususiyatdir. Badiiy obrazning ko'p ma'noliligi, avvalo, uning assotsiativligi bilan bog'liq holda izohlanadi. Buni, ayniqsa, assotsiativlik darajasi yuqori bo'lgan ramziy obrazlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Holbuki, baxshi-shoir o'z vaqtida shu doston rivojida assotsiativ ravishda podshohlik tuzumi sharoitidagi Orzigul taqdirini ko'rgan va shu ma'noni obrazda ifodalagan. Ayni paytda, mazkur obrazning ma'no ko'lam shularning o'zi bilangina cheklanmaydi: o'quvchi o'z hayotiy tajribasi, dostonni kuylash paytidagi ruhiy holati bilan bog'liq ravishda bu obrazda tamomila boshqa mazmunni, o'z mazmunini ham topishi

mumkin bo‘ladi. Aytish kerakki, ko‘p ma’nolilik nafaqat ramziy, balki tom ma’nodagi realistik obrazlarga ham xosdir. Faqat bunda endi ko‘p ma’nolilikning yuzaga kelish mexanizmi o‘zgacharoq. Gap shundaki, san’atkor badiiy obraz orqali ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni oxirigacha tugal aytmaydi (ya’ni, kitobxon og‘ziga chaynab solib qo‘ymaydi), obrazning ayrim chizgilarini punktirlar (uzuk-uzuk chiziqlar) bilan tortadi. Ya’ni, san’atkor obrazda ma’lum imkoniyatlar yaratadi-da, ularni ro‘yobga chiqarishni o‘quvchiga qoldiradi. Bu xil imkoniyatlar, ayniqsa, «obyektiv tasvir» yo‘sinidan borilgan, yozuvchi xolis kuzatuvchi mavqeida turgan asarlarda kuchli namoyon bo‘ladi. Garchi asarda tasvirlangan narsa bitta bo‘lsa-da, o‘quvchilarning ijodiy tasavvur imkoniyatlari, dunyoqarashi farqliligidan konkret obraz ularning ongida turlicha akslanadi, turli xulosalarga olib keladi. Shu bois ham o‘quvchilar tasavvurida minglab dostonlardagi Alpomish, Barchin, Go‘ro‘g‘li, Avazxon, Xasanxon, Kuntug‘mish, Xolbeka, Orzigullar yashaydi. Badiiy obrazga xos ayni shu xususiyat tufayli ham asarni turli davrlarda turlicha uqish, uning zamiridan yangi-yangi ma’nolarni ochish imkoni yaratiladiki, ayni shu xususiyat chinakam san’at asarini boqiylikka daxldor etadi.

Folklorshunoslikda «badiiy obraz» atamasi ham keng, ham tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda «badiiy obraz» deganda borliqning san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi (jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari) nazarda tutilsa, tor ma’noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi. Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning asosida inson obrazi turadi, chunki borliqning o‘zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning bu yo‘ldagi asosiy vositasi inson obrazi bo‘lishi tabiiy hamdir.

Mazkur fikrni obrazlar tizimidagi darajalanish yaqqol ko‘zga tashlanadigan katta epik asarlar misolida tushunish va tushuntirish qulayroq. Bu xil asarlarda boshqa (narsa-buyumlar, jonivorlar, hodisalar va sh.k.) obrazlarning bari inson obrazini yorqinroq tasvirlashga, chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. To‘g‘ri, ayrim asarlar borki, ularda inson obrazi yaratilgan emas: masallar, hayvonlar haqidagi ertaklar yoki asarlar, peyzaj lirikasi va b. Biroq ularda ham yo majoziy ravishda inson, inson hayoti haqida so‘z boradi (masallar, hayvonlar haqida ertaklar), yo inson qalbi suratlanadi (peyzaj lirikasi).

Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy unsurlar kiradi. Obrazga bevosita baxshi-shoirning o'zi tomonidan berilgan ta'rif «*muallif xarakteristikasi*» deb yuritiladi. Muallif xarakteristikasida obrazning fe'latvoriga xos asosiy xususiyatlar bayon qilinadi. Odatda muallif xarakteristikasi asarning boshlanish qismlarida yoxud konkret obraz asarga kirib kelgan o'rinlarda beriladi. Muallif xarakteristikasi o'quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qilib, uning keyingi xatti-harakatlarini, gap-so'zlarini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. Personajning so'z bilan chizilgan tashqi qiyofasi - portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita sanaladi. Portret, avvalo, personajning o'quvchi ko'z oldida konkret inson sifatida gavdalanishiga ko'maklashadi.

Ikkinchi tomondan, badiiy asarda portret xarakterologik belgilarga ega bo'ladi. Ya'ni, yozuvchi personaj siyratiga xos xususiyatlarni suratida aks ettirishga intiladi. Yozuvchi personaj qiyofasini ancha mufassal chizishi (Islom shoir yaratgan Orzigul, Zulfizar portretlari) yoki uning qiyofasiga xos ayrim detallarni berish bilan kifoyalanishi ham mumkin. Chunki portret - vosita, demak, uning qanday bo'lishi ko'proq muallif niyati, baxshi-shoir ning o'ziga xos tasvir uslubi, personajning asarda tutgan mavqei kabilar bilan bog'liqdir. Masalan Islom shoir sevimli qahramoni Orzigul ning qiyofasini chizmagan. Baxshi ko'proq personajning siyratini chizadi, uning xatti-harakatlarini jonli tasvirlaydi, gap-so'zlaridagi jonli ohangni ifodalashga intiladi, xullas, har bir o'quvchining o'z Orzigulini tasavvur etib olishiga imkon yaratadi. Natijada qahramon qiyofasini chizmaslikning o'zi o'ziga xos badiiy usulga aylanadiki, uning yordamida adib o'quvchini qahramoniga «yaqinlashtiradi». Ko'ramizki, qahramon qiyofasining qanday va qay darajada chizilishi belgisi emas, bu o'rinda portretning (yoki portret detallarining) inson obrazini to'laqonli yaratish va o'quvchining tasavvur etish uchun yetarli bo'lishi asosiy mezonidir. Badiiy asarda to'laqonli inson obrazini yaratishdagi muhim unsurlardan biri badiiy psixologizm sanaladi. Badiiy psixologizm deyilganda personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi tushuniladi va u mazkur vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qator usul, vositalarni o'z ichiga oladi. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita tasvirlab berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining «ichki

monolog», «ong oqimi» tarzida yoki muallif tilidan (o‘ziniki bo‘lmagan avtor gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari, yuz-ko‘z ifodalari(mimikasi), undagi fiziologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruhiy tasvirning bu ikki ko‘rinishi bir -birini to‘ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning har ikkisidan ham o‘rni bilan unumli foydalanadi. Shuningd ek, personaj ruhiyatini ochishda yozuvchi tabiat tasviridan yoki boshqa biror narsa obrazidan foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Dostonlarda xarakter ruhiyatini ochish, umuman, inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan yana biri personaj nutqidir. Dostonda dialog salmog‘ining ortishi barobari personaj nutqining obraz yaratishdagi mavqei ham kuchayadi. Mohir baxshi-shoir personaj nutqini individuallashtirish orqali uning shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan hayotiy holatdagi ruhiyati haqida o‘quvchiga ko‘p narsalarni yetkaza oladi. Aytish kerakki, dialoglarda personaj nutqi muallifning qisqa, lo‘nda sharhlari bilan ta‘minlanadi. Yuqorida aytganimiz personajning yuz-ko‘z ifodasi, mimikasi, undagi fiziologik o‘zgarishlar haqida ma‘lumot beruvchi detallar dialogda juda katta ahamiyat kasb etadi. Ular p ersonaj nutqini «eshitish» va uning xatti-harakatini «ko‘rib turish» imkonini - sahnaviylik effektini yaratadi, ya‘ni, inson obrazining to‘laqonli, jonli chiqishini ta‘minlaydi.

Folklorshunoslikda inson obrazi bilan bog‘liq holda badiiy obrazning yana bir muhim xususiyati – uning o‘z xarakter mantiqidan kelib chiqqan holda harakatlanishiga alohida diqqat qilinadi. Ehtimol sizning ham duch k elganingiz bordir: ba‘zan kitobxonlar asarni muhokama qilarkan, «falon qahramon o‘lmaganda yaxshi bo‘lardi» yoki «falon bilan fiston qahramon bir-biriga yetishsa yaxshi bo‘lardi» qabilida fikr yuritishadi, hatto shu xil istaklarni bildirib mualliflarga xat yozganlari ham bor. Bu – badiiyatni, ijod jarayonini yuzaki, jo‘n tushunish natijasi. Gap shundaki, badiiy obraz baxshi-shoirining quli emas, u o‘zining xarakter mantiqiga muvofiq harakat qiladi. Albatta, doston personajlari xarakteriga xos asosiy xususiyatlar (parametrlar) avval boshda baxshilarning o‘zi tomonidan belgilanadi.

3.2 Multimedia vositalari va ulardan foydalanishning nazariy asoslari

Multimedia vositalari (multimedia – ko‘pvositalilik) - bu insonga o‘zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyi-dagilar kiradi:

- axborotning xilma-xil turlari: an’anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutk, musika, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animatsiya va boshqalar) turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro‘yxatdan o‘tkazish va aks ettirishning turli kurilmalari: mikrofon, audio-tizimlar, optik kompaktdisklar, televizor, videomagnitafon, videokamera, elektron musiqiy asboblardan foydalanilgan holda kompyuter boshqaruvida bajariladi;

- muayyan vaqtdagi ish, o‘z tabiatiga ko‘ra statik bo‘lgan matn va grafikadan farqi ravishda, audio va videosignallar faqat vaqtning ma’lum oralig‘ida ko‘rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessor tez harakatchanligi, ma’lumotlarni o‘zlash shinasining o‘tkazish qobiliyati, operativ (tezkor) va video-xotira katta sig‘imli tashqi xotira (ommaviy xotira), hajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo‘yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirilishi talab etiladi;

- «inson-kompyuter» interaktiv mulokotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta’lim, ishlash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi.

Multimedia vositalari asosida o‘quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo‘lga qo‘yish xozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Uning o‘zi nima degan savol tug‘iladi? Ko‘pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya (ob’yektlarining fazodagi xarakati) effektlari asosida o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan xoldagi ko‘rinishidir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, xozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq, qilinmoqda. Xatto, xar bir oila multimedia vositalarisiz xordiq, chiqarmaydigan bo'lib koldi. Multimedia vositalarining 1981 yildagi yalpi oboroti 4 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 1994 yili esa 16 mlrd. AQSh dollarini tashkil kildi. Xozirgi kunda esa sotilayotgan har bir komp'yuterni multimedia vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Kompyuterlarning 70-yillarda ta'lim sohasida keng qo'llash yo'lida urinishlar zoye ketganligi, avvalombor, ular unumdorligining nixoyatda pastligi bilan bog'liq edi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yo'tish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30 % gacha vaqtni tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada o'zoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi. Bunga biz multimedia vositalari asosida chet tillarini o'rganish jarayenida yana bir bor ishonch xosil qildik. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega:

a) berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor;

b) ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi:

v) ta'lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

g) olingan bilimlar kishi xotirasida o'zoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kadrlarni qayta tayyorlash yo'lida Jaxon Valyuta Fondi, Umumjaxon banki, Yevropa Ittifoki komissiyasi kabi nufo'zli tashkilotlar katta tajribaga egadirlar. Biz bunga, ushbu tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan seminar va konferensiyalarning ishtirokchisi sifatida yana bir bor ishonch xosil qildik. Avvalombor, o'quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish taxsinga sazovordir.

O'z o'rnida, multimedia vositalaridan keng foydalanish yo'lida ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Bulardan eng asosiysi - o'quvchilar uchun kerak bo'lgan o'quv materiallarini, qonunlarni va

boshqa ko'rsatmalarni qo'llanma qilib kompyuter dasturlarini ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarida multimedia elementlarini qo'llash esa, kompakt disklarni (lazer disklari) qo'llashni talab qiladi. Xozirgi kunda bunday ko'rinishdagi kompakt disklarni respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati yo'qdir. Bular ma'lum bir miqdordagi mablag'ni oldindan jalb etishni talab qiladi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan o'quvchilarga ta'lim berish va qayta tayyorlash jarayonida keng foydalanish, kelajakda yetuk va yuqori malakali mutaxassislarni kamol toptiradi.

2. Distant uslubi asosida o'quvchilarni o'qitish xozirgi kunning eng rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimidir. O'qituvchi va o'quvchining ma'lum bir masofada joylashganligi, o'qituvchini dars jarayonida kompyuterlar, sputnik aloqasi, kabel televideniyesi kabi vositalar asosida o'quv ishlarini tashkil qilishini talab qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining tez rivojlanib borishi, ayniqsa, axborotlarni o'zlashish kanallarini rivojlanishi telekommunikatsiya sohasiga o'ziga xos tarixiy o'zgarishlar kiritmoqda. Mamlakatimizdagi barcha o'quv yurtlarini va biznes bilan shug'ullanayotgan kompaniyalarni distant uslubi asosida birlashtirilsa, o'qitish jarayonini va tijorat ishlarini yanada yuqori pog'onaga olib chiqadi. Distant uslubi asosida o'qitish quyidagi texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Interaktiv texnologiyalar:

- audiokonferensiyalar ;
- videokonferensiyalar ;
- ish stolidagi videokonferensiyalar;
- elektron konferensiyalar ;
- ovoz kommunikatsiyalari ;
- ikki tomonlama sputnik aloqa ;
- virtual borliq;

Nointeraktiv texnologiyalar:

- bosib chiqarilgan materiallar;
- audiokassetalar;
- videokassetalar;
- bir tomonlama sputnik aloqa;
- televizion va radio ko'rsatuvlari;
- disketa va CD-ROM lar.

Avvalombor, distant uslubi asosida o'qitish, jugrofiy jihatdan o'zoqda joylashgan maktablar va akademik ta'lim uchun mo'ljallangan edi. Lekin, zamonaviy axborotlar va telekommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi tabiiy ta'lim-tarbiya jarayonini o'zoq masofadan turib amalga oshirishga yo'l ochib berdi. Natijada distant uslubi asosida o'qitish, tez vaqt ichida ko'pgina maktablarda, tijoratchilar ichida va ishlab chiqarish korxonalarida keng qo'llanila boshladi va o'qitishda yangi uslublarni qo'llashga yana bir turtki bo'ldi. Distant uslubi asosida o'qitishning Xalqaro kengashining tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, xozirgi kunda jahonda 10 milliondan ortiq talabalar shu uslub asosida ta'lim olishmoqda. AQSH da shu uslub asosida o'qitish maqsadida yangi o'quv markazlari barpo etilmoqda. Shunday qilib, ular milliy kadrlarni zamon talabi asosida tayyorlash va qayta tayyorlash uchun olga qadam qo'yishmoqda.

Distant uslubining qo'yidagi afzalliklari mavjuddir:

a) o'qitishning ijodiy muxiti. Mavjud ko'pgina uslublar asosida o'qituvchi ilm tolibini o'qitadi, o'quvchi esa faqat berilgan materialni o'qiydi. Taklif qilinayotgan distant metodi asosida esa o'quvchilarning o'zlari kompyuterlar asosida axborotlar bankidan kerak bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topadi va albatta o'zlarining tajribalarini boshqalar bilan elektron tarmoqlari asosida almashadi. Bu esa o'quvchilarni boshqalar bilan yaxshi muloqotda bo'lishini ta'minlaydi va o'z o'rnida bunday mexnat ta'lim olishni rag'batlantiradi.

b) mustaqil ta'lim olishning imkoniyati borligi. Distant uslubi asosida ta'lim berish - boshlangich, o'rta, universitet, sirtqi - kechki va malaka oshirish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Tayyorgarligi har xil darajadagi inspektorlar o'zlarining shaxsiy dars jadvallari asosida ishlashlari mumkin va o'zining darajasidagi talabalar bilan muloqotda bo'lishi mumkin.

v) ish joyidagi katta o'zgarishlar. Distant uslubi asosida ta'lim berish turi millionlab insonlarga, hammadan xam ishlab chiqarishdan ajralmasdan ta'lim olayotganlar uchun qulay sharoit yaratib beradi. Bunday uslub asosida o'qitish kadrlarni tayyorlashda judayam katta ro'l o'ynamoqda, ya'ni jug'rofiy va moliyaviy qiyinchiliklarsiz o'zining ishlab turgan o'rnida ilm opishi mumkindir.

g) o'qitish va ta'lim olishning yangi va unumli vositasi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, distant uslubi asosida ta'lim berish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish kabi unumlidir. Bundan tashqari, distant uslubi asosida ta'lim olish universitet tomonidan

qo'yilgan chegaradan ham chetga chiqib ketadi. Bunday asosda ta'lim olayotgan talabalar yoki o'quvchilarning boshqalardan ustunligi - ularning eng yaxshi, sifatli materiallar va o'qituvchilar bilan ta'minlanishidir. Ta'lim berish va boshqarish uslubiyotiga asoslangan holda, o'qituvchi auditoriyada o'qitish shartlaridan xoli bo'lishi kerakdir. Distant uslubi asosida o'qitishning o'quv qoidalaridan kelib chiqsak, soliq, inspektorlari INTERNET turi orqali jaxon bo'yicha sayyohat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, ta'lim berish uslubining o'zgarishi bilan uning shakllari ham o'zgarishi shartdir.

Xozirgi kunda to'g'ridan-to'g'ri INTERNET tarmog'iga kirish xizmati distant uslubi asosida ta'lim berish uchun elektron pochta, kompyuter konferensiyalari va ma'lumotlarning elektron bazasida foydalaniladi. Axborotlashgan tezkor kanalning rivojlanishi yangi gipermedia tizimini berib, u o'z ichida INTERNET tarmog'iga kirishning uchta asosiy xizmatini mujassamlashtiradi va foydalanuvchining interfeysini (muloqoti) yanada takomillashtirishga yordam beradi. Masalan, maltikast texnologiyalarining, konferensiya vositalarining va multimedia kompyuterlarining mavjudligi INTERNET tarmog'i orqali video-konferensiyalarni yulga qo'yishga imkoniyat berdi. Shunday qilib, bunday gigant axborotlashgan tarmoq o'quvchilarning distant uslubi asosida zamonaviy bilim olishlari uchun vaqti yoki qayerda turganligiga qaramasdan keng sharoit yaratib beradi.

Bugungi kunda matnlar va matematik formulalarni qayta ishlash uchun odatiy tusga aylangan tovush va tasvirning kompyuterli qayta ishlash imkoniyatining paydo bo'lishi, shubxasiz, butun insoniyat faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Multimedik tizimlarni ko'rish uchun foydalanilayotgan kompyuterning hisoblash kuvvatini oshirishigina yetarli emas, buning uchun kushimcha apparatli qo'llab-kuvvatlash analogli audio va videosignallarni rakamli ekvivalentga kushish va uning teskarisi uchun zarur bo'lgan analogli-rakamli (ARU) va rakamli-analogli o'zgartirgich (RAU) videoprotsessorlar, dekodeklar maxsus integral chizmalar va boshqalar ham zarur.

Odatda, yuqorida kursatilgan kushimcha apparatli vositalar kompyuterlarning video va audio imkoniyatlarini kengaytiruvchi turli platalar ko'rinishida shakllanadi:

Ko'chmas video tasvirlar bilan ishlash uchun TARGA platasi;
- xarakatlanuvchi videotasvirlarni yozish va aks ettirish uchun Video Blaster, Video Spigot, Intel Smart, Video Recorder platalari;

- Microsoft firmasining Sound Blaster, Sound Galaxy Sound for Windows audioplatalari.

Video va audio axboroti bilan ishlashning zaruriyati ma'lumotlarning katta hajmi va ularni o'zlashning yuqori tezligi bilan bog'lik, ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi. Bu, audio-video axborotning sungi texnologiyalarini rivojlantirish va katta sig'imdagi jamgaruvchilarning yangi namunalarini yaratishning boshlanishi bo'ladi. Masalan, 650 Mb sig'imli va 150 kb/s hisoblash tezligidagi SD-ROM optik kompakt diski shu jumladandir.

Multimedia uchun zamonaviy SD-ROM texnologiyalar takdimnomasi ilk marta 1987 yili Sietldagi konferensiyada (Second Microsoft SD - ROM Soprofegense) bo'lib o'tdi va bu sana video va audioaxborotli to'laqonli multimedianeining paydo bo'lishi boshlanishi deb hisoblanadi. Multimedia tarkib topishining bundan keyingi qadami CD-I texnologiyasi (Compact Disk Interactive - interaktiv videodisklar) bo'ladi, ular kompyuter yordamida lazerli video-murvatni boshqarish yo'li bilan kompakt diskdan axborotni ixtiyoriy tanlashni tashkil etishga imkon beradi. Bu texnologiyani Philips Electronics firmasi ishlab chiqadi va u Sony, IVM va Microware firmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

IVM va Intel firmalari tomonidan ishlab chiqilgan va multimedia tizimlari ko'rilishi uchun foydalaniladigan DVI texnologiyasi to'rt bazaviy unsurdan tashkil topgan:

- videotizimning asosi bo'lgan ixtisoslashgan mikroprotssessor turkumi (masalan, tasvirlar kompressiyasi va dekompressiyasi uchun Intel firmasining I 82750RV piksel protssessori; signallarni raqamli qayta ishlash uchun Texas Instrument firmasining TMS320S10 protssessori; tasvirning videoxotirasida joylashgan ifoda uchun Iptel firmasining i82750DV displeyli protssessori va boshqalar); oxirgi paytlarda bulardan ham zamonaviylari bozorda taklif qilinmoqda;

- drayverlar (Video Driver, Audio Driver va VRAM Driver hamda SD - ROM Driver) va alohida kichik tizimlar darajasidagi dasturiy interfeys: grafika va videoeffektlar ma'lumotlari kompressiyasi va dekompressiyasi AVSS (Audio-Video Support System); RTX (Real Time Executive) STD (Standart) multivazifadorligini ta'minlash, xotirani, kirish-chiqishni boshqarish va boshqalar;

- galma-gal paydo bo'luvchi audio va video axborot saqlovchi, ma'lumotlarni SD - ROM jamg'aruvchisidan foydalanilganda tezligi bir tekisligini ta'minlovchi maxsus shaklli fayllar;

- sub'yektiv qabul qilishga yo'naltirilgan va ba'zi yo'qotish yoki bo'zib ko'rsatishlarga yo'l qo'yuvchi axborotning turli namunalari tiklash algoritmlari. Bu texnologiyani qo'llashning eng oddiy misoli bo'lib, siyraklash algoritmi, ya'ni tasvirning diskretligini kamaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. JPEG (Joint Photographic Experts Group) statik tasvirlarni siqishning eng ko'p tarqalgan algoritmda jarayonlar natijasida ko'chmas tasvirlarning vizual zararsiz 20, ..., 50 martagacha siqilishga olib borish mumkin.

Xarakatlanayotgan tasvir va audioaxborotlar uchun prediktiv kodlash (Predictive Coding) algoritmlaridan foydalaniladi.

Bu gurux algoritmlari orasida MREG (Moving Pictures Experts Groups) algoritmlarini ajratib ko'rsatish mumkin, ular 25...50 marta siqish koeffitsentini ta'minlaydi. Jumladan, agar 24-betli rangli va 30 kadrlar /s.li 640x480 o'lchamli siqilmagan rakamli television tasvir uchun 27 Mb/s ma'lumotlarni o'zatish tezligi talab etilsa, unda MREG1 algoritmi talab etilayotgan o'zatish tezligini 550 kb/s. gacha kamaytiradi. MREG1 algoritmi, shuningdek, siqish koeffitsenti 5 ...10 marta bo'lgan audioaxborot kompressiyasi uchun ham qo'llaniladi.

DVI texnologiyasida foydalaniladigan video siqish algoritmlarini ikkiga bo'lish mumkin:

- JPEG rusumli simmetrik chizmalı algoritmlar, ular real vaqt miqyosida siqishni amalga oshirish va huddi videomagnitafondagi kabi sifat darajasida kompyuter (Real Time Video) vinchesteriga ma'lumotlarni yozishga imkon beradi, bunda SD - ROM ni tayyorlashga zaruriyat qolmaydi;

- MREG rusumli nosimmetrik kompressiya algoritmlari, ular SD-KRM (Production Level Video) ga yozish uchun mahsulotni bozorbop yo'sinda yaratishda foydalaniladi va multimedaning tizimida videoni fakat aks ettirishni ta'minlaydi. Bunda videoni siqish darajasi 100...160 martaga yetadi, videomagni-tafon yozuviga yaqin sifat saqlanadi.

25:1 siqish koeffitsenti displeyning chorak ekranida yaxshi sifatli videotasvirni olish uchun kifoya.10:1 nisbatda siqilganda DVI texnologiyasi bo'lgan (Real Time Video) videotasvirli darcha to'liq ekranning 1/5 qismini egallaydi.

Audioaxborot yomon siqiladi (mumkin bo'lgan siqish koeffisenti 1,9-2,5), bu xol tinglash a'zolarining bo'zib kursatishlarga befarq emasligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib DVI texnologiyalari video va audioni aks ettirish uchun zarur bo'lgan axborot hajmini keskin qisqartirishga imkon beradi,

bu xol ma'lumotlar umumiy hajmini kamayishiga va multimedianing fan, ta'lim, biznes va aloqa sohalariga keng kirib borishiga olib keladi. Bunda foydalanuvchiga interaktiv lazerli videodisklar tayyorlovchilari xizmatiga murojaat etmay, o'z amaliy multimedianing tizimlarini yaratish, axborotning barcha turlarini saqlash uchun oddiy vinchesterdan foydalanish imkoniyati beriladi. Bundan tashqari, hozirdayoq, multimedia ovoz berilgan, tasvirli hujjatlarni Ethernet tarmoqli platasi orqali kompyuter tarmog'iga jo'natish mumkin. Biroq, videotasvirli, to'liq tarmoqli multimedianing tizimlar uchun taxminan 200:1 siqish koeffitsienti zarur. Bunday ko'rsatkichga hozirdayoq erishish mumkin va bu boradagi ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

3. Ishlanma vositalar: xolati va istiqbollari

Multimediaasr oxirigacha kompyuter texnikasini takomillash-tirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi kutilmoqda. Hozirgi paytda kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchi ko'pgina yetakchi firmalar bu axborot texnologiyasini xayotga quyidagi uch yo'nalish bo'yicha tadbqiq, qilmoqdalar:

- AT 80x86 shaxsiy kompyuterlarida DOS, Windows muhitida multimediani professional va tijoriy maqsadlarda qo'llash;

- Macintosh SHK lari uchun unimli va ta'lim beruvchi ilova-lar yaratish;

- ishchi bekatlardagi UNIX muxitida professional va tijoriy ishlanmalarni tayyorlash.

Bu barcha tayyorlanayotgan vositalar asosida assotsiativ aloqalarning umumiy ob'yektlari yo'naltirilgan uslubiyaatni o'z ichiga olgan «gipermatn» (Nurertex) konsepsiyasi yotadi. Rasman gipermatn deganda foydalanuvchiga boshqa mavzuga o'tishga imkon beruvchi ichki o'zaro murojaat qiluvchi matnli, tuzilmaviy axborot tushuniladi. Gipermatn avval materialga kiritilgan assotsiatsiyalar bo'yicha interaktiv rejimdagi so'zlar, fayllar va paragraflarni jadal birlashtirish uchun foydalanilgan. Gipermatn vositalari foydalanuvchi istalgan tartibda varaqlab ko'rishi mumkin bo'lgan multimedianing hujjatlarni yaratishga imkon bergan. Foydalanilayotgan kompyuterlarning hisoblash qobiliyati oshib borgan sari bu assotsiativ aloqalarning ishlashi mualliflik tizimlarining yangi avlodlarida kengayib bordi. Bunda mualliflik tizimi deganda ishlab chiquvchilarga dasturlarni ko'p mexnatli jarayonsiz yaratishga imkon beruvchi ta'minot tushuniladi. Bugungi kunda raqamlashgan statik tasvir, audio va video ma'lumotlarga muallifning istagi bo'yicha tanlangan ob'yektlar sifatida qaralishi mumkin.

Quyidagi kompyuterli platformalar: Macintosh, DOS, Windows, UNIX, Philips firmasining SD-I va IVM firmasini Multimedia kompyuterlariga qo'llaniladigan multimedia ishlanmalari holatini ko'rib chiqamiz.

Masalan. Ko'p yillar mobaynida Arrle Somruter Ins multimedia ishlanmalari sohasida yetakchi o'rin tutadi. Avvalboshda ishlanmalar audioni o'z ichiga olgan multimedia maxsulotlarini ko'rish uchun gipermatn - Nuregsagd - firma dasturi im-koniyatlarini kengaytirish va yuqori sifatli audioaxborot bilan bog'liq edi. So'ngra multimedia tizimiga fotoga yaqin bo'lgan yuqori sifatli statik tasvirlarni kiritish va aks ettirish imkoniyati ko'shildi. Natijada Macintosh kompyuterlari platformasi multimedyaning aniq bir ilovalarida yetakchi o'rinni egalladi.

Biroq, videoni qo'llab-quvvatlash nisbatan yaqin paytda, MAS 6.07 va 7.0 imkoniyatlarini kengaytiruvchi Quicktime tizimining kiritilishi bilan ta'minlandi. Xozirda - Nuregsagd dasturi va yuqorida ko'rsatilgan kengaytirishlarni birlashtiruvchi multimedyaning tizimlar ishlanmasi ustida ish olib borilmoqda. Bu tizimning asosiy komponentlari dasturiy ta'minoti, fayllar shakllari, kompressorlar va foydalanuvchi interfeyslaridir. Tizimning eng muxim unsuri - Movie Toolbox - tasvirlarni siqishni boshqaruvchi va animatsiyalar, statik tasvirlar xamda video algoritmlarini amalga oshiruvchi dasturlardir.

Foydalanish jihatidan oddiy bo'lgan Media Text mualliflik tizimi yaqinda Michigan Universitetida (Ann Arbor) Macintosh kompyuterlari uchun ishlab chiqildi. Foydalanuvchi o'z dasturiy maxsulotini audio, grafika va animatsiyaga kiritishi hamda ularni xar bir bosqichda sichqonning ikki chikillashidan oshirmagan holda bajara borib boshqa fragmentlar bilan birlashtirishi mumkin.

4. IVM Vetimedia /OS-2. IVM Sogr firmasi multimedia ishlanmalari sohasida ancha faol ish olib boradi. Firma Windows interfeysidan grafik foydalanishni qo'llab-quvvatlashdan tashkari o'zining OS/2 operatsion tizimini multimedyaning ko'pgina imkoniyatlari bilan jixozlagan. Ular orasida, eng avvalo, MM RM/2 nomini olgan Rgesentation Manageg (prezentasiya menejeri) dasturini ajratib ko'rsatish mumkin. U audio-platalar, SD-ROM rusumidaga ommaviy xotira va video proigrovatelni qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, Audio Visual Connection adapterining IVM uchun drayverini o'zida saqlaydi.

IVM firmasi RS/2 turkumidan keyingi o'z kompyuterlari uchun Ultimedia sifatida mashhur multimedia vositalari paketini ishlab chiqqan. Bu vositalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompakt-diskda yetkazib beriladigan va operatsion tizim turlarini tanlash hamda multimedia dasturlarini namoyish etishga imkon beruvchi M57 va M77 qurilma modullari;

- amaliy dasturli multimedia kioski (o'yinli, ta'lim beruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va hokazolar);

- Storyboard Livel, Linkway Livel va Audio Visual Connexion singari multimedia ishlab chiqishning foydalanuvchi vositalari turkumi;

- konferensiya ishtirokchilariga umumiy axborotlarni ekranda taqsimlashga imkon beruvchi kompyuterli videokonferen-siyalarni qo'llab-quvvatlash uchun R2R moduli (IVM Regson to Regson);

- turli manbalardagi audio va video axborotlar yuqori sifatini kafolatlagan holda videoni 30 kadr/s chastotali qamrab olish, siqish va aks ettirishni ta'minlovchi IVM RS/2 Astion Media II Display Adapters moduli.

UNIX.Ishchi stansiyalar uchun ham multimedianing maxsu-lotlarini yaratish tizimlari ishlab chiqilmoqda, lekin firmalarning harakatlari shaxsiy kompyuterlar uchun tizimlarni ishlab chiqish kabi birlashmagan. Mavjud tizimlar ishchi stansiyalarning aniq bir rusumlarida foydalaniladi, masalan, Mpower tizimi Hewlett-Packard Corp firmasi kompyuterlarida, DECspin tizimi - (Digital Equipment Corp firmasi EXM larida qo'llanmoqda.

Biroq, umumiy foydalaniluvchi ishlanmalar ham mavjud. Jumladan. Gain Technology Ins (A+Sh) kompaniyasi Gain Momentum tizimini taklif etdi, u UNIX OT muhitida X Window, OSF/Motif va OpenLook grafik interfeysi bilan ishlashda multimedia imkoniyatini ta'minlaydi. Bunga qo'shimcha ravishda Massachusets texnologiya instituti X Window Assotsiatsiyasi X Window muhitida ishlovchi standart dastur uchun VEX videokengaytirishni ishlab chiqdi va foydalanishga taqdim etdi. Gain Momentum tizimi asosan MBBT, ob'yektlar birlashishi (aloqasi) tili va kutubxonalar turkumidan iborat. MBBT moduli matnli fayllar, fayl turkumlari, rakamlashgan tovush va tasvirlar o'rtasidagi aloqani o'rnatadi. Ob'yektlarni birlashti-ruvchi Arrle firmasining Nurmedia Yengine tili foydalanuvchiga multimedia ma'lumotlari bazasida yo'nalish topishga yordam beruvchi 30 modulli kutubxonalar turkumini o'zida namoyon etadi.Tizim kompyuterli ishchi stansiyaga

moslashishga imkon beruvchi amaliy dasturlarning portativ interfeysini (ARI - Arrlication Rgogram Interface) ham o'z ichiga oladi.

1993 yilda chiqarilgan multimedaning MRoveg tizimi foydalanuvchining video muxitini (Visual User Environment) aks ettiradi.

Video Live, Multimedia Mailer, Shared-X va SharedWhite Board modullari tizimining bazaviy komponentlaridir. Video Live moduli qo'shimcha plata yordamida videokadrlarni qo'yishni va ularni ishchi stansiya ekrani darchasida aks etishini qo'llab-quvvatlovchi utilitani namoyon etadi.

Multimedia Mailer moduli, nomidan ham ko'rinib turganidek, UNIX operatsion tizim taklif etadigan ma'lumotni elektron pochta xabarlaridagi audio, ko'chmas tasvir va videokadrlarga standart imkoniyatlarini kengaytiradi. Shared-X moduli foydalanuvchiga X Window stansiya ekranida boshqa istalgan hisoblash tarmog'i foydalanuvchisi bilan birgalikda qo'llash imkonini beradi. SharedWhite Board moduli konferenszaldagi taxtadagiga o'xshash tasvirdan birgalikda foydalanishni ta'minlaydi.

DECspin multimedia tizimi qo'shimcha audio va videoplatalar bilan Decstation 5000 kompyuterlarida Xmedia Tools muhitida ishlaydi. Yaqinda Digital firmasi uni o'zining boshqa ishchi stansiyalariga tarqatdi. Tizim axborotning barcha turlarini qo'llab-quvvatlaydi, videokadrlarni taxrir qilish va videokonferensiyalar rejimida ishlashga imkon beradi.

Aftidan, ishchi stansiyalari uchun eng oddiy mualliflik tizimi Standford universitetida yaratilgan va elektron pochta bo'ylab bepul tarqatiladigan MAYEstro tizimidir.

Xozirgi jamiyatimiz uchun multimedaning ahamiyatini tasdiqlovchi - 1987 yilda Vashingtonda AKSH kongressi kutubxonasida Interaktiv axborot texnologiyalari milliy namoyishlar laboratoriyasi va original multimedia - ilovalar va dasturlarning doimiy ko'rgazmasi ochilganligi diqqatga sazovordir. Multimedia va distant uslublari asosida ta'lim berish yildan-yilga ortib, takomillashib bormoqda.

Mutimediali taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktir jo'rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va

interfaolligidir, ya'ni belgilangan shaklda o'zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir. Bundan tashqari, taqdimot Sizning saytingiz kaliti ham bo'lishi mumkin. Ya'ni Internetga chiqish imkoniyati mavjud bo'lgan paytda sichqonchani bir martagina bosish orqali taqdimotni ko'rib, kompaniya saytidan eng yangi ma'lumotni olish mumkin.

Multimediali texnologiya Multimediali texnologiya (multi – ko'p, media – muhit) bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz.

Multimediali texnologiyaning eng muhim xususiyati interfaollik – axborot muhiti ishlashida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirligi hisoblanadi. So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar.

Kompyuter taqdimotlari (Kompyuter vositasida tayyorlangan taqdimotlar)


Ma'ro'za, doklad yoki boshqa chiqishlarda odatda ko'rgazmali namoyish etish vositasi sifatida plakatlar, qo'llanma, laboratoriya tajribalaridan foydalaniladi. Bu maqsadda diaproyektorlar, kodoskoplar, grafik tasvirlarni ekranda namoyish etuvchi slaydlardan foydalaniladi. Kompyuter va multimediali proyektorning paydo bo'lishi ma'ro'zachi nutqini ovoz, video va animatsiya jo'rligida sifatli tashkil etishning barcha zaruriy jihatlarini o'zida mujassam qilgan ko'rgazmali materiallarni taqdimot sifatida tayyorlash va namoyish etishga imkon berdi.

Taqdimot nima uchun samarali So'nggi o'n yillik dunyoda kompyuter revolyutsiyasi davri bo'ldi.

Kompyuterlar asosli ravishda hayotimizga kirib keldi. Insoniyat faoliyatining aksariyat jabhalarini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Faoliyatning eng tez o'zgaruvchan dinamik turi bo'lgan biznes ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. Bu holatda kompyuter bilan muloqotni osonlashtirish, uning e'tiborini tortish, qiziqtirish uchun ma'lumotingizni boshqalarga qanday qilib eng qulay va samarali tarzda yetkazish mumkinligi to'g'risida savol tug'iladi. Ma'lumki, inson ma'lumotning ko'p qismini ko'rish (~80%) va eshitish (~15%) organlari orqali qabul qiladi (bu avvaldan aniqlangan va kino hamda televideniyeda undan samarali foydalaniladi). Multimediali texnologiyalar ushbu muhim sezgi organlarining bir vaqtda ishlashiga

yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slayd-shou, animatsiya, video)ni ovozli tarzda namoyish etish orqali insonlarning e'tiborini ko'proq jalb qilamiz. Shundan kelib chiqib, multimediali texnologiyalar axborotni maksimal samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi. Videodan farqli ravishda multimediali texnologiyalar axborotlarni boshqarishga imkon beradi, ya'ni interfaol bo'lishi mumkin. Multimediali taqdimot ma'lumotni to'g'ridan to'g'ri qabul qilishni ta'minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma'lumotlarni ko'radi va o'zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma'lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi.

3.3 «Dostonlarda badiiy tasviriy vositalarni o'rgatishda faol va interfaol metodlardan foydalanish.



B.Mengliyevning «Multimedia vositalariva ulardan foydalanish» maqolasidan foydalanildi.


Badiiy obraz materiali



Badiiy obraz xususiyatlari



Individuallashtirilgan umumlashma



Assotsiativlik

**Derazaga uriladi qor,
Jaranglaydi jarangsiz kumush.
("Orzigul")**



Metaforiklik


**Qoraxon podshoh xasis, ta'madir, va zolim.
Islom shoir "Orzigul"**



Badiiy obraz galaktikasi



Inson obrazini yaratish vositalari



Badiiy obrazlar tasnifi



Obrazlarning integrativ aloqasi



Takrorlanuvchi obrazlar

motiv	Shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turuvchi obraz
topos	Shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, milliy adabiyotda yoki uning katta bir adabiy davri mobaynida takrorlanuvchi obraz
arxetip	eng qadimgi davrlardan boshlab hozirgi adabiyotda ham kuzatiluvchi inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos turg'un «sxema»lar, konstruksiyalar, qoliplar

Umumlashtirish darajasiga ko'ra obraz turlari

individual

- o'zigagina xos fe'l-atvori, gap-so'zlari, betakror xarakter xususiyatlari bilan namoyon bo'luvchi obraz

tip

- muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xususiyatlarni o'zida namoyon etgan obraz

xarakter

- muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim, xarakterli umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan obraz

Strukturasiga ko'ra obraz turlari

avtologik

- Tasvir va ifoda planlari bir-biriga mos tushadi (masalan, chinor tasvirlangan va chinor nazarda tutilgan)

metalogik

- Tasvirlangan narsa bilan ifodalanayotgan narsa mos emas, lekin ularni bog'lovchi mushtarak nuqta bor (masalan, chinor tasvirlanadi – sobitlik, ulug'vorlik nazarda tutiladi)


superlogik

- Tasvir bilan ifoda mos emas, ularni bog'lovchi mushtarak nuqta ham yo'q: tasvir shartlilik asosida va faqat kontekstda ko'zlangan mazmunni ifodalaydi (chinor tasvirlanadi – xalq nazarda tutiladi).

1-ilova.

Islom shoir Nazar o'g'liningning "Orzigul" dostonidagi Orzigul obrazini badiiy obraz xususiyatlari yuzasidan "FSMU" metodida tahlil qilish mumkin. Buning uchun talabalar oltita kichik guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga hikoya qahramonini haqidagi bittadan fikr bo'yicha "FSMU" jadvalini to'ldirish so'raladi.

- 1-guruh uchun: Orzigul obrazi konkretlik xususiyatiga ega.
- 2-guruh uchun: Orzigul individuallashtirilgan umumlashmadir.
- 3-guruh uchun: Orzigul obrazi – ratsional va emotsional birlik.
- 4-guruh uchun: Orzigul obrazi metaforiklik xususiyatiga ega.
- 5-guruh uchun: Orzigul obrazi ko'pma'nolilik xususiyatiga ega.
- 6-guruh uchun: Orzigul obrazi assotsiativlik xususiyatiga ega.



3-ilova.

"Qanday?" metodi talabalarda o'rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi. Metodni qo'llashda o'quvchi (talaba)larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko'nikmalarishakllanadi. Metodni qo'llash:

- 1) o'qituvchi tanlangan mavzu, masalani e'lon qiladi;
- 2) o'quvchi (talaba)larni mavzu va metod bilan ishlash qoidalari bilan tanishtiradi;
- 3) ular guruhlariga biriktiriladilar;
- 4) guruhlariga topshiriq beriladi;
- 5) guruhlar topshiriqni bajaradilar;


6) guruhlar tomonidan taqdim etilgan yechimlar bilan jamoa tanishtiriladi;

7) jamoa tomonidan guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

Muammoning yechimi “Buni qanday qilish kerak?”, “Qanday?” savollariga javob topish asosida hal qilinadi. Muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi to‘g‘risida o‘ylanib qolmaslik lozim. Savollarning izchil berilishi muhim ahamiyatga ega. Metodni qo‘llashda muammoni echish imkoniyatlarigina izlanmay, ularni qo‘llash yo‘llari ham tadqiq qilinadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi: 1) o‘ylangan barcha g‘oyalar tahlil qilinmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezda qayd etilishi kerak; 2) shakllanayotgan diagramma tugallangan bo‘lmay, unga yangi g‘oyalarni kiritish mumkin bo‘lsin; 3) agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatib, u muammoning asosiy echimi bo‘lishi mumkin; 4) yangi g‘oyalar grafik, klaster yoki tasvir ko‘rinishida bo‘lishidan qat’iy nazar yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngda qayd qilib boriladi va buni talabalarning o‘zlari hal etadilar; 5) agar talabalar savollarni to‘g‘ri qo‘ysalar va masalaning rivojlanish yo‘nalishini ob’ektiv belgilay olsalar, u holda yechim to‘g‘ri topiladi.

Inson obrazini yaratish vositalarini “Qanday” metodi yordmida aniqlash (taxminiy variant)



4-ilova.

“Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda talabalarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishgaimkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzuyakunlanadi.

“Xulosalash» metodi asosida bajarish uchun o‘quv topshirig‘i (taxminiy variant)

Badiiy obrazning M.Epshteyn taklif etgan tasniflari					
Premetlilik darajasiga ko‘ra		Umumlashtirish darjasiga ko‘ra		Ifoda va tasvir planlari munosabatiga ko‘ra	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Badiiy asarning	Dunyo va taqdir	Obrazdagi ijtimoiy	Xarakter va tip obrazlarni	Obrazning metaforik	Obrazning metalogik

barcha qatlamlarini qamrab oladi	obraziga konkret ta’rif berishning qiyinligi	belgilarni aniq ta’kidlab ko’rsatishi	farqlashdagi qiyinchilik	xususiyatini tushunishga yordam beradi	yoki superlogik turga masubligini belgilashda chalkashliklar ro’y beradi.
Xulosa: hech bir tasnif badiiy asardagi obraz ko’rinishlari, xususiyatlarining barchasini qamrab olishga qodir emas; har bir tasnif o’rni bilan qo’llanganida ijobiy natija beradi;					

Baholash mezonlari va ko’rsatkichlari (ball)

Guruh	1-topshiriq	2-topshiriq	3-topshiriq	4-topshiriq	Ballar yig’indisi
	(1,0)	(1,0)	(1,0)	(1,0)	(4,0)

“Folklorda badiiy tasvriy vositalarni o‘rgatishda faol metodlardan foydalanish” mavzusi bo‘yicha mustaqil ta’limni tashkil etish

“Folklorda badiiy tasvriy vositalarni o‘rgatishda faol metodlardan foydalanish” mavzusi bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulot o‘tilgach, talabalarda ushbu mavzu yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar

shkallanadi va bu o'z navbatida mavzuga oid mustaqil ta'limni tashkil etishga asos bo'ladi.

Mazkur mavzuda mustaqil ta'limni muammoli hamda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida tashkil etish o'quv materialini samarali va tez o'zlashtirishga imkon beradi. "Badiiy obraz spetsifikasi" mavzusi keys-stadi metodini qo'llash uchun qulay. Keys-stadi metodi talabalarning Ma'naviy va labziy san'atlarga oid bilimlarini amalda qo'llash bilan birga bu boradagi muammoli masalalarni hal etish malakalarini ham shakllantiradi.

Keys-stadi metodi

Keys-stadi (case-study) aniq vaziyatlar tahlili metodi bo'lib, real ijtimoiy, iqtisodiy, biznes vaziyatlar ta'rifidan foydalanuvchi ta'lim texnikasi hisoblanadi. Ta'lim oluvchilardan berilgan vaziyatni tahlil qilish, muammolar mohiyatini anglash, ushbu muammolarning muqobil echimlarini izlash va ular orasidan eng afzalini tanlash talab etiladi. Keyslar real dalilli materiallarga yoki real vaziyatga maksimal ravishda yaqinlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanadi. Ushbu metod dastlab 1924 yilda Garvard biznes maktabida qo'llangan.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi – bu ta'limdagi metodik yangilik bo'libgina qolmay, balki uning ta'lim tizimida keng ishlatilishi zamonaviy ta'lim tizimidagi vaziyatga ham bog'liq. Aytish mumkinki, ushbu texnologiya asosan yangi bilim, ko'nikmalarni o'zlatirishga emas, o'qituvchi va talabalarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida talabalar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Buning sababi sifatida ushbu metod talabalarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini berishda ko'rish mumkin. O'z navbatida vaziyatlarning analizi (tahlili) talabalarning professionalizatsiya jarayoniga kuchli ta'sir o'tkaza olishi, ularning kasbiy jihatdan "ulg'ayishiga" xizmat qilishi, ta'lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi o'qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi.

Aniq vaziyatlarni bosqichma-bosqich tahlil etish va hal etish bo'yicha talabalarga uslubiy ko'rsatmalar

Ish bosqichlari va vaqti	Maslahat va tavsiyanomalar
1. Keys bilan tanishish (individual) – 3 daqiqa	Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag'ishlanganligini aniqlang.
2. Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlash (individual va kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Keysdagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O'z fikringizni guruh bilan o'rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e'tibordan chetda qoldirmang.
3. Muammo yechimini topish va erishiladigan natijani aniqlash – 7 daqiqa	Guruh bilan birgalikda muammo yechimini toping. Muammoga doir echim bir necha variantda bo'lishi ham mumkin. Shu bilan birga siz topgan echim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.
4. Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti (kichik guruhlarda) – 5 daqiqa	Guruh bilan birgalikda keys echimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida aniqlik, fikrning ixcham bo'lishi tamoyillariga rioya qiling.

Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimotining chizma namunasi

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Muammoning sabablari	Yechim va takliflar

“Badiiy obraz spetsifikasi” mavzusi uchun

KEYS

Savollar: (“Orzigul” dosoni matnlariga tayangan holda javob beriladi)

1. Dostondagi asosiy problema nimadan iborat va unga doston kuylovchi qanday munosabatda bo‘ladi?

2. Baxshi-shoirning ning doston personajlariga munosabati qaysi o‘rinlarda va qanday usullarda berilgan? Konkret misollar keltiring.

3. Dostondagi i personajlarni qay tarzda qutblarga ajratish mumkin? Barcha personajlarni qamrab oladigan sxema tuzishga harakat qiling. Tuzgan sxemangizda dostonni odatdagi “Orzigul – podshoh qizi” tarzida talqin qiladigan qolipga tushmaydigan personajlar ham bormi? Masalan “xalq” ushbu ziddiyatning qaysi tomonida turadi? Bu haqda o‘lyab ko‘ring.

4. Dostondagi omillar doston kuylovchisining talqin etishiga, undagi ayrim unsurlarga ko‘proq diqqatni qaratib, ayrim unsurlarni esa e’tibordan soqit qilishiga olib kelishi mumkinmi? Bular qaysi unsurlar bo‘lishi mumkin, o‘ylab ko‘ring va javobingizni sharhlang.

Keys topshirig‘i. “Orzigul” dostonidagi badiiy tasviriy vositalarni yechish uchun muammoni, uning sabablarini hamda muammoni yechish uchun oz taklifingizni ko‘rsating.

O‘qituvchining javob varianti. Dostonlarda badiiy tasviriy vositalarsiz, ya’ni ma’naviy labziy san’atlarsiz kuylanmagan asar badiiyatdan yiroq tushadi. Biroq, bizningcha, asarda o‘sha tasvir vositalari qay darajada yoxud qay yo‘sinda ifodalanishini belgilashga, etibor qaratishimiz darkor “Orzigul” dostonidagi jabrlangan qiz Orzigul inson, xalq taqdiriga kuyinib yozilgan asarlar kam topiladi. Asarda kuylovchi “xolis kuzatuvchi” mavqeini tutgan: u voqea hodisalarga aralashmaydi, uning vazifasi voqelikni o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirish.

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Muammoning sabablari	Yechim va takliflar
Munaqqid S.Meliyev “O’g’ri” hikoyasiga “umuminsoniy barkamol badiiylik namunasi emas, totlitar davrning badiiy hujjati sifatida qarash tarafdori”.	Munaqqid 30-yillar voqeligidan kelib chiqib hikoya haqida fikr yuritmoqda; adib munosabati hikoyada oshkora ifoda etilmagan;	Hikoya badiiy voqeligidan kelib chiqib 30-yillar haqida fikr yuritish lozim. Shundagina hikoyada totalitar davr ta’siri bilan birga o’sha davrga munosabat ham aks etganini ko’rish mumkin bo’ladi

«Adabiyotshunoslik nazariyasi» fanidan talabalarning bilishga oid o’quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.

1. Dostonlarni qahramonlari bilan juftlang.

	Orzigul		Islom Shoir «Orzigul»
	Xolbeka		Ergash Shoir «Kuntug’mish»
	Go’ro’g’li		Po’lkan shoir «Go’ro’g’lining tug’ilishi»
	Barchin		Fozil shoir «Alpomish»

Javo	1	2	3	4
b:				

Javobi:

Javob:	1-D	2-C	3-B	4-A
---------------	-----	-----	-----	-----

2.Fojeali dostonlarda ishlatiladigan terminlarning to‘g‘ri ta’rifi bilan juftlang.

	Peripetiya		Tragik asrlarda qahramonlar tashqi qiyofasi, yoshi xulqi, xatti-harakati, sahna manzarasi va boshqa haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar.
	Asar qahramoni		Ziddiyatlar yuzaga keladigan nuqta
	Asar konflikt		Dostondagi fojeali yo‘ldan qutulishni o‘ylagan obraz
	Remarka		Asardagi kutilmagan burilish

Javo b:	1	2	3	4
----------------	---	---	---	---

Javobi:

Javob:	1-D	2-C	3-B	4-A
---------------	-----	-----	-----	-----

3. Muallif va asarlarga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.

Muallif va asarlar	жавоб рақамлар
1. Islom Shoir «Orzigul» 3. Po‘lkan shoir «Gulnor pari» 5. Ergash shoir «Ravshan»	1,3,5
2. Bekmurod shoir «Xolbeka», 4. Rahmatilla Yusuf o‘g‘li «Kuntug‘mish» 6. Zoxir shoir «Ernazarxon»	2,4,6

4. Badiiy asar tur va janrlari raqamlarini jadvalning javob raqamlari qismiga yozing.

1. G‘azal 2. Komediya 3. Ruboyi 4. Qissa 5. Fard 6. Hikoya 7. Tragediya. 8. Roman 9. Qo‘g‘irchoqbozlik 10. qasida 11. Drama 12.Ocherk

Badiiy asar tur va janrlari	Javob raqamlar
Epik asarlar	
Lirik asarlar	
Dramatik asarlar	

Javobi:

Dadiiy asar tur va janrlari	Javob raqamlari
------------------------------------	------------------------

Epik asarlar	4,6,8,12
Lirik asarlar	1,3,5,10
Dramatik asarlar	2,7,9,11

5. Quyida berilgan doston qahramonlari kimning asariga tegishli ekanligini toping va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing

Baxshi-shoir	Javob raqamlar
Ergash shoir «Kuntug‘mish»	
Islom shoir «Orzigul»	
Fozil shoir «Alpomish»	

Javobi

Baxshi-shoir	Javob raqamlar
Ergash shoir «Kuntug‘mish»	1,4,9
Islom shoir «Orzigul»	2,6,7
Fozil shoir «Alpomish»	3,5,8

6. Epik janrlarning ketma-ketligini ifodalagan holda tegishli raqamlarni kataklarga yozing.

1. Novella 2. Komediya 3. Doston 4. Askiya 5. Fard 6. Hikoya 7. Tragediya 8. Roman 9. Epopeya 10. Qasida 11. Pentalogiya 12. Ocherk 13. Og‘zaki drama 14. G‘azal 15. Qissa



Javobi:



O‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi va dars oxirida) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilgan darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘takzish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘jjalangan. Ushbu uslubni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoat shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa ham bo‘ladi.

Ushbu mashgʻulotda foydalanish mumkin boʻlgan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar roʻyxati, qalam, ruchka, slayd.

Izoh: reja boʻyicha mavzu asosida hamda oʻqituvchining qoʻygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash) ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda oʻtkazish moʻjжалangan boʻlsa guruh talabalari soniga, agar kichik guruhlarda oʻtkazish berilgan boʻlsa u holda guruhlar soniga qarab tarqatma material tayyorlanadi.

Mashgʻulotni oʻtkazish tartibi:

Talabalarni guruhlariga sharoitga qarab ajratiladi;

Talabalar mashgʻulotni oʻtkazishga qoʻyilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;

Tarqatma materiallar guruh aʼzolariga tarqatiladi;

Talabalar yakka tartibda oʻtilgan mavzu yoki yangi mavzu boʻyicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;

Talabalar tarqatma materialda mavzu boʻyicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar;

Oʻqituvchi tarqatma materialda mavzu boʻyicha berilgan tushunchalarni oʻqiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga toʻgʻri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni boʻlsa) tanishtiriladi;

Har bir talaba toʻgʻri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega boʻladilar, oʻz oʻzlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Izoh: “Tushunchalar tahlili” uslubini “Chaynvord”, “Uzluksiz zanjir”, “Klaster” “Blis zanjir” shaklida ham tashkil qilish mumkin.


Quyidagi mashgʻulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz. Talabalarga ushbu xarita beriladi. Talabalar 10 daqiqaning ichida tushunchalarini yozadilar.

Tushunchalar	Mazmuni
Doston	Yirik hajmli liro-epik turga mansub asar
Lirika	Cholgʻu asbobi liraning nomidan kelib chiqqan boʻlib, musiqa joʻrligida ijro etiluvchi sheʼr degan maʼnoni bildiradi.
Baxshi-shoir	Dostonlarni ijro etuvchi ijodkor
Jrov	Qahramonlik dostonlarini ijro qiluvchi ijodkor

Mif	Ijodning ilk namunasi bo'lib, unda ma'budlar, pahlavonlar, dunyoning yaratilishi haqidagi qarashlar o'z aksini topadi.
Ertak	Xalq dostonlarini paydo bo'lishida asos bo'lgan janr

VENN DIAGRAMMASI



Talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.



Xalq dostonlariga xos xususiyat mushtarak jihatlar adabiy dostonlarga xos xususiyat

Strategiya talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Umumta'lim maktablarining 5-sinfida maqol va topishmoqlarni o'rganishda ularning har biriga xos xususiyat va mushtarak jihatlari aniqlanadi va yoziladi.

“Klaster” usuli bo‘yicha talabalar tushunchasini mustahkamlash



“BARCHA OMILLARNI HISOBGA OL!” METODI

BOHO (BARCHA OMILLARNI HISOBGA OL) – bu shaxs e’tiborini muayyan omillarga qaratishga xizmat qiluvchi metod sanalib, uni qo’llashdan ko‘zlangan maqsad shaxs ongini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish, tafakkurini boyitishdir.

Metod qanchalik aniq maqsad asosida qo’llanilsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Agar talaba u yoki bu fikrni ochiq aytishga tortinsa, u holda metodni qo’llash hech qanday samara bermaydi.

“Folklorda badiiy tasvriy vositalarni o‘rgatishda faol metodlardan foydalanish”ni o‘rganishda metoddan foydalanishda quyidagi savollarga javob topgan holda mavzuni samarali o‘zlashtirish imkonini beradigan omillarning ro‘yxatini tuzib olish maqsadga muvofiqdir:

“Folklorda badiiy tasvriy vositalarni o‘rgatishda faol metodlardan foydalanish” mavzusini o‘qitishda qaysi omillar hisobga olindi

Ushbu mavzusini o‘zlashtirishda qanday omillar hisobga olinmadi


Ro‘yxatga yana qanday omillarni kiritish mumkin

Masalaning yana qaysi jihatlariga e’tibor berish zarur.

?

“Folklorda badiiy tasvriy vositalarni o‘rgatishda faol metodlardan foydalanish” modulini o‘rganishda videoyozuvli multimedia vositalarining o‘rni kattadir.

“Videoyozuvli multimedia vositalarining” – ta’lim oluvchilar dostonchilik an’anasini haqida o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan holda tasavvurga ega bo‘ladilar.



Bu har bir ta'lim oluvchining ko'z aloqasini o'rnatib turishiga yordam beradi.

“Folklorda badiiy tasviriy vositalarni o'rgatishda faol metodlardan foydalanish” mavzusini o'rganishda quyidagicha savollar taqdim etilishi mumkin:

O'zbek xalq dostonchilik an'anasining o'ziga xos jihatlarini ayting.

O'zbek xalq dostonchilik an'anasining yetuk baxshilari kimlar?

“Orzigul” dostonini yoritib bering.

Dostondagi badiiy tasviriyy vositalarni yoritib bering.

Xalq dostonlari haqida ma'lumot bering.

“Tushunchalar asosida matn tuzish” metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va hakoza. Odatda talabalar noma'lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o'quv muammosini hal qilish yo'llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo'ladi.

1) Xalq dostonlari, mif, ertaklar, qahramonlik qo‘shiqlari, lirika, epos.

2) Baxshilar, jirovlar, oqinlar, dostonchilar, sannovchilar, yuzboshilar.

Shundan keyin “SWOT-TAHLIL” usuli asosida topshiriq bajariladi (Talabalarga oq qog‘ozga yozish topshirilgan vaqtda o‘qituvchi doskaga SWOT jadvalini chizadi)

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

“SWOT – universal tahlil” – qahramonlarning dostonlar syujetida tutgan o‘rni va badiiy funksiyasini baholash, qahramonlar xarakterining umumiy va farqli jihatlarini tavsiflash, hayotiy muammolar yechimi yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilish malakalarini takomillashtirishda kutilgan natijalarni kafolatlashi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, obrazlarning kuchli jihatlarini (strengths), zaif tomonlari (weaknesses), imkoniyatlari (opportunities) va ularga tahdid soluvchi xavf-xatarlar (threats)ni aniqlash va tahlil qilish kompetensiyalarini takomillashtirishda texnologiya imkoniyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur texnologiya muayyan muammolar yoki loyihalarni tashkillashtirish, vaziyatni tahlil qilish va baholash vositasi bo‘lib, o‘quvchida tizimli fikrlash, solishtirish, qiyoslash va tahlil ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Umuman “O‘zbek xalq dostonchilik an‘anasi”ni o‘rganishda xilma-xil zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birgalikda talabani mavzuni tez va oson esida qolishiga yordam beradi.

XULOSA

Xalq og‘zaki ijodi har doim xalqning badiiy tarixi, milliy, ma’rifiy va ma’naviy qadriyatlarining sarchashmasi bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham mamlakatimiz istiqbolga erishganidan so‘ng og‘zaki ijodiyotga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga chiqdi va yangi O‘zbekistonda yangicha bir mazmun kashf etmoqda. Biz o‘z tariximiz, ma’naviy, milliy m’rosimiz, ayniqsa, juda ko‘p dostonlarimiz, og‘zaki ijodiyotimiz bilan xaqli ravishda faxrlanamiz. Bizning bu ulkan asarlarimiz jahon madaniyati hazinasida o‘zining munosib o‘rniga ega.

Demak, dostonlarimizda fe’l-atvori shakllangan, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan inson bilan yuzma-yuz kelamiz. Xalq og‘zaki ijodidagi har bir janr, xususan, dostonlar bevosita shuningdek, bilvosita yosh barkamol avlodni tarbiyalash maqsadini amalga oshiradi. Xalq dostonlari va og‘zaki ijodiyotning boshqa janrlaridagi asarlar an’anasi asosida tarbiyalangan shaxs odamlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishni, o‘z jonajon Vatanini sevishni o‘zidan kattalarni hurmat qilishni, kichiklarga mehr berishni, himmatli olijanob bo‘lishni qalbida singdirgan bo‘ladi. Ana shuning uchun ham biz xalq pedagogikasining asosiy omillaridan biri sifatida o‘rganamiz va imkon qadar yoshlarga yetkazishga, bu xalq og‘zaki ijodiyotiga, ayniqsa dostonlarga nisbatan qiziqish uyg‘otishga harakat qilamiz.

Ushbu monografiyaga xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, o‘zbek xalq dostonlarini o‘rganishda har doim mifologiya janrlar hamda syujet nazariy asos sifatida ustuvor bo‘lgan.

Dostonlar badiiyatiga xulosa qiladigan bo‘lsak, demak ular og‘zaki ijod me’rosidagi eng murakkab janr bo‘lib, ularda xalqimizning xalq sifatida shakllanish jarayonidan tortib, tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, urf-odatlar, ijtimoiy hayot haqidagi falsafiy qarashlari va badiiy-tasviriy vositalar keng ko‘lamda aks ettirilgan. Ana shuning uchun ham o‘zbek dostonlari ijro an’anasiga ko‘ra xilma-xilligi, badiiyati va mavzulari va rang-barangligi bilan turkiy xalqlar orasida keng shuhrat topdi. Buni albatta, «Alpomish» va boshqa dostonlar misolida ko‘ramiz.

Monografiyaning uchinchi bobiga xulosa qiladigan bo‘lsak shuni aytish mumkinki:

-Folklorda badiiy tasvriy vositalarni o‘rgatishda faol metodlardan foydalanish”ni moduli o‘zbek folkloridagi keng qamrovli, xalq badiiy tafakkurini namoyon etadigan muhim mavzulardandir. Binobarin, ushbu

modelni o'qitishda multimedia vositalaridan unumli foydalanish mavzuning talabalar tomonidan oson o'zlashtirilishiga yordam beradi.

-Ushbu modelni o'tishdan avval talabalarga xalq og'zaki ijodining muhim xususiyatlari, ayniqsa, impovizatsiya (badihago'ylik), "Baxshi" so'zining ma'nolari, O'zbekistondagi dostonchilik maktablari, dostonchilikning inson manaviyati va yoshlar kamolotidagi o'rni va ahamiyati to'g'risida malumotlar berish maqsadga muvofiqdir.

-Multimedia : (multi – ko'p, media – muhit) texnologiya bir vaqtning o'zida malumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon berishini inobatga olgan holda, ishimizga mavzu qilib olingan modulni o'qitishda quyidagilarni tavsiya qilgan bo'lardik:

O'qituvchi, avvalo, mazkur modulga oid ma'ruza matnini tadrijiy tamoyil tamoyilga amal qilgan holda sodda, ixcham shaklni tayyorlashi lozim. Bunda ustoz folklorshunoslarimiz tomonidan tayyorlangan darslik, o'quv qo'llanma va bevosita dostonchilikka va folklore nazariyasga doir ilmiy maqolalardan foydalanish mumkin.

Modulga oid slaydlar ham, mavzuning oson o'zlashtirilishiga yordam beradi. Masalan, slaydlarda o'zbek dostonchilik an'alarining turlari, ularning o'ziga xos belgilari aks etishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda, shuningdek, Folklor arxivida saqlanayotgan audio, video materiallarini dars jarayonida talabalarga eshittirish va namoyish etish samarali natija berishi shubhasizdir. Ayni vaqtda faoliyat yuritayotgan ustoz baxshi yoxud shu sohani o'rganayotgan shogird baxshilarni darsga taklif etish, aniqrog'i, "Jonli ijro va jonli muhit" uslubini tadbiq etish ushbu modulning yuqori saviyada o'qitilishining muhim omillaridandir.

-Xalq dostonlari bo'yicha suratga olingan badiiy filmlar, multafilmlardan ham mazkur modulni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

-Talabaning o'zbek dostonchilik an'anasi haqida tasavvuri yanada kengayishi va qardosh xalqlar dostonchilik an'analari bilan qiyoslanishiga imkon yaratib berish lozim, jumladan Ozarbayjon deb o'ylaymiz. Bu maqsadni amalga oshirish uchun ushbu modulga oid seminar va amaliyot mashg'ulot davomida o'qituvchi qardosh xalqlar folklor namunalari, xususan, dostonlari ijro etilgan audio, video materiallarini talabalarga namoyish etishi va ettirishi maqsadga muvofiqdir.

-Talabalar orasida ham o'z hududiga oid doston ijrochiligini ma'lum darajada egallagan talabalar bilan ishlash, dars jarayonida

shunday iste'dodli yoshlardan foydalanish ijobiy natijalar berishi tajribada ko'rilgan. O'qituvchi darsni tashkil etishda bu usul, aniqrog'i, imkoniyatdan foydalanishi mumkin.

-Taassufki, hozirgi kunga kelib o'zbek xalq dostonchiligining Farg'ona dostonchilik an'anasi deyarli yo'qolgan. Biroq uning muhim belgilaridan biri hisoblangan SAVT USULI mumtoz nazm namunalari ijrosida saqlanib qolganiga farg'ona, xususan, Qo'qonga uyushtirilgan ekspeditsiyalarimiz davomida bevosita guvoh bo'ldik. Binobarin, talaba ushubudostonchilik unitilayozgan qadriyatimiz haqida haqida aniqroq tasavvurga ega bo'lishi uchun savt usulida ijro etilgan biror audio yoki video material tabdil etiladi.

Pedagoglik faoliyatimiz va bu usulni bevosita o'zimiz amalga oshirishga harakat qilib kelmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston.-2022.
2. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л., 1974
3. Жирмунский В.М. Узбекский народный героический эпос.М.,1947
4. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т., Узбекский народный героический эпос. М.,1947, с.303.
5. Жирмунский В.М. Народный героический эпос. Л.,1962, с.195
6. O.Madayev, T.Sobitova xalq og'zaki poetik ijodi. Sharq.-T.,2011.
7. T.Sobitova Xalq ijodi saboqlari. MUMTOZ SO'Z. -T., 2011.
8. O.Madayev, M.Jo'rayev, T.Sobitova, N.Muhitdinova O'zbek folklori. Zebo print. -T., 2022.
9. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov O'zbek folklori. Tafakkur-bo'stoni.-T., 2020.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 – .B. 649.
11. Saidov M./ Muhammadnodir Saidov – Ma'rifat fidoiysi. – T. : MUMTOZ SO'Z, 2009.– B.7.
12. Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. - T.:Fan,1981. -B. 21-37
13. Mirzayev T. Doston. O'zbek folklorining epik janrlari. -T.:Fan,1981– .B.24-38.
14. Murodov M. O'zbek baxshilari poetik maktablarn.»Adabny meros».Toshkent, 1976, 4-son, 87–92-betlar.
15. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. O'sha asar – .B.61-301.
16. Saidov M.S. O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari.Toshkent, 1969, 30-32-bet.
17. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1980.-B.203-206;
18. Sarimsoqov B. Xalq dostonlarining tasnifi va oraliq shakllar masalasi“ // O'zbek tili va adbiyoti,”B.38
19. Mirzayev T. Doston.O'zbek folklorining epik janrlari. -T.: Fan,1981.-B.65-90.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I BOB. O‘ZBEK XALQ DOSTONLARINING NAZARIY ASOSLARI

1.1 Xalq dostonlarida mifologiyaning o‘rni	6
1.2 Turkiy dostonchilikning janr xususiyatlari.....	21
1.3 Dostonlar syujeti nazariyasiga doir	29

II BOB XALQ DOSTONLARINING BADIYYATI

2.1 Alpomish dostoni poetikasi.....	46
2.2 «Alpomish» dostonining badiiy masalalari	57
2.3 Dostonlarda an’anaviy uslub va poetik shakllar.....	60

III BOB XALQ DOSTONLARINI O‘QITISHDA FAOL METODLAR

3.1 Dostonlarda badiiy tasviriyl vositalarining o‘qitishning ustuvor yo‘nalishlari	71
3.2 Multimedia vositalari va ulardan foydalanishning nazariy asoslari	100
3.3 Dostonlarda badiiy tasviriyl vositalarni o‘rgatishda faol va interfaol metodlardan foydalanish.....	112

Xulosa.....	135
Foydalanilgan adabiyotlar.....	138

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOJIXON SABITOVA

**O‘ZBEK XALQ DOSTONLARINING
NAZARIY ASOSLARI VA BADIYYATI**

Toshkent
“FIRDAVS-SHOH”
2022

Monografiya
Muharrir: *D.Ulug‘murodov*
Dizayner: *B.Haydarov*

Bosishga ruxsat etildi: 21.12.2022-y.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog‘ozi.
Ofset bosma usulida bosildi. “Times” garniturası.
Shartli bosma taboq 8,75. Adadi 200 nusxa.

Original maket
“FIRDAVS-SHOH” nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 30.
Tel.: 90-372-85-17